

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

ISSN 2181-922X

**O'ZBEKISTON:
TIL VA MADANIYAT**

Adabiyotshunoslik

2022 Vol. 1 (2)

www.literature.tsuull.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

ADABIYOTSHUNOSLIK

2022 Vol. 1(2)

www.literature.tsuull.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o'rinbosarlari: Nurboy Jabborov
Bahodir Karimov

Mas'ul kotib: Sohiba Madirimova

Tahrir kengashi

Nusratulla Jumaxo'ja, Iqboloy Adizova, Dilnavoz Yusupova, Abdulla Ulug'ov, Islom Yoqubov, Qo'ldosh Pardayev, Umida Rasulova, Akrom Dehqonov, Olim To'laboyev, Tozagul Matyoqubova, Abdumurod Tilavov, Nodir Jo'raqo'ziyev, Ilhom Sayitqulov, Sohiba Umarova, Orzigul Hamroyeva, Oybarchin Abdulhakimova, Zavqiddin Suvanov, Yulduz Muhammadiyeva, Gulrux Xudoyorova, Yulduz Abdulhakimova.

Jurnal haqida ma'lumot

“Adabiyotshunoslik” – “O'zbekiston: til va madaniyat” jurnalining adabiyotshunoslik yo'nalishidagi seriyasi bo'lib, yilda ikki marta nashr etiladi.

Jurnalning **“Adabiyotshunoslik”** seriyasida o'zbek va jahon adabiyoti tarixi, xalq og'zaki ijodi, adabiyot nazariyasi, o'zbek mumtoz adabiyotining qo'lyozma manbalari va matnshunoslik muammolari, jadidchilik va jadid adabiyoti, zamonaviy adabiy jarayon, adabiy tanqid hamda qiyosiy adabiyotshunoslik yo'nalishidagi eng yangi tadqiqotlar e'lon qilinadi. O'zbek va jahon adabiyotshunosligi erishgan so'nggi yutuqlari aks etgan ilmiy maqolalarni nashr etishga alohida diqqat qaratiladi. Maqolalarning ilmiy saviyasi va tahliliy quvvati yuqori bo'lishiga e'tibor beriladi.

“Adabiyotshunoslik” seriyasida O'zbekiston va xorijiy davlatlarning e'tirof etilgan atoqli olimlari, oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar hamda magistrantlarning ilmiy maqolalari nashr etiladi.

“Adabiyotshunoslik” seriyasi 2022-yil yanvar oyidan chiqq boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: adabiyotshunoslik2022@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

www.literature.tsuull.uz

MUNDARIJA

Mumtoz adabiyot tarixi

| | |
|---|----|
| Akrom Dehqonov Navoiy qahramonlarining o'limi..... | 4 |
| Sohiba Madirimova Mutrib asarlaridagi matn tafovutlari tahlili..... | 15 |
| Tilovmurod Shaymardonov Siddiqiy-Ajziy hayoti va ijodining o'rganilishi..... | 27 |
| Furqat To 'xtamuratov Muhsiniy she'riyatining mavzu ko'lami..... | 40 |
| Oybek Boyatov Majzub Namangoniyning badiiy san'atlardan foydalanish mahorati..... | 60 |

Folklorshunoslik tadqiqi

| | |
|--|----|
| Abdumurod Tilavov Epik ot obrazining tarixiy asoslari..... | 76 |
|--|----|

Zamonaviy adabiyot muammolari

| | |
|--|-----|
| Umida Rasulova Badiiy asarda sarlavha poetikasi..... | 92 |
| Zavqiddin Suvonov Badiiy matnning lingvistik ekspertizasi ilmiy muammo sifatida..... | 100 |
| Uljon Boboqulova Lirikada obraz va obrazlilikning o'rni..... | 114 |

MUMTOZ ADABIYOT TARIXI**Navoiy qahramonlarining o'limi**Akramjon Dehqonov¹**Abstrakt**

Maqolada Alisher Navoiyning “Xamsa” asaridan joy olgan “Farhod va Shirin” hamda “Layli va Majnun” dostonlari qahramonlarining o'limi tafsilotlari tahlil qilinadi. Dostonlar qahramonlari – Farhod va Shirin, Layli bilan Majnunning o'limlari sababi yoritib berilgan. Shuningdek, ko'pchilik o'quvchilarning “bu qahramonlar o'zlarini o'ldirgan”, degan tasavvurlarining noto'g'ri ekanligi, bu qahramonlarning o'zlarini o'ldirishlari Navoiyning axloqiy-e'tiqodiy, ma'naviy qarashlariga mutlaqo zid ekani isbotlangan. Bu qahramonlarning o'limi mutlaqo tabiiy ravishda, o'zlari tomonidan biror-bir sababni yuzaga chiqarmasdan yuz bergani dostonlardan olingan misollar yordamida ko'rsatib berilgan. Insonning eng chorasiz qolgan vaqtlarida ham o'z joniga qasd qilmay, taqdirga rozi bo'lib, duoning odobiga rioya qilgan holda Yaratuvchiga iltijo qilishi lozimligi xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: *Alisher Navoiy, hayot, o'lim, inson, Farhod, Majnun, Layli, Shirin, e'tiqod, ideal.*

Kirish

Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” hamda “Layli va Majnun” dostonlarining asosiy qahramonlari bo'lgan Farhod, Majnun, Shirin va Laylilarning o'limi sabablari haqida o'quvchilardan so'ralganda ko'pincha “ular o'zlarini o'ldirganlar” mazmunidagi javoblar beriladi. Hatto ba'zan shu sohaning mutaxassislaridan ham shunga yaqin fikrlar eshutiladi.

Dostonlarda bayon qilingan asl voqelik qay tarzda ifodalanganini tahlil qilishdan oldin masalaga Alisher Navoiyning e'tiqodi, adabiy-estetik prinsiplari, qo'yingki, sof insoniy tabiat

¹Dehqonov Akramjon Qodirovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: dehqonovakromjon@navoiy-uni.uz; dehqonov1967@mail.com

ORCID ID:0000-0003-2428-7547

Iqtibos uchun: Dehqonov, A. Q. 2022. “Navoiy qahramonlarining o'limi”. *O'zbekiston: til va madaniyat* 1 (2): 4-14.

nuqtai nazaridan qarab ko'raylik.

Alisher Navoiy ideallarining yuksak timsoli bo'lgan, odamiylik, insoniylik, hayotsevarlikning tasavvur qilish ham qiyin bo'lgan yuksak cho'qqisiga olib chiqilgan ushbu qahramonlar hayoti oxir-oqibatda o'z joniga qasd qilish bilan nihoyasiga yetishi butun doston davomida ularga berilgan ta'rif-tavsiflarni yo'qqa chiqarib qo'yar edi. Chunki sog'lom e'tiqodli, sof insoniy tabiatli odam Yaratuvchining o'ziga bergan omonatiga xiyonat qilmaydi, ya'ni o'zining joniga qasd qilmaydi. Shuningdek, Navoiydek buyuk adib "Badiiy kechinma tarkibida his va aqlning uyg'unligi ijodkorni faqat his-tuyg'uga berilib, real hayot talablaridan uzoqlashib ketishga yoki umuminsoniy axloq talablaridan uzoqlashib ketishga yoki umuminsoniy axloq talablaridan chetga chiqishga yo'l qo'ymaydi" [Sarimsoqov 2022, 83].

Bu yerda ko'pchilikni chalg'itgan nozik bir holat bor. Yuqoridagi dostonlarning qahramonlari shunday qiyin va murakkab holatda qoladiki, odatda e'tiqodiy yoki ma'naviy asosi bo'sh bo'lgan badiiy asarlarning qahramonlari bunday holatda o'zlarini o'zlari o'ldirish yo'lini tanlaydilar. Hatto jahon adabiyotidagi ko'pgina mashhur asarlarning ijobiy qahramonlari ham shunday yo'l tutganligini ko'rishimiz mumkin.

Lekin G'arb adabiyotshunosligining ayrim mezonlari bilan Navoiy ijodiga yondashuv buyuk shoirga nisbatan adolatsizlik bo'ladi [Jabborov 2021,16].

Asosiy qism

Endi har bir dostondagi qahramonlarning o'limiga sabab bo'lgan omillarni birma-bir ko'rib chiqamiz.

Farhod obrazi. Xusrav hiyla bilan Farhodni asirga olgach, uni so'roqqa tutadi. Farhod Xusravning savollariga o'tkir-o'tkir javoblar beradi. Uning javoblari oldida ojiz qolgan Xusrav uni "Podshohning savollariga tap tortmay javob berdi" degan bahona bilan o'limga hukm qiladi. Bu nohaq hukmdan hamma, hatto Xusravning o'z a'yonlari ham norozi bo'ladi. Shunda Xusravning vaziri Buzurg Ummid o'rtaga tushib, o'lim hukmini ijro etmay turishni, hozircha Farhodni badda saqlash lozimligini aytadi. Xusrav rozi bo'ladi.

Shu asnoda Farhodning do'sti Shopur Farhodning Xusrav qo'lida bandi ekanligini, uning Xusrav bilan savol-javob qilganini, Xusrav uni o'limga buyurganini, keyin o'lim hukmi bekor qilinganini, shu jarayonda Farhodning Chin mamlakati shahzodasi ekani ma'lum bo'lganining xabarini Mehinbonuga yetkazadi. Bu xabardan

Mehinbonu va Shirin behad shod bo'lishadi. Shirin esa Farhodga g'oyatda ta'sirli bir maktub yozadi va bu maktubni Shopur Farhodga yetkazadi. Xullas, Farhod bilan Shirin o'rtasida xat orqali Shopur vositachiligida aloqa tiklanadi. Xusrav bundan xabar topadi va josuslar ishga tushib Shopur asir olinadi. Shopurning yonidagi Shirinning Farhodga yozgan maktubi ham Xusravga topshiriladi. Xusrav bu maktubni o'qigach, butun vujudiga o't tutashadi. Chunki maktubning har bir harfida Shirinning Farhodga bo'lgan otashin muhabbati sezilib turardi. Shuningdek, maktubda Xusravning nomi ham bir necha o'rinda zikr qilingan va u goh "zolim", goh "xunrez" kabi so'zlar bilan sifatlangan edi:

*Bo'lub ko'p zikr maktub ichra Parvez,
Ani deb gohi "zolim", gohi "xunrez" [Navoiy 1991, 391].*

Chorasiz qolgan Xusrav vaziri Buzurg Ummidni chaqirib, ichidagi bor dardini aytadi va undan bu vaziyatdan qutulish uchun maslahat so'raydi. Ikkovlari uzoq maslahatlashadi. Oxiri Farhodning oldiga bir hiylagar kampirni jo'natishga qaror qilishadi. Kampir Farhodning oldiga borib, Mehinbonu bilan Xusrav yarashgani va Shirinning Xusravga nikohlangani haqidagi yolg'on xabarni yetkazishi lozim edi. Toki bu xabarni eshitib, Farhod Shirindan umidini uzsin va o'z yurtiga jo'nab ketsin, deb reja tuzishadi.

Shunday kampirni topib olib kelib, unga maqsadni va qiladigan ishini tushuntirishadi. Kampirga katta va'dalar berib, Farhodning yoniga jo'natishadi.

Kampir o'zini dunyo ishlaridan butunlay etak yig'ishtirgan xudojo'y bir ayol qiyofasiga solib, Farhod maqom tutgan tog'ga boradi. Farhod uning yoniga kelib salom beradi va nima uchun kelganini so'raydi. Hiylagar kampir o'zining o'n-o'n besh yildan buyon xilvatda Xudoga ibodat qilib yashab kelayotganini, lekin yaqinda bu Arman mamlakatiga Xusrav Parvez degan podshoh bostirib kelib yurtni vayron qilganini, xalq xarob bo'lganini aytadi. Shuning uchun tog'da birorta g'or topib, shu yerda ibodat qilay deb keldim, deydi. Shunda Farhod undan Arman yurtidagi xabarlarni so'raydi. Kampir esa Mehinbonu bilan Xusrav yarashib, Shirinni Xusravga nikoh qilishmoqchi bo'lganini, lekin Shirin bunga rozi bo'lmay, o'zini o'zi o'ldirganini aytadi. Kampir bu voqeaning tafsilotlarini ham so'zlashga tushganda Farhod unga shunday deydi:

"...Dedi: "Bas qilki, bo'ldi qissa ma'lum.

*G'araz gar jon edi, olding ana, hoy,
O'luk tandin ne istarsen yana voy.
Ko'ngul qonin ichardin to'yg'il emdi,
Meni o'z mehnatimga qo'yg'il emdi..." [Navoiy 1991, 402].*

Bu muhlik xabar Farhodning yuragiga urilgan tig' bo'ldi. Farhod bunday shum xabarni eshitgach, o'zining o'limi yaqinligini his qiladi. Chunki Alloh taolo o'zining do'stlariga ularning o'limi haqida ishoralar bilan xabar beradi. Farhod o'z o'limi yaqinlashganini anglab, dunyodagi o'ziga yaqin bo'lgan barcha jonli-jonsiz narsalar bilan vidolasha boshlaydi. Tog'ni qazigan metini – cho'kichiga qarab aytadi: "Men sening boshingni toshga urib ko'p ozor berdim. Bugun mendan xalos topasan. Mendan yetgan ozorga rozi bo'lgin!"

Atrofida yurgan hayvonlar – darranda (vahshiy hayvonlar), parranda, charranda (o't yeydigan hayvonlar)larni ko'rib, ularga shunday vido aytadi: "Sizlar barchangiz mening ko'nglimga do'st edingiz. Sizlarning xilqatingiz vafo bilan qorilgandir. Odamzodda bor bo'lgan munofiqlik va xiyonat sizlarda yo'q. Menga g'urbatda do'st, furqatda (ayriliq kunlarimda) ulfat edingiz. Menga diyorumdan olisda, qavmu qarindoshimdan yiroqda ekanimni bildirmadingiz. Mening fig'onlarimdan ko'p og'irlik yetishsa ham malol olmadingiz. Mendan yetgan ozorlarga rozi bo'linglar!"

Shu tariqa ajali oldidan ota-onasini eslab, ular bilan g'oyibona vidolashadi. Ushbu o'rinda Navoiy nihoyatda go'zal bir badiiy priyom –uslub, vosita tanlaydi. Farhod saboga – shamolga murojaat qilib, undan ota-onasiga, yaqinlari – jigarlariga o'zining vidolashuv so'zlarini yetkazishni o'tinadi. Farhodning mana shu vidolashuvi tasvirlangan bobni dostonidagi dramatism eng kuchli namoyon bo'lgan sahna deyish mumkin. Farhodning saboga qilgan bu xitobida o'z ona yurtiga bo'lgan zo'r sog'inch va mehr, ota-onasi, yaqinlari bilan vidolashuv, emikdosh akasi Bahromga o'z qoni uchun qasos olishni qilgan vasiyati ham, barcha-barchasi jam bo'lgan.

Shu tariqa Farhod vidolashuv so'zlarini aytgach, jon taslim qiladi:

*Qilib jononi otin tilga ta'lim,
Tutub jonon otin, jon etti taslim [Navoiy 1991, 419].*

Alisher Navoiy biror o'rinda Farhod o'z joniga qasd qilgani, yoki shunga aloqador harakat qilgani haqida so'zlamaydi ham, ishora ham qilmaydi. Farhod o'ziga aytilgan xabarni yuragi ko'tara olmasdan, tabiiy ajali tufayli vafot etadi.

Shu o'rinda o'rinli bir savol tug'iladi. Farhod shu kampir olib kelgan xabarni tekshirib ko'rishga, rost-yolg'onligini aniqlashga aqli yetmasmidi? Vaholanki u shahzoda edi, hamma narsaga aqli yetardi. Aqli yetgani uchun ham dengizda kema halokatga uchragach, uni savdogarlar kemasidagilar topib olgach, kimligini so'rashganda, rostini aytmagan, balki qisqa qilib "savdogarmiz" deb aytgan edi. Keyinchalik ham Shopur necha marta qayta-qayta so'ragan bo'lsa ham kim ekanligini aytmagan edi. Shunday ziyrak va farosatli shahzoda nahotki bir kampirning gapini tekshirib ko'rishga aqli yetmasa?!

Bu o'rinda adabiyotdagi shartlilik degan o'lchov ishga tushadi. Ya'ni badiiy asardagi barcha voqea-hodisalar hayotdagi holatlarga mos tushishi shart emasligi haqidagi qoida.

Lekin Navoiyning o'zi ham mana shu o'rinda shunday savol tug'ilishi mumkinligini his etib unga o'zi Farhodning tilidan javob berib ketgan joyi bor:

*Birovkim xilqatin qildi qazo rost,
Qilur bovar, necha so'z bo'lsa norost* [Navoiy 1991,411].

(Ya'ni, Yaratuvchi birovning xilqatini, tiynatini to'g'ri qilib qo'ysa, so'z har qancha rost bo'lmasa ham unga ishonadigan qilib qo'yadi).

Farhodning butun fojeasi uning to'g'riligida, ishonuvchiligida, rostgo'yligida. Uning aslida fazilati, ustunligi ham shundadir.

Shirin obrazi. Shirin qanday vaziyatda o'lim topgan?

Farhodning o'limi haqidagi xabar tarqalgach, bu xabardan eng ko'p hayratga tushgan odam... Xusrav bo'ldi. Chunki uning Buzurg Ummid bilan tuzgan rejasi bo'yicha Farhod o'lishi emas, balki Shirindan qo'lini siltab, o'z yurtiga ketishi kerak edi. Shuning uchun Farhodning o'limi xabarini eshitgach, shunday deydi:

*Dedi: "Bu ish kerakmas erdi mundoq,
Chu bo'ldi, bo'lmas endi sust bo'lmoq* [Navoiy 1991, 424].

(Bu ish bunday bo'lishi, ya'ni Farhod o'lishi kerak emas edi. Madomiki shunday bo'libdi, endi sustlashmasdan harakat qilish lozim).

Shuning uchun Xusrav yana Mehinbonuga elchilar jo'natadi. Ular Mehinbonu huzuriga borib, aql va vaziyat taqozo qilgan ishni qilishni taklif etadilar. Bu ish Xusrav bilan sulh tuzib, Shirinni

unga nikohlab berish edi. Chunki Farhod halok bo'lgan, shuning uchun endi qarshilik ko'rsatish ham mantiqsizlikday tuyular edi. Mehinbonuning qo'l ostidagilar ham undan sulh tuzishni talab qila boshlaydilar. Chunki shaharda ozuqa tugagan, xalq och, ruhiyati tushkun. Bu ahvolda jang qilish imkonsiz edi. Shuning uchun Mehinbonu sulhga rozi bo'ladi va bu qarorini yuz xijolatlik bilan Shiringa aytadi. Shirin ham zohirda rozilik beradi. Sulh tuzilgach, Mehinbonu Xusrav huzuriga borib itoat izhor qiladi. Xusrav undan Shirinning salomatligi haqida so'raydi. Mehinbonu Shirinning sog'ligi yaxshi emasligi, tabiblar yashash joyini o'zgartirishni buyurganini aytadi. Xusrav qayerning havosi yaxshi bo'lsa, o'sha yerga Shirinni olib borib davolashni Mehinbonuning o'z ixtiyoriga beradi. Mehinbonu Armanistonning shimolidagi tog'ning tepasiga qurilgan qasrga olib bormoqchi ekanini aytadi. Bu tanlov Xusravga yoqmaydi. Chunki bu qasrni Farhod qurgan va suvni ham u yerga o'zi olib chiqqan edi. Lekin Xusrav nochor rozi bo'ladi.

Bu orada ko'p kutilmagan voqealar yuz beradi. Xusravning o'g'li Sheruya Shirinni ko'rib, uni sevib qoladi va unga yetishish uchun otasining a'yonlari bilan til biriktirib, fitna uyushtirib, otasini o'ldiradi. Lekin Navoiyning ta'biri bilan aytganda. Aslida o'g'il otasining joniga qasd qilmadi, balki falak Farhodning qoni uchun qasos olishni istadi:

*O'g'il qilmadi oning qasdi joni
Ki, davron istadi Farhod qoni.
Agar Farhodqa zulm etti Xusrav,
Evaz bot ayladi charxi sabukrav [Navoiy 1991, 437].*

Otasining taxtini egallagan Sheruya darhol Mehinbonuga odam jo'natib, Shirinni so'raydi. Mehinbonu Shirinning ixtiyori o'zida ekanini, binobarin, uning o'zi bilan so'zlashish lozimligini aytadi. Sheruya endi Shiringa odam jo'natib, o'z muddaosini aytadi. Sheruya o'z maqsadini Shiringa nazokatni tahdidga omuxta qilib bayon etadi.

Shirin Sheruyaning maqsadini bilgach, uning qo'liga tushishdan ko'ra o'lim o'zi uchun afzal ekanini anglaydi. Lekin uning elchisiga zohirda lutf bilan, mayinlik bilan umidvor qiluvchi javobni beradi va undan ikki narsani so'raydi: Shopurni banddan ozod qilishni va halok bo'lgan Farhodning tanasini. Toki Shirinnig o'zi uni hurmat bilan dafn etsin. Sheruya uning ikkala so'ragan narsasiga ham rozi bo'ladi. Shu o'rinda Shirinning g'oyat oqila, tadbirli va jasur ayol ekani ko'ringan. U bu tadbir bilan faqat vaqtdan yutmoqchi

edi. Chunki Sheruyaga ters borib biror maqsadga erishib bo'lmadi. Ehtimol, Alloh bu orada hech kim kutmagan bir ishni yuzaga chiqarar.

Shopur Shirinning talabi bo'yicha Farhod halok bo'lgan tog'ga borib uning jasadini Shirinning taxtiravoniga solib olib keladi. Maxsus qasrga Farhodning jasadini olib kirishib, so'ng Shiringa xabar berishadi. Shirin Mehinbonuning oldiga kirib o'zini bir muddat Farhod bilan xoli qoldirishlarini, ya'ni Farhodning yoniga o'zidan boshqa hech kimni kiritmaslikni so'raydi. So'ng Bonu bilan vidolashganday xayrlashadi. Keyin Farhodni olib kirilgan uyga kirib, eshikni ichkaridan berkitadi. Uyquda yotgandek tinch va sokin yotgan Farhodning oldiga boradi, uning ko'kragiga boshini qo'yib, ichidan bir "oh" chiqadi-yu jon taslim qiladi.

Layli obrazi. Majnunning yor hajri o'tida kuygan taniga ota-onasining o'limi ham qo'shilganini eshitib, ya'ni Majnunning g'amiga yana g'am qo'shilganini eshitib, Layli betob bo'lib yotib qoladi. Tabiblar har qancha muolaja qilsalar ham foydasi bo'lmaydi. Laylining dardi tobora og'irlashib, isitmasi ko'tarilib boradi. O'z ajalining yaqinlashganini sezib, Layli onasini yoniga chaqirib unga shunday vasiyat qiladi: "Onajon, mening o'limim yaqinlashdi. Agar hozir sizga "Men uchun ko'p kuyinmang", desam, o'rinsiz gapaytgandek bo'laman. Lekin "To mumkin o'zingga sabr yor et, taskinu shikeb ixtiyor et" [Navoiy 1992, 281]. Mening o'lganim xabari tarqagach, mening ishqimda kuygan Majnun boshimga keladi. U kelib mening yonimda jon taslim qilsa, unga mehr bilan munosabatda bo'ling. Uni ham o'z farzandingizdek ko'rib, ikkimizni bir kafanga kafanlab birga dafn qilinglar". Shu so'zlarni aytib, Layli vasiyatini nihoyasiga yetkazadi va jon taslim qiladi.

Layliga mana shu holat yuz bergan paytda Majnun bir qabr ichida xastahol yotgan edi. Shu holatda uning qulog'iga bir nido keldi: "Ey dard-u balo sipohining podshohi! Ey dard mamlakatining qahramoni! Ishq ahli senga qul bo'lishni havas qiladi. Tur! Yotadigan payt emas! Sening toza bog'ingga xazon lashkari kirib keldi. Agar bulbul bo'lsang parvoz qil! Parvonaligingni oshkor qil! Yoring ulug' safarga tushmoqda, hamrohiga intiq bo'lib turibdi. Hamroh bo'lasanmi unga, yoki u yolg'iz safarga chiqsinmi?"

Majnun bu nidoni eshitib, garchi o'zi xasta yotgan bo'lsa ham qoplondek sakrab o'rnidan turdi va Laylining qabilasi sari yo'l oldi. Bu yerda bir narsani aytib o'tish lozimki, dostonning bir necha o'rinlarida Majnunning valoyatiga dalolat qiluvchi holatlar tasviri mavjud. Shunday holatlardan biri tushida ikkita kabutarni ko'rishi va ularni ikkita lochin tutib olishi voqeasi hamda bu tushni

o'z ota-onasining o'limiga yo'yishi. Yoki Laylining otasi Navfalning qo'shinidan mag'lubiyatga uchrash ehtimoli borligi uchun Laylini o'ldirishga qasd qilgan kuni kechasi Majnunning tushiga Layli kirib voqeani unga aytib bergani. Shundan so'ng Majnun hayqirib uyg'onadi va Navfalning oldiga borib urushni to'xtatishni undan talab qiladi. Shu tariqa Laylining hayoti saqlab qolinadi.

Bu voqea Majnunning valoyatiga dalolat qiluvchi uchinchi hodisadir. Majnun yuqoridagi nidoni eshitib, hech narsadan tap tortmay Laylining qabilasi sari intiladi. Unga butun dashtdagi vahshiylar ergashadi. Laylining uyiga yaqinlashgach, vahshiy hayvonlar uzoqroqda qoladi va Majnun Layli yotgan uyga kirib boradi. Uxlab yotgandek sokin holdagi Layliga ko'zi tushadiyu darhol jon taslim qiladi. Uyga kirgan odamlar ko'radiki, Majnun yerda jonsiz holda yotibdi.

Shundan so'ng odamlar bu ikki oshiq-ma'shuqni qanday dafn qilish masalasida maslahat qilishadi. Chunki bunday ish ilgari hech bo'lmagan edi. Oxiri shunday deb qaror qilishadi: "Bu ikki g'amnok har qanday fasoddan pok edi, pok holda vafot etishdi. Bu dunyodan armon bilan borishdi. Jannatda ruhlari birga bo'lsin. Tuproqlari ham bir-biriga qo'shilsin", deb, yana Laylining vasiyati ham shunday bo'lganini eslashib ikkisini birga dafn etishdi.

Xulosa

Insoniyat tarixida bunday holat, ya'ni bandaning o'z duosi bilan joni olinishi holati bor, mavjud hodisa. Sahobalar hayotida, ulardan keyingi avlodlardan yetishib chiqqan solih zotlar, ulamo va zohidlar hayotida bunday voqealar bo'lib o'tganligiga tarix guvoh. Masalan, Hazrati Alining ayoli Asmo binti Umays ulkan fitnalar boshlanayotganini sezib, o'zining jonini Hazrati Alidan oldin olishni so'rab duo qilgani ma'lum. Imom Buxoriyning ham Alloh taolodan o'z huzuriga ko'tarishni so'rab duo qilganligi rivoyat qilinadi.

Bunday duo qilish juda ulkan hodisa bo'lgani sababli, unda hech qanday dunyoviy g'araz-maqсад bo'lmagani uchun duoning odoblariga qat'iy rioya qilish lozim bo'ladi. Ayni holatni biz Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida, Fariduddin Attor haqidagi qismda ko'ramiz. Navoiyning hikoya qilishicha, Fariduddin Attorning avvalda atir do'koni bo'lib, u juda badavlat odam edi. Bir kuni u o'z do'konida savdo qilib turgan vaqtda, do'konga bir darvesh kirib keladi va unga bir necha marta "Alloh uchun bir narsa ber!" deb aytadi. Attor unga qaramaydi, parvo ham qilmaydi. Shunda darvesh unga: "Ey Xoja, qanday o'lasan?" deb so'raydi. Attor unga: "Sen qanday

o'lsang, shunday" deya javob beradi. Darvesh unga: "Sen mendek o'la olmaysan" deydi. Attor: "Sen qanday o'lasan? deb so'raydi. Shunda darvesh yog'ochdan bo'lgan ovqat ichadigan idishini boshiga qo'yib: "Mana bundoq" deydi va "Vallohi" deb jonini topshiradi. Buni ko'rib, Fariduddin Attorning holi o'zgaradi, do'konini va ichidagi narsalarning hammasini sadaqa qilib, tasavvuf yo'lga kirib ketadi.

Navoiyning aytishicha, Attorning tavbasiga shu voqea sabab bo'lgan ekan [7, 459].

XV asrning birinchi yarmida yashab o'tgan Haydar Xorazmiyning "Gulshan ul-asror" nomli falsafiy-didaktik dostonida ham shunga o'xshash bir voqea hikoya qilinadi.

Mahmud G'aznaviy qish kunlaridan birida o'z mulozimlari bilan ov qilish uchun sahroga chiqadi. Sahroda ov qilib yurib, o'sha yerda bir xaroba uyni ko'radi. Shoh, bu yerda birortasi yasharmikan, deb xaroba uyning ichiga kiradi. U yerda sochlari to'zigan, ozg'in bir qariya bo'yraning ustida o'tirib zikr bilan mashg'ul edi. Qariya zikrning zavqiga mast bo'lib, Mahmudning kirganini payqamaydi ham. Mahmud kirib bir muddat odob bilan turadi. Pir unga qaramaydi, e'tibor ham bermaydi. Mahmud unga yaqinlashib, salom beradi. Pir avrodini tugatib unga qaraydi va shunday deydi: "Bu yerga nima uchun kelding? Odatda bu yerga hech kim kelmas edi. Isming nima?"

Mahmud aytadi: "Meni Mahmud deyishadi. G'aznada juda mashhur odamman. Bu yer juda sovuq-ku. Bunday vayronada nima qilasiz? Shahardan sizga bir yaxshi uy qilib beray. Sovuqda bu yerda qiynalmang".

Shunda Piring ahvoli o'zgaradi va unga achchiq bilan shunday deydi: "Biz yo'lovchilarmiz. Qanday kelgan bo'lsak, shunday ketamiz. Men ona qornida ekanimdayoq rizq Egasi bo'lgan Zot vositasiz parvarish qildi. Yonar o'tni gulistonga aylantirgan Zot qish sovug'ida nima qilishni O'zi biladi. G'aniy - bemuhtoj Zot meni sendaylarga muhtoj qilmadi.

Sen-chi, sen! O'g'riga o'xshab zanjirband qilingansan! (ya'ni hamma tomondan dunyoga bog'langansan). Shu holatingda ajaling kelib qolsa, bu band-zanjirlarni qanday uza olasan?!"

Uning bunday so'zlari Mahmudga juda og'ir botdi va malollangan ohangda pirga dedi: "Ey toshbag'ir kishi, menga qanday holatda o'lasan, deb ta'na qilyapsan. Sen o'zing-chi, sen o'zing qanday o'lasan?"

Shunda qariya Mahmudga qarab bir tabassum qildi va joni chiqib ketdi:

*Pir tabassum qilibon urdi jo'sh,
To'tisi uchtiyu qafas qoldi bo'sh...*

[Muborak maktublar 1987, 235].

Mahmudning bu voqeani ko'rib ahvoli o'zgardi va g'amgin holda G'aznaga qaytdi.

Yuqorida ko'rib chiqqanimizdek, Shirin, Farhod, Farididdin Attorning do'konida jon bergan darvesh, Mahmud G'aznaviy bilan muloqot qilgan qariya, bularning barchasining o'limi tabiiy holatda yuz bergan. O'zlari tomonidan biror bir sabab hosil qilinmagan. Lekin ularning o'limlari o'zlaridan keyin ulkan yaxshiliklarga sabab bo'lgan. Farhod bilan Shirinning o'limi yer yuzida Xusrav va Sheruyaning zulmi barham topishiga, Arman yurtining bosqinchilardan ozod bo'lishiga sababchi bo'lgan bo'lsa, do'konga kirgan darveshning o'limi bir atirfurushning tavba qilib, tasavvuf yo'liga kirishiga hamda Fariduddin Attordek ulug' bir shoir va so'fiyning yetishib chiqishiga turtki bo'ldi. Shuningdek, sahrodagi xarobada yashayotgan qariya ham aslida Allohning valiyalaridan ekani ma'lum bo'ldi, uning o'limi ulug' hukmdor Mahmud G'aznaviyga o'limning haqligini eslatib, podshohning ko'nglini mahzun holatga soldi.

Adabiyotlar

- Аҳмедов, Тошпўлат. 1970. *Алишер Навоийнинг "Лайли ва Мажнун" достони*. Тошкент: Фан.
- Жабборов, Нурбой. 2021. *Маоний аҳлининг соҳибқирони*. Тошкент: Адабиёт.
- Комилов, Нажмиддин. 2009. *Тасаввuf*. Тошкент: Мовароуннаҳр-Ўзбекистон.
- Муборак мактублар*. 1987. Тошкент: Адабиёт ва санъат.
- Навой, Алишер. 1991. *Мукамал асарлар тўплами*. 20 томлик. 8-том. Тошкент: Фан.
- Навой, Алишер. 1992. *Мукамал асарлар тўплами*. 20 томлик. 9-том. Тошкент: Фан.
- Навой, Алишер. 2001. *Мукамал асарлар тўплами*. 20 томлик. 17-том. Тошкент: Фан.
- Қаюмов, Азиз. 1985. *Ишқ водийси чечаклари*. Тошкент: Адабиёт ва санъат.
- Саримсоқов, Баҳодир. 2022. *Бадийлик асослари ва мезонлари*. Тошкент: Bookmany print.
- Юсупова, Дилнавоз. 2011. *Алишер Навоий "Хамса"сида мазмун ва ритмнинг бадий уйғунлиги*. Тошкент: МУМТОЗ СЎЗ.

Death of heroes of Navoi'i

Akramjon Dehqonov¹

Abstract

The article analyzes the details of the deaths of the heroes of the epics "Farhod and Shirin" and "Layli and Majnun" in Alisher Navoi's "Khamasa". In the epics, heroes Farhod and Shirin, the cause of death of Layli and Majnun are explained. It has also been proven that many students' misconceptions that "these heroes killed themselves" are wrong, and that the suicide of these heroes is completely contrary to Navoi's moral and religious views. The fact that the deaths of these heroes took place quite naturally, by themselves, without revealing any cause, is shown by the examples taken from the epics. It is said that even in the most desperate moments of one's life, one should not commit suicide, but accept one's destiny and pray to the Creator in accordance with the etiquette of prayer.

Key words: *Alisher Navoi, life, death, human, Farkhod, Majnun, Layli, Shirin, belief, ideal.*

References

- Ahmedov, Toshpo'lat. 1970. *Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostoni*. Toshkent: Fan.
- Jabborov, Nurboy. 2021. *Maoniy ahlining sohibqironi*. Toshkent: Adabiyot.
- Komilov, Najmiddin. 2009. *Tasavvuf*. Toshkent: Movarounnahr-O'zbekiston.
- Muborak maktublar*. 1987. Toshkent: Adabiyot va san'at.
- Navoiy Alisher. 1991. *Mukammal asarlar to'plami*. 20 tomlik. 8-tom. Toshkent: Fan.
- Navoiy, Alisher. 1992. *Mukammal asarlar to'plami*. 20 tomlik. 9-tom. Toshkent: Fan.
- Navoiy, Alisher 2001. *Mukammal asarlar to'plami*. 20 tomlik. 17-tom. Toshkent: Fan.
- Qayumov, Aziz. 1985. *Ishq vodiysi chechaklari*. Toshkent: Adabiyot va san'at.
- Sarimsoqov, Bahodir. 2022. *Badiiylik asoslari va mezonlari*. Toshkent: Bookmany print.
- Yusupova, Dilnavoz. 2011. *Alisher Navoiy "Xamsa" sida mazmun va ritmning badiiy uyg'unligi*. Toshkent: MUMTOZ SO'Z.

¹ Akramjon Q. Dehqonov – Candidate of Philological Sciences, Associate Professor, Alisher Navoi'i Tashkent State University of Uzbek language and Literature.

E-mail: dehqonovakromjon@navoiy-uni.uz; dehqonov1967@mail.com

ORCID ID: 0000-0003-2428-7547

For citation: Dehqonov, A.Q. 2022. "Death of heroes of Navoi". *Uzbekistan: Language and Culture* 1 (2): 4-14.

Mutrib asarlaridagi matn tafovutlari tahlili

Sohiba Madirimova¹

Abstrakt

Ushbu maqolada Xorazm adabiy muhiti shoiri Muhammad Hasan Mutrib Hoji Tabib o'g'lining (1853–1923) lirik she'rlari matnshunoslik aspektida tadqiq qilingan. Shoirning nashr qilingan she'rlari, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida 903/IV, 906/VII raqami ostida saqlanayotgan qo'lyozmalari, Laffasiyning 12561-raqamli tazkira qo'lyozmasiva, Matnazar Pirnazarovning "Mutrib Xonaxarobiy (Risola-majmua)"si, Bolta Davlatovning "Xorazm haqiqati" gazetasi (1991-yil, 20-iyul soni), "Guliston jurnali" (1974-yil 7-soni), Polvonnazir Bobojonov (Laffasiy. Tazkirayi shuaro. 1992) tomonidan nashr qilingan she'rlari qiyoslab o'rganilgan.

Mutrib devoni qo'lyozmasini joriy imlodagi nashri bilan qiyosiy o'rganish natijasida aniqlangan farqlar ilmiy tasnif etilgan va tahlil qilingan. Qiyosiy tahlillar natijasida Mutrib devonining mukammal nashrlarini tayyorlash matnshunoslik oldidagi dolzarb vazifalardan ekanligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: *matn, devon, qo'lyozma manba, asliyat, tabdil, g'azal, maqta', bayt, band, nashr nusxa, qiyosiy tahlil.*

Kirish

Har qanday asarning manbalararo matniy tafovutlarini aniqlash va muallif variantiga yaqin mukammal variantini tiklash matnshunoslikning asosiy muammolaridan hisoblanadi. Shu paytgacha Mutrib ilmiy faoliyati xususida ba'zan umumiy tarzda, ba'zan maxsus maqolalar e'lon qilingan bo'lsa-da, shoir she'rlari matniy jihatdan maxsus tadqiq etilmagan. Shoirning XIX asr oxiri XX asr boshlarida ko'chirilgan devon qo'lyozmalari, qo'lyozma bayozlar, majmua (to'plam) hamda tazkiralarga kiritilgan she'rlaridan ayrimlari joriy imlodagi nashr etilgan. Ushbu nashrlarni shoir asarlarining asliyati bilan qiyoslaganda ular orasida matniy tafovutlar borligi

¹Madirimova Sohiba Mahmudovna – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-mail: madirimovasoxiba@navoiy-uni.uz; madirimova555@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-8609-6351

Iqtibos uchun: Madirimova, S.M. 2022. "Mutrib asarlaridagi matn tafovutlari tahlili". *O'zbekiston: til va madaniyat* 1 (2): 15-26.

ko'zga tashlanadi. Bunday matniy xatoliklar tabiiyki, ayrim o'rinlarda so'zlarning noto'g'ri o'qilishiga olib kelgan bo'lsa, ayrim hollarda shoir ifodalamoqchi bo'lgan poetik mazmunning o'zgarib ketishiga, mantiqdan uzoq g'aliz jumlar yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Bu esa o'z navbatida, Mutrib asarlarining asliyat asosidagi qiyosiy-matniy tadqiqini amalga oshirishni kun tartibiga qo'yadi.

Asosiy qism

Mutrib lirik asarlari asliyati (devon qo'lyozmalari, qo'lyozma tazkira, majmua (to'plam), bayozlardagi she'r matnlari) bilan ularning nashr variant (hozirgi kunda e'lon qilingan vaqtli matbuot nashrlari, shoir she'rlarining turli to'plam(risola-majmua, o'zbek adabiyoti xrestomatiyasi)lari o'zaro muqoyasa etildi. Ta'kidlanganidek, shoir asarlari nashrga tayyorlanish jarayonida o'zgarishlarga uchragan va bu o'zgarishlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

- *so'zlarning noto'g'ri o'qilishi;*
- *qo'shma so'zlarning to'g'ri yozilmasligi;*
- *so'zlarning leksik jihatdan farq qilishi;*
- *bayt va misralarning tushib qolishi.*

So'zlarning noto'g'ri o'qilishi. Shoir she'rlari nashrida so'z va misralarning noto'g'ri o'qilishi juda ko'p o'rinlarda ko'zga tashlanadi. Bu hol shoir asarlari mohiyatan asliyatdan uzoqlashishiga hamda poetik mazmunining o'zgarishiga olib kelgan. Masalan, Mutribning "Guliston jurnali" 1974-yil 7-son 28-sahifasiga ko'chirilgan "Etding mani" radifli g'azalining birinchi misrasida "beixtiyor" so'zi uchraydi. Bu so'z nashrga "ne ixtiyor", shu baytning ikkinchi misrasidagi "ruxingg'a" so'zi esa, "zahingg'a" tarzida noto'g'ri berilgan:

*Jono, yuzing ko'rgan chog'i **ne ixtiyor** etding mani,
Sham'i **zahingg'a** har zamon parvonavor etding mani.*

"Ixtiyor" so'zi arabchadan olingan bo'lib, tanlash, saylash, xohish, erk, huquq kabi ma'nolarni bildirsa-da, "be" qo'shimchasi bilan (be+ixtiyor) kelganda ixtiyorsiz, ixtiyori o'zida bo'lmagan kishi tasviri anglashiladi. Nashrdagi "ne ixtiyor" hamda "zahingga" so'zlarining berilishi orqali mazmun quyidagicha o'zgaradi: *jono, sani ko'rgan chog'imda mani ne (nega) ixtiyor etib qo'yib, har zamonda shamdek yorug' zahingg'a parvonavor etding.*

Tabdil qilish jarayonida asliyatdagi اختياریی so'zidagi "بی" (be) harfiga qo'yilgan nuqta ust qismida qo'yilgan bo'lsa, اختیاری (ne ixtiyor) bo'lib o'qilgan. رح (rux) so'zidagi "ر" (re) harfini ustiga qo'yilgan nuqtani ham xuddi shu shaklda izohlash mumkin. Biroq so'zlarning

noto'g'ri o'qilishi bayt mazmuniga ta'sir etgan.

Ushbu bayt B[Mutrib. Devon. Qo'lyozma. 903/IV,264^a] tayanch yordamchi manbada quyidagi ko'rinishda uchraydi:

*Jono, yuzing ko'rgan chog'i beixtiyor etding mani,
Sham'i ruxingg'a har zamon parvonavor etding mani.*

Baytning nasriy bayoni: *jono, sani ko'rgan chog'imda mani ix-tiyorsiz etib qo'yib, yuzingning sham'ig'a parvonavor etding.*

G'azalning o'ninchi misrasida "behad xumor etding mani" birikmasi uchraydi. Bu birikma nashrga "**bad**xumor etding mani" kabi tahrir etilgan:

*Jonimni o'rtab hajr aro la'ling tamannosi uchun,
Shirin kaloming shahdig'a **bad**xumor etding mani.*

B tayanch yordamchi manbada:

*Jonimni o'rtab hajr aro la'ling tamannosi uchun,
Shirin kaloming shahdig'a behad xumor etding mani.*

"Behad" so'zi "hadsiz", "cheksiz" kabi ma'nolarni bildiradi. "Badxumor" so'zi forsiy, arabiy so'zlardan yasalgan bo'lib, "ichkilik-dan keyingi eng yomon holat, o'ta xumori" ma'nosini beradi.

Baytda anglashilgan ma'no (B tayanch yordamchi manbada-gi): *labingni orzusi uchun ayriliqda jonim o'rtandi, (sen esa) shirin so'zingni bolig'a behad (hadsiz, cheksiz) xumor etding.*

Nashrda: *labingni orzusi uchun ayriliqda jonim o'rtandi, (sen esa) shirin so'zingni bolig'a badxumor etding.*

Xorazm lahjasida "badxumor" so'zi "juda yomon xumor bo'ldim" mazmunida ham ishlatiladi. Ko'ringanidek, bayt mazmu-nida unchalik o'zgarish sezilmasa-da, vazn jihatida xatolik yuzaga kelgan. Shu g'azalning oltinchi baytida ham qo'yidagicha o'zgarishni ko'rish mumkin:

*Ko'rgach yuzung tobonini tokichaman sayronida,
Doim firoq ichra g'aming chekkani zor etding mani.*

Ushbu bayt V tayanch yordamchi manbada bunday ko'chiril-gan:

*Ko'rgach yuzung tobonini nogah chaman sayronida,
Doim firoq ichra g'aming changiga tor etding mani.*

G'azal rajazi musammani solim (mustaf'ilun, mustaf'ilun, mustaf'ilun, mustaf'ilun: - - V -/ - - V -/ - - V -/ - - V -) vaznida yozilgan.

Nashrda “nogah” so‘zi “toki”, “changiga tor etding mani” birikmasi esa “chekkani zor etding mani” kabi tahrirga uchrashi bayt mazmunida g‘alizlikni yuzaga keltirgan. Bayt mazmundan *oshiq gulzorda aylanib (chaman sayronida) yurganida nogahon yorning chaqnab turgan yuzini ko‘rganligini bayon etadi va shu bilan yor (uni) doim ayriliq g‘amida cholg‘u asbobiga tor etgani mazmuni anglashiladi*. “Toki” so‘zi bog‘lovchi vazifasida keladi. Ammo baytda maqsad, mazmuni ochib bermaydi. “Nogah” so‘zi esa bir zumda, tez fursatda yuzaga kelgan voqea. “Chekkani zor” birikmasi hech qanday ma‘no anglatmaydi.

Matnazar Pirnazarov tadqiqot ishida shoir g‘azallarida ko‘plab badiiy san‘atlar qo‘llanilganiga doir misollarni keltiradi. Ilmiy tahlillar asosida shoirning badiiy mahorati ochib beriladi. Biroq bu misollardagi so‘zlarning matniga e‘tibor qaratilsa, ularda ayrim matniy farqlar borligi ko‘zga tashlanadi. Masalan, M.Pirnazarov “*Mutribning san‘atkorlik mahorati*” faslida: “... Xalq poeziyasida yozma she‘riyatda ham poetik fonetika alliteratsiya usulining mazmun va shaklga ijobiy ta‘siri bor. Mutribning quyidagi “S” tovushining takrorlanishi shu jihatdan xarakterli:

Sazrin kaloming Mutribo **s**argashtani **sayd** etib,
Har bir so‘zing, ey maxliqo, jon bergusi jon bergusi”

– tarzida shoirning *takrorga asoslangan yoyiq radifli g‘azalin*ing maqta‘ qismidan misol keltiradi [Pirnazarov 1973, 87-97]. Xo‘sh, ushbu baytdagi “*poetik fonetika alliteratsiya usuli*” qay holatda yuzaga kelgan, so‘zlarning noto‘g‘ri o‘qilishi evazigami? Baytdagi “sayd” so‘zi g‘azalning vazniga hamda mazmuniga ta‘sir etadi. “Sazrin” so‘zi esa xato o‘qilgan. Aslida bu bayt: “*Ey Mahliqo, (sening) shirin so‘zing boshi aylangan Mutribni xursand etadi. Ey oy yuzli (yor), har bir so‘zing jon bag‘ishlaydi, jon bag‘ishlaydi*” mazmuniga ega! Qo‘lyozma devon[Mutrib. Devon. Qo‘lyozma. 903/IV, 261^a]da esa ushbu bayt:

Shirin kaloming Mutribi *s*argashtani *xursand* etib,

Har bir so‘zing, ey mohliqo, jon bergusi, jon bergusi – kabi ko‘chirilgan.

Alliteratsiya san‘ati esa, muayyan tovushlar takroriga quriladi. Yuqorida qayd etilgan misralarda esa faqat “sargashta” va “xursand” so‘zlarida “s” tovushi takrorlangan. Tabiiyki, biz buni tom ma‘nodagi alliteratsiyaga misol bo‘la oladi, deb hisoblay olmaymiz. Alliteratsiya (Tavze) – she‘rda, jumlada, bandda va qisman nasriy asarlarda ham bir xil undosh tovushlarning takrorlanishi. Tovushlar ohangdorligi, asosan bir xil tovushlarning takrorlanishidan hosil bo‘lgan ohangdoshlik alliteratsiya deb yuritiladi [O‘ZME, 2000,

40]. Bunga misol qilib Furqatning “*Sayding qo’yaber, sayyod, sayyora ekan mendek...*” misrasi bilan boshlanuvchi musaddasi yoki bo’lmasa, E.Vohidovning “*Qaro qoshing, qalam qoshing, Qiyiq qayrilma qoshing qiz...*” [O’ZME 2000, 40] kabi misralari bilan boshlanuvchi she’rlarini eslash kifoya. Dastlab, Polvonnazir Bobojonov tomonidan tayyorlangan nashr xususida to’xtalamiz. U Laffasiy tazkirasini tabdilida, “Mutribkim, Muhammad Husayin devon Hoji tabib o’g’li” - “Husayin” deb beradi, ammo Mutrib otasining ismi “Hasan”. Qo’lyozmada ham “حسن” berilgan. “Husan” bo’lishi uchun bu ism arabchasi “حسين” kabi yozilishi kerak. Nashr jarayonida, bu ism tarixiy manbalardan xabarsiz holda “Husan” tarzida xato o’qilgan [Laffasiy 1992, 84-85]. Bundan tashqari, shoirning ushbu nashrda e’lon qilingan 7 baytli “paydo” radiflig’azali matnida “*so’zlarning noto’g’ri o’qilishi*”, “*qo’shma so’zlarning to’g’ri yozilmasligi*”, “*so’zlarning leksik jihatdan farq qilishi*” kabi bir qancha matniy nomuvofiqliklar ko’zga tashlanadi. Bu g’azal Matnazar Pirnazarov tomonidan nashrga tayyorlangan “Mutrib Xonaxarobiy (risola-majmua)”sida hamda Bolta Davlatovning “Xorazm haqiqati” gazetasi [Davlatov 1991, 5] da ham nashr qilingan. Matndagi farqlar B [Mutrib. Devon. Qo’lyozma. 903/IV, 203^b], D [Mutrib. Devon. Qo’lyozma. 906/VII, 238^b] tayanch yordamchi manbalar hamda Laffasiyning 12561 (140^a-bet) raqamli qo’lyozma tazkirasida asosida qiyosiy o’rganildi.

G’azalning birinchi baytidagi “*hamdingdin*” so’zi Matnazar Pirnazarov tayyorlagan risola-majmuaga “*hamdamingdin*” shaklida o’zgarishga uchragan:

*Zihi jonlarg’a **hamdamingdin** bo’lib fayzu safo paydo,
Xayolingdin ko’ngullarga bo’lib har muddao paydo.*

Tayanch yordamchi manbalarda, Laffasiyning qo’lyozma tazkirasida, B. Davlatov hamda P. Bobojonov tayyorlagan nashrlarda quyidagicha to’g’ri beriladi:

*Zihi jonlarg’a **hamdingdin** bo’lib fayzu safo paydo,
Xayolingdin ko’ngullarga bo’lib har muddao paydo.*

G’azal hazaji musammani solim (mafoiylun, mafoiylun, mafoiylun (V---/V---/V---/V---)) vaznida yozilgan.

“Hamdam” so’zi fors tilidan olingan bo’lib, ulfat, birga yuruvchi; o’rtoq, do’st degan ma’nolarni beradi. “Hamd” so’zi esa arab tilidan olingan bo’lib, 1. Maqtov madh; 2. Shukr, tashakkur deganidir [Shamsiyev va boshqalar 1973, 763].

Baytning ma’nosi: *Sening hamdingdan jonlarga naqadar ajoyib fayz-u safo hosil bo’lib, Sen haqingda xayol surishdan ko’ngul-*

lardagi barcha muddao-maqsadlar yuzaga chiqadi.

Nashrdagi bayt mazmuni: *Sening do'stligingdan jonlarga naqadar ajoyib fayzu safo hosil bo'lib, Sen haqingda xayol surishdan ko'ngullardagi barcha muddao-maqsadlar yuzaga chiqadi.*

Baytdagi "hamd" so'zi "hamdam" deb noto'g'ri o'qilganligi sababli baytdagi ma'no o'zgarib, mazmunga ta'sir qilgan.

Ushbu g'azalning uchinchi bayti Laffasiy qo'lyozma tazkirasida quyidagicha ko'chirilgan:

*Qilib charx uzra xurshid ... mahnijilvagar tun-kun,
Olardin qudrating **birla** jumla(y)i olamg'a ziyo paydo.*

Ushbu baytda "-ila" bog'lovchi tushib qolgan. Keyingi misradagi bog'lovchi vazifasida kelgan "-la" so'zi o'zgarib, "birla" shaklida berilgan.

Tazkira nashrida:

*Qilib charx uzra xurshid **monand** jilvagar tun-kun,
Olardin qudrating **la** jumla_ olamg'a ziyo paydo.*

"Monand" [Shamsiyev va boshqalar 1973, 397] so'zi fors tilidan olingan bo'lib, "o'xshash" degani. Baytdagi "xurshid ila mahni" birikmasi "xurshid monand" bo'lib o'zgaradi. Bundan tashqari "-la" bog'lovchisi she'riy shaklda berilganda chiziqcha bilan yozilishi maqsadga muvofiqdir. Bu bilan baytda imloviy xatoga yo'l qo'yilgan. "Jumlayi olamg'a" birikmasining "jumla olamg'a" bo'lib kelishida izofa berilmagan. Ushbu bayt risola-majmuada quyidagicha uchraydi:

*Qilib **charxi xurshid ila to jilvaki** tun-kun,
Olardin qudrating-la jumla_ olamg'a ziyo paydo*

[Pirnazarov 1974, 5].

B.Davlatov tamonidan tayyorlangan nashrda:

*Qilib **xurshid charx uzra ajoyib jilvagar** tun-kun,
Olardin qudrating **la** jumla_ olamga ziyo paydo.*

Tayanch yordamchi manbalarda quyidagicha to'g'ri berilgan:

*Qilib **charx uzra xurshid ila mahni jilvagar** tun-kun,
Olardin qudrating-**la** jumlayi olamg'a ziyo paydo.*

Baytning nasriy bayoni: *Osmonda oy va quyoshni tunu kun nur-jilva sochuvchi qilib qo'ygansan. Bu ikkovidan Sening qudrating bilan butun olamga ziyo-yorug'lik paydo bo'ladi.*

Quyida shu g'azalning to'rtinchi bayti qo'lyozma tazkirada hamda tayanch yordamchi manbalardagidek aynan saqlangan:

Birov husn avji uzra guljabinu qaddimavzundur,

Birovda ishq aro bulbul kabi tun-kun navo paydo.

Bu to'rtinchi bayt nashrlarda quyidagicha beriladi:

M.Pirnazarov tayyorlagan risola-majmuada,

*Birov husni avji uzra **jibin** qaddi mahzundur,*

Birovto ishq aro bulbul kabi tun-kun navo paydo.

P.Bobojonov nashrida:

*Birovkim husnu shavqda **guljabinu** qaddi mavzundur,*

Birov__ ishq aro bulbul kabi tun-kun navo paydo.

B.Davlatov nashrida:

*Birov husn**ahli ichra gul jabinu** qaddi muzundur,*

Birovda ishq aro bulbul kabi tun-kun navo paydo.

G'azalning beshinchi baytidagi "shavq" so'zi risola-majmuada "ishq" bo'lib tahrir etilgan. "Oshiqlaringg'a" so'zidagi "-ga(-g'a)" jo'nalish kelishigi esa tushib qolgan. Natijada bayt mazmuni o'zgarib, vazn saktaligi yuzaga kelgan. Ushbu bayt quyidagicha:

Bu yanglig' husn ila ma'shuqliq izhor etib, har dam,

*Qilib **oshiqlaring ishq** aro bo'yi vafu paydo.*

Bu bayt B.Davlatov nashrida:

*Bu yanglig' husn ila **ma'shuqliq** izhor etib, **hardam**,*

*Qilib **oshiqlariga** shavq aro bo'yi **safo** paydo.*

Tayanch yordamchi manbalar, Laffasiy qo'lyozma tazkirasi hamda P.Bobojonov tayyorlagan nashrda shoir devon qo'lyozmalaridagi kabi quyidagicha to'g'ri beriladi:

*Bu yanglig' husn ila **ma'shuqliq** izhor etib, **har dam**,*

*Qilib **oshiqlaringg'a shavq** aro bo'yi **vafu** paydo.*

Baytning nasriy bayoni: *bunga o'xshash husn bilan har dam ma'shuqliqni izhor etib-ko'rsatib, oshiqlaringga shavq bilan vafoning hidini-asarini(izini) paydo qilasan.*

Shu g'azalning o'n ikkinchi misrasida "nahl" so'zi uchraydi. Bu so'z P.Bobojonov, B.Davlatovlar nashrlarida "nahl" bo'lib berilgan. "X"ning o'rniga "h" harflarining yozilishi bayt mazmunining o'zgarishiga sabab bo'lgan. Masalan, "nahl" so'zi arabchadan olingan bo'lib, 1. Ko'chat, yosh daraxt; 2. Xurmo daraxti ma'nolarini anglatasa, "nahl" esa "asalari" degan ma'noni beradi. Ushbu bayt quyidagicha:

Etib lutfing bahori tiyra tufroqdin jahon ichra

*Ming alvon **ne'matu**yer uzra **nahli**dilkusho paydo.*

Baytdagi “ne'matu yer” (ne'mat va yer) shaklida berilgan birikma matn kontekstida tarqoqlikni yuzaga keltiradi. Tayanch yordamchi manbalarga, qo'lyozma tazkiraga hamda risola-majmuaga “ne'mati yer”, ya'ni “yerni ne'mati” bo'lib to'g'ri berilgan:

*Etib lutfing bahori tiyra tufroqdin jahon ichra
Ming alvon ne'mati yer uzra naxlidilkusho paydo.*

Baytning nasriy bayoni: *Sen lutfing bahori bilan qora tuproqdan jahonda ming turli dilni yayratuvchi-ochuvchi yangi-yangi ne' matni yer yuzida paydo qilasan.*

G'azalning maqta' qismidagi “iymon” so'zi risola-majmuada “imon” shaklida, payt mazmunini ifodalovchi “to” so'zi esa tushib qolgan:

*Solib ko'nglumga **imon** gavharin __ naqdi jon **chiqqach**,
Ilohi, aylagil Mutribg'a andog' rahnamo paydo.*

Ushbu bayt B.Davlatov nashrida:

*Solib ko'nglumga **imon** gavharin to naqdi jon **chiqqach**,
Ilohi, aylagil Mutribg'a andog' rahnamo paydo.*

Tayanch yordamchi manbalarda, qo'lyozma tazkirada hamda P.Bobojonov tayyorlagan nashrda quyidagicha to'g'ri berilgan:

*Solib ko'nglumga iymon gavharin to naqdi jon chiqq'ach,
Iloho, aylagil Mutribg'a andog' rahnamo paydo.*

G'azal maqta'si shoirning yaratuvchiga jon chiqar paytida iymonini salomat saqlashni so'rab, qilgan iltijosi bilan tugaydi. Nashrlarda berilgan ushbu baytdagi farqlar bayt mazmuniga unchalik ta'sir etmagan bo'lsa-da, vaznga ta'sir etgan o'rinlar seziladi.

Bayt va misralarning tushib qolishi. B [Mutrib. Devon. Qo'lyozma. 903/IV,264^a] tayanch yordamchi manbada Mutribning “Etding mani” radifli g'azali berilgan. G'azal 7 baytdan iborat bo'lib, u “Gulistonjurnali”ning 1974-yil 7-sonida nashr etilgan. Biroq g'azal nashrda 6 bayt shaklida uchraydi:

*Nazzorayi husning uchun har lahza furqat dashtida,
Qon yig'latib, dahr ahlig'a bee'tibor etding mani*[Pirnazarov 1974, 28].

Bu bayt devon qo'lyozmasiga to'rtinchi o'rinda keladi. Ammo asossiz ravishda nashrdan tushirib qoldirilgan.

B [Mutrib. Devon. Qo'lyozma. 903/IV,205^b], D [Mutrib. Devon. Qo'lyozma. №906/VII, 139^b] tayanch yordamchi manbalarga “fido” radifli 7 baytli g'azal ko'chirilgan. Bu g'azal ham M.Pirnaza-

rovning “Mutrib Xonaxarobiy (Risola-majmua)” [Pirnazarov 2001, 7]risolasiga 6 bayt qilib beriladi. Quyidagi bir bayt nashrdan tushib qolgan va u devon qo‘lyozmalarida to‘rtinchi bayt o‘rinida kelgan:

*Rahm etib, kulbam sori qilsang xiromon noz ila,
Jismi jonim yo‘linga, ey ko‘nglum olg‘onim, fido.*

Mutribning B[Mutrib. Devon. Qo‘lyozma. 903/IV,208^a], D [Mutrib. Devon. Qo‘lyozma. 906/VII,241^b] tanyach yordamchi manbalarga ko‘chirilgan “Yo rab” radifli 7 baytli g‘azali ham risola-majmua [Pirnazarov 2001. 11] da 6 bayt tashkil etadi.

*Vafo mehrin tilab ajzu niyoz etsam janobig‘a,
Qilur har kun fuzunroq, jonima javru sitam, yo, rab.*

Yuqoridagi bayt aslyatda beshinchi o‘rinda berilgan.

B [Mutrib. Devon. Qo‘lyozma. 903/IV,208^b], D [Mutrib. Devon. Qo‘lyozma. 906/VII, 242^a] tayanch yordamchi manbalardagi 7 baytli “Ko‘rub” radifli g‘azal risola-majmua [Pirnazarov 2001. 11]ga 5 bayt qilib berilgan. Nashrdan tushib qolgan ikki bayt quyidagicha:

*Ming turfa savdolar solib boshimg‘a qotil ko‘zlari,
Rahm etmas hijron¹ qaydida iki ko‘zum qonin ko‘rub.*

*Bilmon ne zolimdur, manga ortar jafosi dambadam,
Qilmas dame obod hazin ko‘nglumni vayronin ko‘rub.*

Ushbu baytlar tayanch yordamchi manbalarda to‘rtinchi hamda oltinchi bayt bo‘lib kelgan. Misollardan ko‘rinadiki, baytlarni tushirib qoldirishga asos yo‘q. Ehtimol noshirlar nashrga tayyorlagan manbada baytlar ko‘chirilmagandir.

B [Mutrib. Devon. Qo‘lyozma. 903/IV, 230^a-228^a] tayanch yordamchi manbadan o‘rin olgan “Ketur soqiyo sog‘ari lolarang” misrasi bilan boshlanuvchi mutaqoribi musammani mahzuf vaznida yozilgan 10 baytli g‘azal risola-majmua [Pirnazarov 2001. 30] da 8 bayt. Tushib qolgan baytlar quyidagicha va ular aslyatda yettinchi hamda sakkizinchi o‘rinda berilgan:

*Boshimg‘a tushub hajr aro ko‘p alam,
Havo birla nafsimga bergach malang.
Labi yodida manda hyech qolmadi,
Ne osori xushu, ne nomusu nang.*

B [Mutrib. Devon. Qo‘lyozma. 903/IV, 233^b], D [Mutrib. Devon.

¹Ushbu g‘azalning “Rahm etmas hijron qaydida iki ko‘zum qonin ko‘rub” misrasi: ---/--V/--V/--V/--V- shaklida bo‘lib qolgan. G‘azal rajazi musammani solim vazni (mustaf‘ilun, mustaf‘ilun, mustaf‘ilun, mustaf‘ilun: --V/--V/--V/--V-) da yozilgan.

Qo'lyozma. №906/VII, 256^a] tayanch yordamchi manbalardagi "Say-ri gulshan aylarga, ey go'zal, xiromon qil" misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli g'azal risola-majmuada 6 bayt [Pirnazarov 2001, 31]. Tushib qolgan bayt shoir devon qo'lyozmalariga beshinchi baytda keladi. Ushbu bayt quyidagicha:

*Uch aysh uzra ulfat bo'lmoqingni izhorin,
Qolsun anglamay ag'yor ishq ishini pinhon qil.*

B[Mutrib. Devon. Qo'lyozma. 903/IV, 194^{a/b}] tayanch yordamchi manbadagi "Ey sho'x, g'amza tiyg'ini chekmak nedur jon ustina" misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli g'azal risola-majmuada faqat 6 bayt shaklida berilgan:

*O'tturdi g'amzang novaki gulshan aro ko'rgan kishi,
Shirin kaloming dur sohib, man zori hayron ustina.
Gul orazing uzra ajab zeb ila mushkin xollari.
Ne xush yaroshur borchasiul la'li xandon ustina.*

[Pirnazarov, 2001. 35].

Nashrda bu g'azalning birinchi bayti ikkinchi misrasi, ikkinchi bayti uchinchi misrasi sababsiz qisqartirilgan. Bundan tashqari "kishi" so'zi nashrga "chog'i" bo'lib tahrir etilgan. Bu hol mazmunga ta'sir etmasa-da, keyingi o'rindagi "borchasi" so'zining "-si" egallik qo'shimchasi tushib qolishi evaziga she'r vaznida saktalik yuzaga kelgan.

Mutribning B[Mutrib. Devon. Qo'lyozma. 903/IV, 270^b-271^a] tayanch yordamchi manbadagi Munis (*Xiromon qomatingkim, gulshani umrim niholidur*) misrasi bilan boshlanuvchi g'azaliga yozgan 9 bandli taxmisi ko'chirilgan. Ushbu taxmisning yettinchi bandi risola-majmua [Pirnazarov 2001. 38] ga quyidagi tarzda tabdil qilingan:

*Bo'lub navras niholing fayzidin ushshoqlar masrur,
Majolis ichra bukim fosh erur iki yuzingdin nur,
Jahon husning bahori birla firdavsi paridekdur,
Yo'q ersa ko'ngluma bo Ollohki, ul do'zax misolidur.*

Dastlabki ikki misradan keyin keluvchi uchinchi misra nashrda tushirib qoldirilgan. Tushirib qoldirilgan bu misra quyidagicha:

Hazin ko'nglum g'aminkim, bodayi vasling-la barham ur.

Xulosa

Har bir ijodkor asarlarini o'rganishda, eng avval matnga bo'lgan mas'uliyatni his qila bilishi lozim. Aks holda o'rganilayotgan asar mazmuniga jiddiy ta'sir etadi. Mutrib Xonaxarobning

A.Abdug'afurov, B.Davlatov, P.Bobojonov, Y.Ro'zmatov, M.Pirnazarov tomonidan gazeta va jurnallarda e'lon qilingan she'rlari hamda 2001- yilda nashr qilingan M.Pirnazarovning "Mutrib Xonaxarobiy (Risola-majmua)" siga ko'chirilgan yuzga yaqin Mutrib asarlari qayta nashrtalab ekanligini ta'kidlash lozim.

Adabiyotlar

Mutrib. XIX asrning II yarmi. *Devoni Mutrib*. O'zRFASHI, inv. 903/IV.

Mutrib. XIX asrning II yarmi. *Devoni Mutrib*. O'zRFASHI, inv. 906/VII.

Hasanmurod, Laffasiy. *Xiva shoirlari va adabiyotchilarining tarjima hollari*. O'zRFASHI, inv. 12561.

Пирназаров, Матназар. 2001. *Мутриб Хонахаробий* (Рисола-мажмуа). 3-40. Тошкент.

Ҳасанмурод, Лаффасий. 1992. *Тазкираи шуаро*. 75-83. Нашрга тайёрловчи: Полвонназир, Бобожонов. Хоразм.

Ўзбек адабиёти. 1968. Хрестоматия. V том, II китоб. 352. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти.

Давлатов, Болта. 1991. "Шоир Мутриб". *Хоразм ҳақиқати*, июль 20.

Пирназаров, Матназар. 1973. *Мутриб Хонахаробийнинг ижодий йўли*. Филол. фан. номз. дисс. Самарқанд. 1973.

Навоий асарлари луғати. 1972. Тузувчилар: Порсо Шамсиев ва бошқалар. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти.

АН-НА'ЙМ. القاموس العربى الأوزبكى / Арабча ўзбекча луғат. 2003. Тузувчилар: Одилжон Носиров ва бошқалар). Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти.

Ал-Қомус. Арабча-ўзбекча қомусий луғат. 2017. II жилд. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ.

Пирназаров, Матназар. 1974. "Ободлиғ айёмидир". *Гулистон* 7: 28. Тошкент.

Analysis of text differences Mutrib's works

Sohiba MADIRIMOVA¹

Abstract

In this article, the lyrical poems of the poet of the Khorezm literary environment Muhammad Hasan Mutrib Haji Tabib's son (1853 - 1923) are studied from the textual point of view. Published poems of the poet which

¹Madirimova Sohiba Mahmudovna - Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi'i.

E-mail: madirimovasoxiba@navoiy-uni.uz; madirimova555@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-8609-6351

For citation: Madirimova, S. 2022. "Analysis of text differences Mutrib's works". *Uzbekistan: Language and Culture*. 1 (2): 15-26.

are kept in the fund of the Institute of Oriental Studies of the Academy of Sciences of Uzbekistan, manuscripts under the numbers 903/IV, 906/VII, manuscript number 12561 by Laffasi and Matnazar Pirnazarov's "Mutrib Khonakharobi (Risola-complex)", Bolta Davlatov's poems published by "Khorezm Haqiqati" newspaper (July 20, 1991), Gulistan Magazine (July 7, 1974), poems published by Polvonnazir Bobojonov (Laffasiy. Tazkirayi shuaro. 1992) were studied comparatively.

The differences identified by a comparative study of the Mutrib devoni manuscript with the current spelling edition were scientifically classified and analyzed. Relative analysis has shown that the making of excellent editions of Mutrib's devon is one of the most important tasks in the field of textology.

Key words: *text, devon, manuscript source, original, conversion, ghazal, maqta', couplet, verse, edition copy, relative analysis.*

References

- Mutrib. XIX asrning II yarmi. *Devoni Mutrib*. O'zRFASHI, inv. 903/IV.
Mutrib. XIX asrning II yarmi. *Devoni Mutrib*. O'zRFASHI, inv. 906/VII.
Hasanmurod, Laffasiy. *Xiva shoirlari va adabiyotchilarining tarjima hollari*. O'zRFASHI, inv. 12561.
Pirnazarov, Matnazar. 2001. *Mutrib Xonaxarobiy* (Risola-majmua). 3-40. Toshkent.
Hasanmurod, Laffasiy. 1992. *Tazkirai shuaro*. 75-83. Nashrga tayyorlovchi: Polvonnazir, Bobojonov. Xorazm.
O'zbek adabiyoti. 1968. Xrestomatiya. V tom, II kitob. 352. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti.
Davlatov, Bolta. 1991. "Shoir Mutrib". *Xorazm haqiqati*, iyul 20.
Pirnazarov, Matnazar. 1973. *Mutrib Xonaxarobiyning ijodiy yo'li*. Filol. fan. nomz. diss. Samarqand. 1973.
Navoiy asarlari lug'ati. 1972. Tuzuvchilar: Porso Shamsiev va boshqalar. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.
AN-NA'YM. القاموس العربى الأوزبىكى / Arabcha o'zbekcha lug'at. 2003. Tuzuvchilar: Odiljon Nosirov va boshqalar). Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.
Al-Qomus. Arabcha-o'zbekcha qomusiy lug'at. 2017. II jild. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU.
Pirnazarov, Matnazar. 1974. "Obodlig' ayyomidir". *Guliston* 7: 28. Toshkent.

Siddiqiy-Ajziy hayoti va ijodining o'rganilishi

Tilovmurod Shaymardonov¹

Abstrakt

Maqolada Turkiston xalqlari uchun nihoyatda og'ir va ziddiyatli bo'lgan XIX asrning ikkinchi yarmi, XX asrning birinchi choragida yashab, faoliyat olib borgan ma'rifatparvar adib, jonkuyar pedagog Siddiqiy-Ajziyning hayoti va ijod yo'li haqida fikr yuritiladi. Ushbu adibning xalqimiz ma'rifatini o'stirish, ijtimoiy ongini rivojlantirish yo'lida ko'rsatgan fidokorona shijoati, sabr-matonati, zahmatli mehnati haqidagi mulohazalar bayon qilingan. Shuningdek maqolada Siddiqiy-Ajziy vafot etganidan buyon o'tgan salkam yuz yil ichida adibning hayoti va ijodiy faoliyatini o'rganish bo'yicha amalga oshirilgan deyarli barcha ishlarga munosabat bildirib o'tilgan. Ulardagi yutuq va kamchiliklar tahlil qilingan.

Siddiqiy-Ajziy XIX asr ikkinchi yarmi, XX asr boshlarida Turkistondagi ijtimoiy, madaniy, fikriy va milliy uyg'onish harakatining jonkuyar vakillaridan biri bo'lganligi alohida ta'kidlab o'tilgan.

Kalit so'zlar: *Siddiqiy-Ajziy, milliy uyg'onish, ma'rifatparvar, pedagog, adib, jonkuyar, Turkiston, Halvoyi qishlog'i.*

Kirish

Siddiqiy-Ajziy o'zbek xalqining o'z davridagi atoqli ma'rifatparvar shoiri, publitsisti va tarjimonidir. U nihoyatda sarguzashtlarga boy hayot kechirgan. Bunday ijodkorlar hayoti va ijodini aniqlash tarixiy ahamiyatga ega bo'lib, bu zamonning qandayligini va uning turli taraflarini ko'rsatib berishga yordam beradi. Biroq, uning hayoti va ijodi biror tadqiqotchi tomonidan to'laligicha o'rganilib jamlanmagan. "Tuhfat-ul-ahbob" va "Tazkirayi Muhtaram" kabi tazkiralarda Siddiqiy-Ajziyning ayrim hunarlarni yaxshi egallaganligi va ikkita forscha ishqiy she'ridan boshqa ma'lumot berilmagan. Shoirning kichik zamondoshi Rahim Hoshim ("Tursunqul") "Siddiqiy to'g'risida mulohazalar" maqolasida yozadi: "Ismi Saidahmad, unvoni Sid-

¹*Shaymardonov Tilovmurod Abilayevich* – Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi tayanch doktoranti.

E-pochta: tshaymardonov@mail.ru

Iqtibos uchun: Shaymardonov, T.A. 2022. "Siddiqiy-Ajziy hayoti va ijodi hamda uning o'rganilishi". *O'zbekiston: til va madaniyat* 1 (2): 27-39.

diqiy, laqabi Ajziydir” [Rahim 1928, 3, 39-42].

Asosiy qism

Ko'pchilik mutaxassislarning fikricha, shoir yoshligida kasallanib, ojizlanib, jussasi kichkina bo'lib qoladi. “Ajziy” taxallusi ana shu “ajiz”, “ojiz” so'zidan olingan. Bizning fikrimizcha, shoir “Ajziy” taxallusini faqat jussasining kichkinaligi, ojizligi tufayligina ishlatmagan, balki jamiyatdagi nohaqliklarga, adolatsizliklarga qarshi kurashishda ojiz qolayotganidan, odamlarning ojizligidan ana shu taxallusni qo'llagan bo'lishi mumkin. Shuningdek, u XX asr boshidagi turli gazeta va jurnallarda “Mayna”, “Gina-Gina”, “Shashpar”, “Nayza”, “Tir”, “Gumnom”, “Olmos”, kabi imzolar bilan ham satirik va yumoristik asarlar yozib turgan.

XX asrning 20-yillarida o'zbek adabiyoti va vaqtli matbuotida taxallus juda keng qo'llangan. Bu taxalluslarni aniqlash ustida ish olib borgan adabiyotshunos Bois Qoriyev (Oltoy) Siddiqiy-Ajziyning “Muqallid” taxallusi bilan ham vaqtli matbuot sahifalarida chiqishlar qilganini aytadi [Qoriyev 1967, 1, 53].

Professor Begali Qosimov Saidahmadxo'ja Siddiqiy-Ajziy haqida dastlab 1962-yilda eshitganligini aytadi: “O'zimizda (XX sezddan keyin – T.Sh.) ham ayrim maqolalar paydo bo'la boshladi. Nomi goho Hamza atrofidagi qalamkashlar ro'yxatiga qo'shiladigan bo'ldi. 1973-yilda G'afur G'ulom nashriyotida ixchamgina to'plami ham chiqdi. Matbuotda ikki xil baho o'rtaga tushdi. Birinchisi, jadid – millatchi. Ikkinchisi, taraqqiyparvar – ma'rifatchi. Jamiyatimiz iqtisodiy-ma'naviy turg'unlik botqog'iga cho'kkan sayin Siddiqiy haqidagi gap-so'zlar ham so'nib bordi va so'ng deyarli esdan chiqdi” [Qosimov 1999, 110-111].

Saidahmadxo'ja Siddiqiy-Ajziy 1864-yili Samarqandning Halvovi qishlog'ida to'quvchi oilasida dunyoga kelgan. Otasi Hasanxo'ja kambag'al to'quvchi edi. Oilasi katta bo'lmagan: bir o'g'il va bir qiz. Lekin o'sha kezlari hunarmandchilik orqasidan oilani ta'minlash oson bo'lmagan. Ana shunday qiyin sharoitda o'sib ulg'ayayotgan Saidahmadxo'ja 1868-yili 5 yoshligida otasidan ayrildi. Uni ota tomondan bobosi Alixo'ja o'z tarbiyasiga olgan. Dastlab tog'asining xotini – yangasi qo'lida savod chiqaradi.

Onasi Saidahmadxo'jani Mirzo Abdulqayum ismli soatsozga shogird qilib beradi. Iste'dodli bola bu hunarni egallashga astoydil kirishadi. Ammo ziqna va shafqatsiz usta unga o'z hunarini o'rgatishni istamay, asosan uy-yumushlari bilan band qiladi.

Shoirning o'g'li A'zamxonning aytishicha, Saidahmadxo'ja

qishni oyoqyalang, yupun holda o'tkazgan. Xo'jayinining uyi tomidagi qorni kurab tozalar ekan, uning oyoqlari sovuqdan muzlab, xuddi kuyib og'riyotgandek azob berar edi. Bu kabi zahmat-u mashaqqatlarga qaramay, u soatsozlikni puxta egallab, 11-12 yoshidayoq mustaqil hayot kechira boshlaydi. Ammo bir muncha vaqt o'tgach, faqat soat yasash bilan kun o'tkazish qiyinligi ma'lum bo'ldi. Keyin u ota kasbi to'quvchilikni o'rgandi, lekin nochorlikda yashadi. Bozorlarda rus sanoat matolarining ko'payib borishi natijasida hunarmandchilik kasodga uchradi. Natijada Siddiqiy boshqa kasb bilan shug'ullanishga majbur bo'ldi. Og'ir turmush sharoitiga qaramay, umrining 7-8 yilini hunar egallashga sarfladi va muttasil ravishda ta'lim olishga intildi. Siddiqiy-Ajziy haqida uning zamondoshi Vadud Mahmud shunday ma'lumot beradi: "Buyuk bir iste'dodga ega bo'lg'onidan ko'b san'atlarning ustosidir. Boshlab Siddiqiy yaxshi texnikdir. Soat va turli moshinalarni tuzatmoq ishiga mohirdir. Yaxshi to'quvchi va tikuvchidir, ko'b yillar bu san'at bilan yashag'ondir. Yaxshi ovchidir. Musiqa bilan ham ancha shug'ullangandir. O'z tilidan boshqa arab, fors, rus tillarini biladir. Forscha she'rlari fors adabiyoti bilan yaxshi tanish ekaniga shohiddir. Arab va rus adabiyotlari bilan ham ancha oshnodir"[Vadud 1926, 11-12].

Saidahmadxo'ja ilm-fan va texnikani puxta egallash, uni xalq xizmatiga qo'yish uchun rus tilini o'rganishni zarur deb hisoblaydi va XIX asrning 80-yillari oxiridan boshlab bu tilni o'rganishni boshlaydi hamda kattalar uchun ochilgan maktabda o'qiydi. U rus tilini Samarqandda ishlaydigan ikki rus o'qituvchisidan va Qipchoqboy ismli qozoq do'stidan o'rganadi. Shoir rus tilini uch-to'rt yil ichida o'zlashtirib oladi. Keyinchalik u asta-sekin geometriya, astronomiya, geografiya, fizika, tabiiy fanlar, Rossiya va G'arb tarixini o'rganadi. Saidahmadxo'ja XIX asrning 90-yillari ikkinchi yarmidan rus adabiyoti bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ladi. U rus yozuvchilarining eng yaxshi asarlarini ko'proq o'qiydi.

Yo'qchilikda yashagan bo'lsa ham, u madrasada o'qishni orzu qilgan. Taxminan 17-18 yoshlarida (1881-1882-yillarda) madrasaga o'qishga kirgan. Biroq turmush tarzining og'irligidan o'qishni tashlab ketishga majbur bo'ladi. U madrasada ikki-uch yilda "Sharhi mullo" gacha o'qiydi, arab va fors tillarini mukammal o'rganadi. So'ng o'qishni mustaqil ravishda davom ettiradi. Tirikchilik vajidan Xatirchida qozi huzurida mirzolik qiladi. Lekin bu uzoq davom etmaydi. Negadir tezda Samarqandga qaytib keladi va shundan amaldorlarga yaqinlashmaydi, bunday lavozimlarda ishlamaydi.

Ajziy 1887 – 1889-yillarda Buxoroga borib, u yerda asosan

zargarlik bilan shug'ullangan. U yerda shoirlar va ziyolilar bilan tanishib, ularning maslahati bilan ishqiy she'rlar yoza boshlaydi va keyinchalik fikrida o'zgarish bo'lgach, bunday she'rlarini kuydiradi [Rahim 1928, 3, 39-42]. Siddiqiy-Ajziy davrning millat ziyolilari oldiga qo'ygan vazifani teran anglaydi. Taraqqiyotdan ortda qolgan Turkistonning, jaholat girdobida qolgan, olam ahvolidan bexabar millatning ayanchli qismati uni iztirobga soladi. Adabiyotning, she'riyatning maqsadi Vatan va millat dardiga darmon bo'lmoq, uni ilm-u ma'rifatga, taraqqiyotga da'vat etmoq ekanini qalbdan his etadi. Ishaqiy mavzudagi she'rlaridan voz kechib, ularni o'tda yondirgani sababi ayni shunda. Jadidshunos Begali Qosimov fikricha: "Bunday hol faqat bizning adabiyotimizda emas, balki boshqa xalqlar adabiyotida ham uchraydi"[Qosimov 2002, 270]. Olim bunga misol sifatida Panamada mustaqillik uchun kurash avj olgan 60-yillarda (XIX asrning 60-yillari – T.Sh.) Modesto Moxikoning mana bu satrlarini tarjima qilib keltiradi:

*Ortiq kuylamasman ishq-muhabbatni,
Ilohiy she'rlarga bormaydi qo'lim.
Vatanda erk va baxt bo'lmaganicha,
Ashulamiz bitta: Ozodlik yo o'lim!*

Saidahmadxo'ja Buxoroda bor-yo'g'i ikki yil yashaydi. Shu vaqt ichida turmush sharoiti bu yerda ham yaxshi emasligiga amin bo'ladi va Samarqandga qaytadi. Hamqishlog'i Muazzamxonga uylanadi. Hokimxon va Qosimxon ismli o'g'illari tug'iladi. Hokimxon urushga ketib qaytib kelmagan. Kichik o'g'li Qosimxon esa 11–12 yoshlarida suvchechakdan vafot etgan. Siddiqiy-Ajziy keyinchalik shahardan – Samarqanddan uylanadi. Biz Samarqandga ilmiy safar qilib Bahodir Bahronov bilan qilgan suhbatimizda u kishi shunday deydi: "Men Saidahmadxo'ja Siddiqiy-Ajziyning evarasiman. Katta bobomiz Siddiqiyning xotini vafot etgach, shaharga (Samarqandga – ta'kid bizniki) kelib bizning momomizga uylangan va momomizdan A'zamxon ismli farzandlari dunyoga kelgan. U Tojikiston Fanlar akademiyasida ishlagan, surat chizishda usta bo'lgan. U kishini ko'pchilik rassom sifatida tanigan. A'zamxon bobomizning Anvar, Mahbuba, Manzura va Feruza ismli farzandlari bo'lgan. Men Manzura opaning o'g'liman. Bugungi kunda katta bobomiz Siddiqiy-Ajziyning qiz nevaralaridan avlodlari davom etib kelmoqda. Menda katta bobomizning muhr-langani shajaralari bor. Asl kelib chiqishlari turkistonlik xo'jalardan bo'lgan". Samarqandlik Sultonxon Burxonov suhbatga qo'shilib, "Men samarqandlik Is'hoqxon to'raning evarasiman. Katta bobom Is'hoq-

xon to'ra, Siddiqiy-Ajziy, Sadridin Ayniy, Nabijon qori to'rt opa-singilga uylangan – boja bo'lishgan. Menda Siddiqiy-Ajziyning qozi muhrlagan shajarasi bor edi, bu shajarani Bahodirga berganman”, deydi. Bu to'rt boja – Is'hoqxon to'ra, Siddiqiy-Ajziy, Sadridin Ayniy, Nabijon qori o'z davrining ilg'or fikrli ma'rifatparvarlari bo'lishgan. Xalq manfaati, yurt obodligi uchun astoydil harakat qilishgan.

Siddiqiy-Ajziy “Orzu yoki xayol” maqolasida (1914), “Agar man boy bo'lsa edim, ...muallim etishduraturgon bir rushdiy maktab solur edim, lekin afsuski, pulim yo'q” [Gumnom 1914, 34, 819], deya orzu qilgan edi. Oradan yuz yildan ko'proq vaqt o'tib shoir avlodlaridan bu orzuni ro'yobga chiqaradigan munosib vorislar etishib chiqdi. Bugungi kunda Ulug'bek Ahmadjonov (shoirning evarasi – Mahbuba opaning o'g'li) ilm ahliga muntazam homiylik qilib kelmoqda. Xususan, 1903-yili bobosi Siddiqiy-Ajziy tashabbusi bilan ochilgan maktabni 2018-yili o'z hisobidan qayta ta'mirlab foydalanishga topshirdi.

25-26 yoshlarigacha hayotning barcha mashaqqat va iztiroblarini boshdan kechirgan Saidahmadxo'ja Samarqand va Buxoro atrofidagi ahvolni kuzatadi, turli mamlakatlardan keladigan ko'plab forscha va turkcha gazeta va jurnallar bilan tanishadi. Asta-sekin uning ijtimoiy qarashlari shakllana boshlaydi. Xalq va mamlakat ahvoli, uni yaxshilash yo'llari haqida fikr yurita boshlaydi. Ajziy dunyoviy bilim va texnikani egallash, uni hayotga tadbiiq etish orqali qashshoqlikdan qutulish, hayotni yaxshilash mumkin, degan xulosaga keladi. U jaholat va xurofotni xalqning bosh dushmani, baxtsizliklarning asosiy sababi deb biladi. Ajziy o'sha davrning barcha ilg'orlari singari tafakkur taraqqiyotida ma'rifat yo'liga kirgan.

Saidahmadxo'ja 1901-yilda To'ppayrag'och qishlog'idagi otameros bog'ni sotib, haj ziyoratini ado etadi – muqaddas musulmon shaharlari Makka va Madinaga boradi. Avval Iroqqa, keyin Misrning ba'zi joylariga sayohat qilgan va Jiddada Rossiya konsulligida tarjimon bo'lib ishlaydi. Bu yerda rus tilidan arab tiliga va arab tilidan rus tiliga tarjima qilgan va asosiy sayohat uchun bir oz pul ishlagan. Qaytishda Tiflis va Bokuda to'xtab, Ozarboyjon ma'rifatparvarlik adabiyoti bilan yaqindan tanishadi. Ajziy ijodiga satirik shoir Aliakbar Sobir ijodi, shuningdek, uning Jalil Mamatqulizoda bilan tanishi-shi katta ta'sir ko'rsatgan.

Ajziy 1901-yilning oxirida uzoq va ta'sirli sayohatdan Samarqandga qaytib keladi va o'z yurtida Yevropa madaniyati, adabiyoti, ilm-fan, texnikasi va rus tilini targ'ib etishga kirishadi. Barcha qoloqliklarning bosh omili ilmsizlik deb bilgan shoir usuli jadid makta-

bi ochib, millat bolalariga ilm-u ma'rifat tarqatishga kirishgan. U 1901-yildan boshlab, Halvoyi qishlog'ida Ovrupo usulida maktab binosini qurdirdi. Jadidshunos Ulug'bek Dolimovning yozishicha: "Bu jadid pedagoglari tomonidan ochilgan maktab uchun birinchi ovru-pocha bino edi. Unda ikkita katta xona bo'lib, taxta polli, shiftli, har ikki xonada golland pechkasi bor edi. Xonalari keng, yorug', havosi toza, derazalari ko'chaga qaragan. Maktab ochilgan yiliyoq butunlay yangi jihozlar: parta, doska, o'qituvchi uchun stol-stul; ko'rgazmali vositalar: kurrayi arz (globus), turli xaritalar, rasmlar, kitoblar bilan ta'minlangan" [Dolimov 2012, 174]. Bino qirq nafar o'quvchiga mo'ljallangan bo'lib, maktab o'z faoliyatini 1903-yilda boshlagan. Siddiqiy darslarni o'zi tuzgan dastur, o'quv qo'llanmalari asosida o'tgan. Davomatni qayd etish va o'quvchilar bilimni baholash uchun maxsus jurnal yuritilishi yo'lga qo'ygan. Shuhrati butun Turkistonga yoyilgan ushbu maktab millat ma'rifatiga munosib xizmat qildi. Siddiqiy insonni jaholat va nodonlik zindonining torligidan imyon va ma'rifat kengligiga olib chiquvchi asosiy najotkor maktab, deb hisobladi. Ana shu g'oyani amalga oshirishga astoydil harakat qildi.

Siddiqiy-Ajziyning maktab haqidagi ma'rifiy qarashlari mukammal aks etgan asari bu – "Dar ta'rifi maktab" ("Maktab ta'rifida") deb nomlangan forscha g'azalidir. Bu g'azal shoirning 1914-yilda nashr etilgan "Ganjinayi hikmat"[Saidahmadxo'ja 1333, 33] ("Hikmat xazinasi") deb nomlangan fors tilidagi she'rlar to'plamiga kiritilgan. Asarda ijodkor maktabni *nigori jannati rizvon, quti jon, quvvati dil, ravnaqi imyon*, deya ta'riflaydi. Agar maktab bo'lmaganda, jaholat va nodonlik insonni halokat chuqurligiga tortgan bo'lar edi, deb hisoblaydi. Shoir fikricha, maktab bamisoli Nuh kemasi kabi gunoh to'fonining halokatidan omonlikka olib chiquvchidir. Yomon xulqlarni tuzatguvchi ham, inson qalbini oy singari pok va munavvar etguvchi ham maktabdir. She'r nihoyasida shoir maktabni "...inson olami-ning tarbiyachisi", deya ta'riflaydi.

Siddiqiy-Ajziy ma'rifatparvarlik faoliyatining muhim qismi bu – usuli jadid maktabi ochib, millat bolalariga ilm-u ma'rifat tarqatish bo'lgan. Siddiqiy maktabi butunlay yangi tipdagi zamonaviy maktab edi. U yerda barcha dindagi, barcha millatdagi bolalar o'qishi mumkin edi. Samarqand tibbiyot institutining sobiq professori G.N.Aleksandrov Saidahmadxo'ja Siddiqiy-Ajziyning sevimli shogirdlaridan biri bo'lgan. U Halvoyidagi Saidahmadxo'ja Siddiqiy-Ajziy ochgan maktabda ta'lim olgan. G. N. Aleksandrov bu maktab va ustoz haqida shunday xotirlaydi: "U yerda barcha fanlar – arifmetikadan tortib astronomiyagacha, arab tilidan rus tiligacha o'qitilardi. Ayniqsa, shoir

rus adabiyotini o'rgatishga katta e'tibor berardi. Siddiqiy 1914-yilda "Zarafshon" nomli maktab kutubxonasi tashkil qilib, ma'rifatparvarlik ruhidagi matbuot va adabiyotni yoyishda jonbozlik ko'rsatdi". Uning kutubxonasida "Sho'ro" jurnalidan "Hablul matiyn" gacha, Tavfiq Fikrat asarlaridan I.A.Krilov masallarigacha, Ibn Sinoning "Al-Qonun"idan Bedilning "Chor unsur"igacha bor edi. Shu yillari u "Mulla Nasriddin" jurnali bilan juda yaqin munosabatda bo'ldi. Uning ko'magi bilan chor senzurasida O'rta Osiyoda bosishga ruxsat etmagan bir qancha asarlarini Tiflisdan nashr ettirdi. Shuningdek, Peterburg, Moskva, Orenburg, Boku, Qozon, Toshkentda chiqadigan gazeta va jurnallarning ko'pchiligiga yozilgan bo'lib, shu matbuot sahifalarida o'zbek, tojik, ozarboyjon tillarida yozilgan she'rlarini chop ettirib turardi" [Shakuriy 2006, 458].

Siddiqiy-Ajziy Gogol, Turgenev, Lermontov, Tolstoy asarlarini ko'p mutolaa qilgan. Gogolning "Shinel", Turgenevning "Ov" asarlarini tarjima qilib, Halvoyi maktabi darsliklariga kiritgan. Shu bilan birga, Turgenevning "Ov" asariga taqlid qilib, O'rta Osiyoda mashhur bo'lgan "Ov" nomli qissa yozadi. Shoir bu asarlarni nashr etishning uddasidan chiqqan olmagan, shu sababli ular bugun bizda yo'q. Siddiqiy-Ajziyning "Mukolamayi fajoiya" asari ham bizgacha yetib kelmagan. "Serb xalqining muborizasi" dostonining 48 misrasigina yetib kelgan, xolos [Shakuriy 2006, 99-102].

Ajziy she'riyatining asosiy mavzusi o'rta asrlar ta'lim uslublarini isloh qilish, soxta shayxlar va riyokor so'filarning badxulqlarini ochib berish, dunyoviy bilimlarni targ'ib qilish, rus tili va rus madaniyatini o'rganish va o'rgatishdir.

1909-yilda shoir "Mir'oti ibrat" dostoni ustida ish olib borayotgan bir paytda Sadriddin Ayniy Samarqandga keladi. Sadriddin Ayniy suhbat chog'ida Buxoro xalqining vaziyati, amir, amaldorlar va ruhoniylarning kirdikorlari borasidagi Ajziyning ma'lumotlarini to'ldirib shoirga bu mavzuda bir asar yozishni maslahat beradi. Sadriddin Ayniy hattoki asarning taxminiy rejasini Ajziyga ishora qiladi. Shu tariqa "Mir'oti ibrat"dan keyin "Anjumani arvoh" vujudga keladi. Shu yillarda mamlakatda matbuot va ilg'or adabiyotga qattiq senzura qo'yilgan edi. Garchi shoir bir necha bor ularni chop etishga harakat qilsa-da, Turkiston senzurasidan qat'iy ravishda rad javobini oladi. Shunga binoan "Mir'oti ibrat" va "Anjumani arvoh" 1912 - 1913-yillarda Tiflisdan chop etildi. Bu masnaviylarni ozarboyjonlik do'stlari, jumladan, Jalil Mamatqulizoda o'sha "Mulla Nasiriddin" jurnali chop etiladigan joyda nashr qildilar. Muallifning o'zi "Mir'oti ibrat"ni o'zbek tiliga tajima qilgan va 1914 yilda Samarqandda chop

ettirgan.

Ajziy “Mir’oti ibrat” va “Anjumani arvoh” dostonlarini nashr ettirgach, shoirga ta’qiblar kuchayadi. Bu ikki asar Turkiston va Buxoro bo’ylab katta ta’sir ko’rsatdi va tezda keng tarqaldi. Buxoro va Samarqandda “Anjumani arvoh”ni o’qish rasman va qat’iyan man etilgan bo’lsa-da, bu ish tobora ko’proq qo’llab-quvvatlanayotgan edi. Shoirning bu ikki dostoni Samarqandni zabt etdi. O’sha paytda Shakuriyning maktabida o’qigan Vadud Mahmud aytadi: “Mir’oti ibrat” va “Anjumani arvoh” o’sha kunlarda qo’lma-qo’l bo’lar edi. Hujralarda Bedil, Soyib va Nozimxonliklarning o’rnini egalladi”[Vadud 1990, 8, 28].

“Mir’oti ibrat” va “Anjumani arvoh” asarlarining nashr etilishi Ajziyga shuhrat keltirdi va uni yangicha fikrli shoir sifatida tanitdi.

1914-1915-yillarda Samarqandda nashr etilgan Ajziyning ikki kitobi – “Aynu-l-adab” va “Ganjinayi hikmat” ham vatanparvarlik ruhidagi tarbiyaviy asarlar sifatida mashhur bo’ldi. Vadud Mahmudning ma’lumot berishicha, Shakuriy domlaning buyrug’i bilan shoir Ajziy maxsus to’plamlar tuzgan va bu to’plamlar maktabda darslik sifatida o’qitilgan.

Zolim ruhoniylarning nafrat va zug’umlari podshohlik mustamlakachilari va mahalliy hukmdorlarning dushmanligidan kam bo’lmagan. Bu dushmanlardan shoir ba’zan zarbalar ko’rgan. Vadud Mahmud ana shunday dahshatli zarbalardan birini shunday hikoya qiladi: “Ajziyning onasi vafot etganda uning janozasini mahalla imomi o’qimagan, o’tkinchilar tobutini olishmagan. Shakuriy domla shogird va tanishlarini yig’ib, jasadni Xoja Abdo’h (Xoja Abdulloh) qabristoniga olib ketdi” [Vadud 1990, 8, 21].

Halvoyidagi Siddiqiy-Ajziy maktabi va Rajabamindagi Abdulqodir Shakuriy maktablari haqida 1914-yil 3-yanvar kuni Jum’a namozi o’qib bo’lingach, Ulug’bek madrasasi ichidagi jome’da 5-6 ming musulmonning huzurida Abbosxon ismli muazzin jadidlarning va ruscha o’qishni targ’ib qiladiganlarning kofirligini va har kim bolasini usuli jadid maktabiga bersa, o’zi kofir, xotini taloq bo’lishini forsiy til bilan uzun va baland bir nutqda xaloyiqqa bildiradi.

“Oyna” jurnalida Siddiqiy-Ajziy o’zini kofir deguvchilaraga qarata quyidagi baytini e’lon qiladi:

Az haqgo’yi zabon kashidan kufrast,

To jon doram, kalomi haq mexonam [Siddiqiy-Ajziy 1914, 32-33]

(Haqiqatni so’zlash kufr bo’ladigan bo’lsa, toki jonim bor ekan, haq so’zni aytaman) degan satrlar bor edi.

Siddiqiy-Ajziyning har bir harakati qattiq nazoratga olinadi. Mutaassib ulamolar Rossiyaga sayohat qilgani, bolalarga rus tilini o'rgatgani uchun shoirga iymonsiz, shubhali shaxs sifatida qaraydilar. Boshqa tomondan Halvoyi maktabiga har ikki haftada bir inspektor kelib turgan. Shoirning viloyat inspeksiyasida tarjimon tanishi bo'lib, u inspektorlar kelishidan yashirincha xabardor qilib borgan. Shoir bir qancha qo'lyozmalarni, bir qancha o'quvchilarning daftarlarini yashirgan. Inspektorlar tomonidan maktabni tekshirish politsiyaning tintuviga o'xshagan. Ular hamma shkaflarni, stollarni, barcha joylarni ko'rib chiqishgan, kitoblarni tekshirishgan, bolalarning daftarlarini o'qishgan va keyin ularni olib ketishgan. Qolaversa, Ajziyning o'zi ham viloyat inspeksiyasiga taklif etilib, undan dars uslubi, har bir mavzu bo'yicha qo'llagan asosiy va qo'shimcha materiallari haqida batafsil ma'lumotlar olingan.

Quvg'inlar shu darajaga yetadiki, natijada shoir maktabda faoliyatini davom ettira olmay qoladi. 1910-yil 18-yanvarda Halvoyi maktabiga direktor vazifasini bajaruvchi etib tayinlangan Ajziy 1911-yil 15-iyulda ishdan bo'shatish to'g'risida ariza beradi. O'z qo'li bilan rus tilida yozilgan bu ariza O'zbekiston Milliy davlat arxivida saqlanadi [O'zbekiston 181, 134, 73].

1914-yil may oyida Ajziyning sa'y-harakati bilan Samarqandning Polvonariq qishlog'ida 24 o'quvchi ta'lim oladigan yangi uslubdagi maktab ochiladi va bu Samarqand atrofidagi birinchi yangi uslubdagi maktab edi [Oyna 1914, 31, 609]. Taxminlarga ko'ra, u may oyida Samarqandda "Zarafshon" nomli kitob do'koni ochgani uchun Polvonariq maktabini ochishga yordam bergan, biroq o'zi dars bermagan [Oyna 1914, 30, 591]. Do'konda eski va yangi kitoblar, o'quv qurollari sotilgan. Shuningdek, gazeta-jurnallar ham sotilgan va ularga obuna qilingan.

Siddiqiy 1917-yil fevral inqilobidan keyin ijtimoiy harakatlarda qatnashgan. Ishchi bolsheviklar tashkiloti "Ittifoq"ning faol a'zosi bo'lgan. 1918-yil 8-mayda "Ittifoq" Samarqand musulmon ishchi va dehqonlari Kengashiga aylantiriladi va Ajziy shu Kengash Ijroiya qo'mitasi a'zosi va Adliya komissari etib saylanadi [Hurriyat 1917-1918].

1920-yillarning boshlarida Siddiqiyda kasallik paydo bo'ladi va shu yilning oxirlariga kelib shoirning kasalligi og'irlashib, davlat xizmatidan ketishga majbur bo'ladi. U taxminan 1920-yil noyabrda Adliya vazirligidan ishdan bo'shagan.

20-yillarda Samarqandda nashr etila boshlagan o'zbekcha va tojikcha hajviy jurnallar "Mashrab", "Mulla Mushfiqiy" hamda "Zaraf-

shon” gazetasini tashkil qilishda faol ishtirok etgan. U “Mayna”, “Gina-Gina”, “Shashpar”, “Nayza”, “Tir”, “Gumnom”, “Olmos” kabi imzolar bilan satirik va yumoristik asarlar yozib turgan. Shoir “Aynu-l-adab” asaridagi she’rlariga Ajziy taxallusini qo‘llagan..

Siddiqiy-Ajziy 1922-yilda yana sevimli kasbi muallimlikka qaytdi. 1925-yilda O‘zbekiston hukumati o‘qituvchilik va ma’rifiy faoliyatning 25 yilligi munosabati bilan Ajziyga “Respublikada xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi” faxriy unvonini beradi va bir umrlik nafaqa bilan ta’minlaydi.

1925-yil iyul oyida Halvoyi maktabini butunlay tashlab, Jalolobod dam olish oromgohiga davolanish uchun ketadi. Tabibning buyrug‘iga ko‘ra shoir bu yerda bir oy qolib, har kuni cho‘milishi kerak edi, lekin shoir ikki kun ketma-ket suvda o‘tirib cho‘miladi va 15 kundan so‘ng Samarqandga qaytadi. Tabiblarning ko‘rsatmalariga bo‘ysunmaslik shoirning kasalligini yanada kuchaytiradi va uzoq xastalikdan so‘ng Siddiqiy 1927-yil 15-iyunda Halvoyi qishlog‘ida vafot etadi.

Xulosa

XIX asrning oxiri, XX asrning boshlarida O‘zbekistonda ijtimoiy fikr taraqqiyotida Siddiqiy-Ajziy va uning zamondoshlari haqidagi qimmatli fikrlar Ibragim Muminovich Muminov[Muminov 1949] hamda Alautdin Maxmudovich Bagoutdinovlarning monografik tadqiqotlarida uchraydi [Bogoutdinov 1951].

Shunindek, Siddiqiy-Ajziy hayoti va faoliyatiga oid ma’lumotlarni Vadud Mahmud, Rahim Hoshim (Tursunqul), Sadridin Ayniy, Zarif Rajabov, Iosif Samuilovich Braginskiy, Rustam Aslonov, Sharif Husaynzoda, Muhammadjon Shakuriy, Hamid Olimjon, Begali Qosimov, Ulug‘bek Dolimov, Bahodir Karimov va boshqa tadqiqotchilarning tadqiqotlarida ham uchratish mumkin.

Sharif Husaynzoda o‘ttizinchi yillarning boshlarida Ajziy ijodi bilan shug‘ullangan, xususan, shoirning nashr etilmagan she’rlarini to‘plashga harakat qilgan. U Hoji Muin Mehridan bir necha tarqoq misralarni va serblar kurashi haqidagi hikoyasini olishga muvaffaq bo‘lgan. Biroq, keyinchalik Sharif Husaynzoda Ajziy asarlarini o‘rganishni davom ettirmagan.

Siddiqiy-Ajziy XIX asrning ikkinchi yarmi, XX asrning birinchi choragi o‘zbek xalqi ma’naviy hayoti rivojida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan fidoyi va jonkuyar ma’rifatparvar adiblardan biri edi. U siyosiy jihatdan nihoyatda murakkab bo‘lgan bir davrda faoliyat olib bordi. Nima bo‘lganda ham, Siddiqiy-Ajziyning ijodida, ta’lim sohasida olib bor-

gan faoliyatida niyat xolisligi, millat taraqqiyoti uchun jon kuydirish etakchilik qilar edi. U millat va Vatan taraqqiyotini ma'rifatda, ta'limda, ilm-fanda deb bildi va shu yo'lda butun umrini sarfladi. Shoir hayoti va ijodini sinchiklab o'rganish, uning o'sha davr ijtimoiy, madaniy hayotidagi o'rnini belgilash bugungi adabiyotshunosligimiz oldidagi vazifalardan biridir.

Adabiyotlar

- Раҳим, Ҳошим (Турсунқул). 1928. "Сиддиқий тўғрисида мулоҳазалар". *Маориф ва ўқитғувчи*, 3.
- Қориев, Боис (Олтой). 1967. "Адабий тахаллуслар ҳақида". *Ўзбек тили ва адабиёти*, 1.
- Ибрат, Ажзий, Сўфизода. 1999. Тўпловчи, нашрга тайёрловчи, сўз боши ва луғат муаллифлари: Қосимов Бегали, Ахмедов Суннат, Долимов Улуғбек. Toshkent: Маънавият.
- Маҳмуд, Вадуд. 1926. "Турк шоири Ажзий". *Инқилоб*, 11 – 12.
- Раҳим, Ҳошим (Турсунқул). 1928. "Сиддиқий тўғрисида мулоҳазалар". *Маориф ва ўқитғувчи*, 3.
- Қосимов, Бегали. 2002. *Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик*. Тошкент: Маънавият.
- Гумном. 1914. "Орзу ёки хаёл". *Ойна*, 34.
- Долимов, Улуғбек. 2012. *Миллий уйғониш педагогикаси*. Тошкент: Ношир.
- Саидахмадхўжа Сиддиқий-Ажзий. 1333. *Ганжинани ҳикмат ёхуд адабиёти жадида*. Ношир муаллим Мулло Абдулқодир Шакурий. Таъби аввал (Биринчи табб).
- Шакурий М. 2006. *Нигоҳе ба адабиёти таджики садаи бист*, Душанбе: Пайванд.
- Вадуд Маҳмудӣ. 1990. "Муаллим Абдуқодир Шакурӣ". *Садои Шарқ*, 8.
- Саидахмадхўжа Сиддиқий-Ажзий. 1914. *Айну-л-адаб*. Самарқанд. Ўзбекистон Миллий давлат архиви фонди. 181-жилд, 134-папка, 73-варақ.
- Ойна* 1914, 31.
- Ойна* 1914, 30.
- Хуррият* 1917.
- Муминов, Ибрагим. 1949. *Из истории общественной и политической мысли Узбекистана конца XIX и начало XX века*, Самарканд, УзГУ.
- Багоутдинов, Алаутдин. 1951. *Из истории общественной и философской мысли Таджикского народа второй половины XIX и начало XX вв.*, Москва.

Siddiqi-Ajz's life and work and its organization

Shaymardonov Tilovmurod¹

Abstract

The article discusses the life and career of Siddiqi-Ajzi, an enlightened writer and educator who lived and worked in the second half of the 19th century and the first quarter of the 20th century, which was extremely difficult and controversial for the peoples of Turkestan. Comments on the selflessness, perseverance and hard work of this writer in the development of the enlightenment of our people, the development of social consciousness. The article also comments on almost all the work done in the nearly one hundred years since Siddiqi-Ajzi's death to study the writer's life and work. Their strengths and weaknesses are analyzed. Siddiqi-Ajzi was one of the most active representatives of the social, cultural, intellectual and national revival movement in Turkestan in the second half of the 19th century and the beginning of the 20th century.

Key words: *Siddiqi-Ajzi, National Awakening, Enlightenment, Teacher, Writer, Enthusiast, Turkestan, Halvai Village.*

References

- Rahim, Hoshim (Tursunqul). 1928. "Siddiqiy to'g'risida mulohazalar". *Maorif va o'qitg'uvchi*, 3.
- Qoriev, Bois (Oltoy). 1967. "Adabiy taxalluslar haqida". *O'zbek tili va adabiyoti*, 1.
- Ibrat, Ajziy, So'fizoda*. 1999. To'plovchi, nashrga tayyorlovchi, so'z boshi va lug'at mualliflari: Qosimov Begali, Axmedov Sunnat, Dolimov Ulug'bek. Toshkent: Ma'naviyat.
- Mahmud, Vadud. 1926. "Turk shoiri Ajziy". *Inqilob*, 11 – 12.
- Rahim, Hoshim (Tursunqul). 1928. "Siddiqiy to'g'risida mulohazalar". *Maorif va o'qitg'uvchi*, 3.
- Qosimov, Begali. 2002. *Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik*. Toshkent: Ma'naviyat.
- Gumnom. 1914. "Orzu yoki xayol". *Oyna*, 34.
- Dolimov, Ulug'bek. 2012. *Milliy uyg'onish pedagogikasi*. Toshkent: Noshir.
- Saidahmadxo'ja Siddiqiy-Ajziy. 1333. *Ganjina hikmat yoxud adabiyoti jadida*. Noshir muallim Mullo Abdulqodir Shakuriy. Tab'i avval

¹Shaymardonov Tilovmurod Abilayevich is basic doctoral student at the Alisher Navoi State Museum of Literature.

E-mail: tshaymardonov@mail.ru

For citation: Shaymardonov, T.A. 2022. "Life and work of Siddiqi-Adjzi and his study". *Uzbekistan: language and culture* 1 (2): 27-39.

(Birinchi tabb).

Shakuriy M. 2006. *Nigohe ba adabiyoti tadjiki sadaii bist*, Dushanbe: Payvand.

Vadud Mahmudiy. 1990. "Muallim Abduqodiri Shakuriy". *Sadoi Sharq*, 8.

Saidahmadxo'ja Siddiqiy-Ajziy. 1914. *Aynu-l-adab*. Samarqand. O'zbekiston Milliy davlat arxivi fondi. 181-jild, 134-papka, 73-varaq.

Oyna 1914, 31.

Oyna 1914, 30.

Hurriyat 1917.

Muminov, Ibragim. 1949. *Iz istorii obshchestvennoy i politicheskoy mysli Uzbekistana konsa XIX i nachalo XX veka*, Samarkand, UzGU.

Bagoutdinov, Alautdin. 1951. *Iz istorii obshchestvennoy i filosofskoy mysli Tadjikskogo naroda vtoroy poloviny XIX i nachalo XX vv.*, Moskva.

Muhsiniy she'riyatining mavzu ko'lamini

Furqat To'xtamuratov¹

Abstrakt

Qo'qon adabiy muhiti shoirlari XIX asr oxiri – XX asr boshlarida turli janr va mavzularda ijod qilishgan. Bu davr ijodkorlari o'zlarining betakror lirik asarlari bilan mumtoz adabiyotimiz xazinasini boyitdi. Husaynquli Sulaymonquli o'g'li Muhsiniy (1860-1917-yil) ham Qo'qonda yashab ijod qilgan ana shunday iste'dodli shoirlardan biridir.

Mazkur maqolada Husaynquli Muhsiniy lirik merosi jamlangan devoni nashri va qo'lyozma nusxalari tarkibiga kirgan she'rlari mavzu ko'lamiga ko'ra tasniflangan. Shoir she'rlari ishqiy, diniy-tasavvufiy, ma'rifatparvarlik, axloqiy-falsafiy va ijtimoiy mavzularda ekani aniqlanib, tahlil etilgan. Shuningdek, shoir she'riyatining janr xususiyatlari yuzasidan ham ilmiy-nazariy qarashlar bildirilgan. Mumtoz she'riyat an'analari shoir ijodida qanday davom ettirilgani va asarlarida davr ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlar qanchalik aks etgani tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: *devon, qo'lyozma, g'azal, mavzu, ishq, diniy-tasavvufiy mavzu, ma'rifatparvarlik, ijtimoiy mohiyat, axloqiy-falsafiy masalalar, badiiy talqin.*

Kirish

Ming yillar davomida mumtoz shoirlarimiz an'anaviy she'riy shakllarda teran ma'noli asarlar yozib qoldirgan. Nazmiy janrlar tobora takomillashib borgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlari Qo'qon adabiy muhiti shoirlari ham an'anaviy janrlarda majoziy va ilohiy ishq mavzusida ijod qilganlar. Muqimiy, Furqat, Muhyi, Muhayyir, Zoriy, Zavqiy, Xaziniy kabi shoirlar o'zlarining betakror lirik asarlari bilan mumtoz adabiyotimiz xazinasini boyitgan. XIX asr o'rtalaridan boshlab Turkiston o'lkasida sodir bo'lgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar va ularning oqibatlarini millatning ilg'or fikrli shoirlari ijodida o'ziga xos uslub va shaklda ifodalana boshladi. Chor Rossiyasining mustamlakachilik siyosati natijasida Turkiston

¹To'xtamuratov Furqat Safarmurodovich – o'qituvchi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: toxtamuratov81@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-9855-2353

Iqtibos uchun: To'xtamuratov, F. S. 2022. "Muhsiniy she'riyati mavzu ko'lamini". *O'zbekiston: til va madaniyat* 1(2): 40-59.

tuproq'ida amalga oshirilgan xunrezliklar, adaolatsizliklar, xalqqa qilingan jabru zulm millatning iste'dodli, hur fikrli ijodkorlari asarlarida badiiy talqin etildi. Shuningdek, mahalliy amaldorlarning Chor mustamlakachilari bilan birgalikda xalqqa zulm qilishi shoirlar ijodida ijtimoiy-siyosiy lirikaning jadal sur'atda ommalashishiga sabab bo'ldi. Ayniqsa, Qo'qon adabiy muhiti shoirlari ijodida bu mavzu ancha keng ifodalana boshlandi.

Husaynquli Sulaymonquli o'g'li Muhsiniy (1860-1917) ham ushbu adabiy muhitning iste'dodli namoyandalaridan. U sohibi devon zullisonayn shoir, mohir xattot va tarjimon bo'lib, undan bizga salmoqli adabiy meros yetib kelgan. Bular "Gulshani jovid" ("Barhayot gulshan") devonining turli yillarda to'ldirilgan va tahrir qilingan 2 ta qo'lyozma dastxat nusxasi bo'lib, shoirning hozir Qo'qon shahrida yashayotgan avlodlari shaxsiy kutubxonasida saqlanadi. Qo'qon adabiyot muzeyida shoirning do'sti, xattot Mullo Abdullajon maxdum domullo Ali Oxund o'g'li Xo'jandiy tomonidan ko'chirilgan qo'lyozma devon va Muhsiniyning o'z dastxati bilan kitobat qilingan bayoz hamda uch varaqda bitilgan she'rlar ham qimmatli manbalar ekani jihatidan ahamiyatlidir.

Muhsiniy lirik merosi nisbatan to'liq jamlangan manba shoir devonining O'zbekiston FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida 7392-raqam ostida saqlanayotgan, 1917-yilda ko'chirilgan dastxat nusxasidir. Qo'qon adabiyot muzeyining zaxmatkash xodimi U.Ne'matov ko'p yillik ilmiy izlanishlari natijasi o'laroq 2008-yilda qo'lyozma manbalar asosida shoir devonini "Barhayot gulshan" nomi bilan joriy imloda nashr qildirdi. Ushbu nashrga shoirning g'azal, mustazod, muxammas, musaddas, musamman, tarje'band, noma, qasida, ta'rix va ruboiy janrlarida yozilgan she'rlari kiritilgan. Ammo so'nggi ilmiy izlanishlardan ma'lum bo'ldiki, Muhsiniyning yuzga yaqin she'riy asarlari hanuzgacha nashr qilinmagan va ilmiy jamoatchilikka ma'lum bo'lmay kelmoqda. Ushbu maqolada shoirning nashr qilingan va qo'lyozmalar tarkibidagi lirik asarlari tahlilga tortildi.

Asosiy qism

Husaynquli Muhsiniy madrasa tahsilini ko'rgan, fors va arab tillarini puxta bilgan va ijodida ana shu fazilatlar to'liq namoyon bo'lgan ijodkorlardan. O'zbek va fors-tojik tillaridagi she'rlari uning ijodiy salohiyati yuqori bo'lganidan dalolat beradi. Shoir amakisi Nabiqulga bag'ishlangan bir muxammasida shunday satrlarni bitadi:

Manim ilmim rivojiga takofu ayladi chandon,

*Olib Sultonmurodbek madrasidini hujrai arzon,
Kim anda ilm tahsil ayladim xursandu ham shodon,
O'qub har nav' ilmi, ko'nglum ichra qolmadi armon,
Bihamdillahki, ma'lum o'ldi har mazmunu ma'no*

[Muhsiniy 2008, 116 b].

Mazkur misralardan anglashiladiki, Muhsiniyning Qo'qondagi Sultonmurodbek madrasasida tahsil olishi va nuqtadon shoir bo'lib yetishishida amakisining xizmatlari katta bo'lgan. Adib "Gulshani jovid" qo'lyozma devoni debochasida mumtoz she'riyat uchun muhim bo'lgan bir qancha fanlarni o'qib o'rgangani haqida shunday yozadi: "*janobi mavloyim volidi amjadim o'z huquqi mafruzotlarinda xalos o'lduqlarinidin so'ngra mir'oti xayol xibrati timsollarina faqir parzandi jigarbandlarini iktisobi odobi ilm va istikmoli fazli ta'limlari jilvagar o'lub, bandayi qalil ul-xidmat va kisir ul-e'tiqodlarini g'oyati tahrir ila nihoyat targ'ib go'sturib, davron madrasalarida ulumi naqliya va aqliya va sarfiya sahviya muraxxas o'ldum*" [Muhsiniy. Qo'lyozma. 17^a].

Mumtoz she'riyat va badiiy adabiyotning nazariy asoslariga doir fanlarni o'qish Muhsiniyning shoir sifatida shakllanishida katta omil bo'lgan. Husaynquli Muhsiniy mumtoz she'riyatimizning g'azal, muxammas, musaddas, musamman, tarje'band, qasida, ta'rix va ruboiy kabi janrlarida samarali ijod qilish orqali o'zining shoir sifatida iste'dodi va salohiyatini ko'rsatgan. U she'riyatda salafllari an'analarini davom ettirish barobarida o'z davrining dolzarb mavzularida ham asarlar yozdi. Shoir devonida jamlangan lirik asarlarining salmoqli qismini g'azallar tashkil qiladi. Bu g'azallar ifoda shakli va mavzusiga ko'ra ham turlichadir.

Muhsiniy she'riyatining mavzu ko'lamini shartli tarzda quyidagicha tasnif etish mumkin:

- 1) ishq-muhabbat;
- 2) diniy-tasavvufiy;
- 3) marifatparvarlik;
- 4) ijtimoiy mavzudagi;
- 5) axloqiy-falsafiy she'rlar.

Mumtoz she'riyatda muhabbat mavzusidagi she'rlar asosiy o'rinni egallashi ma'lum. Muhsiniy devonidagi bu mavzuda bitilgan she'rlar uning shoir sifatida katta ijodiy salohiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Mavzuning "...asarda qo'yilgan ijtimoiy, falsafiy, ma'naviy-axloqiy muammolarni badiiy idrok etish uchun tanlab olingan va tasvirlangan hayot material" [Alouddin Mansur 2004, 157b], ekani

e'tiborga olinsa, Muhsiniy lirikasining mavzu qamrovi keng ekani ayon bo'ladi. Shoir ishqiy mavzuni, ayniqsa, shunday zavq-shavq bilan kuylaydiki, natijada muhabbati eng ulug' kuch bo'lib, kishiga ruhiy quvvat bag'ishlovchi, uni kamolga yetkazuvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Adib g'azallarida muhabbat mavzusi, do'stlik, vafodorlik, oliyjanoblik, sadoqat kabi insoniy fazilatlar bilan uyg'un tarzda talqin etiladi. G'azallarda ma'shuqaning go'zalligi, pok va beg'ubor sevgisi tarannum qilinadi. Shu sababli shoir g'azallarida dunyoviy ishq-muhabbat go'zal tashbehlar va sifatlashlar bilan yo'g'irilgan holda kuylanadi.

*Ey yuzi qirmizi gul, la'li labi qandu sharob,
Araqi orazi bemorina tadbira gulob*

[*Muhsiniy 2008, 15 b*].

Ushbu baytning birinchi misrasida yorning yuzi – qirmizi gulga, labi – qand-u sharobga tashbeh qilingan bo'lsa, ikkinchi misrada ma'shuqa yuzidagi ter bemor bo'lgan oshiq uchun malham gulobga qiyoslangan. Shu tarzda yorning zohiriy go'zalligi tashbeh san'ati vositasida badiiy suvratlantiriladi.

Yana bir g'azalida ma'shuqa yuzini oynadan ko'rgan oshiq aqlidan adashib hayratda qolgani, quyoshday ruxsoringni ko'rib, ko'ngli iztirobga to'lgani ifodalanadi:

*Hayrat oldi aqlimi mir'oti diydoring ko'rib,
Iztirob etti ko'ngil xurshidi ruxsoring ko'rib*

[*Muhsiniy 2008, 15^b*].

Shoir kuylagan ma'shuqa surati nihoyatda go'zaldir. Gulzorga kirib xiron aylasang, jamolingni ko'rgan tovu sening oldingda o'zining xunukligidan uyali dashtu sahroga qochadi, deya ma'shuqa chiroyini mubolag'ali tasvirlaydi.

*Aylasang sahni chamanda jilvai nozu xiron,
Dasht aro oldi o'zin tovu raftoring ko'rib*

[*Muhsiniy 2008, 15^b*].

Ma'shuqa qanchalik go'zal bo'lmasin, oshiqni hajr azobida qiyinab, sitamga giriftor etadi, unga rahm-shafqat qilmaydi.

*Jona yettim hajr aro dardu g'ami hijron chekub,
Bir tarahhum etmading dilxasta bemoring ko'rib*

[*Muhsiniy 2008, 15^b*].

Muhsiniy g'azallarida tasvirlangan ma'shuqa Navoiy, Fuzuliy,

Amiriy, Muqimiy, Furqat she'rlari mazmun mohiyatiga monandir. Shoirning "Kelmadi", "O'ldurgusi" radifli g'azallari Navoiyga nazira tarzida yozilgan.

*Kecha yolg'on va'da aylab ul parirol kelmadi,
Fikri vasli birla tokim ko'zg'a uyqu kelmadi*

[Muhsiniy 2008, 89^b].

Nazira g'azal Navoiy g'azali kabi yetti baytli bo'lib, qofiya va radif bir xil, shuning barobarida she'r mazmuni ham hamohang.

*Fig'onkim, bag'riming ul lolarux qon o'ldig'in bilmaz,
Jigar pargolasinda dog'i pinhon o'ldig'in bilmaz*

[Fuzuliy 2014, 133^b].

Yuqoridagi bayt Fuzuliy qalamiga mansub bo'lib, Muhsiniy ushbu g'azal ta'sirida quyidagi nazirani bitgan:

*Fig'onkim, dardu g'am-la ko'nglumi qon o'ldug'in bilmaz,
To'kub qonli yoshimni, chashmi giryon o'ldug'in bilmaz*

[Muhsiniy 2008, 37^b].

Mazkur nazira g'azal ishqiy mavzuda bo'lib, Fuzuliy g'azali kabi yetti baytdan tarkib topgan, bir xil radif va vaznda yozilgan.

Shunisi xarakterliki, oshiqni maftun etgan ma'shuqa dastavval o'z husni bilan olamga chiroy baxsh etgudek barno, "yuzi qirmizi gul", "la'li labi qandu sharob", "ko'zi nargis", "qomati sarv", "kiprigi novak", "so'zlari shahdu shakardan laziz", "sochi sunbul", "gul yuz", "labi g'uncha", "nozik nihol", deya sifatlanadi. Shoir uning vasfiga butun qalb harorati bilan fikr xayolida jilvalanuvchi barcha ezgu kalomini baxsh etadi. Aksincha yor husnining har a'zosi: ko'z va qosh, lab va yonoq, soch va yuzi qanchalik go'zal bo'lmasin, u oshiq ko'nglini quvontirmaydi, g'am-alamga muhtalo qilib, hajr azobiga giriftor qiladi:

*Yod aylab ikki nargis ko'zi kecha-kunlar,
Bo'ldi bemor tanim, za'f ila ahvol xarob.
Keldi dargohinga bu ojizu miskin Muhsin,
Och ani yuzig'a tavfiq ila fathi avbob*

[Muhsiniy 2008, 15^b].

Shoir muhabbat mavzusida shu kabi fikrlari orqali sevgi muqaddas tuyg'u, inson pok muhabbati bilan go'zaldir degan xulosaga keladi.

*Ko'zlaring fitnasidur jong'a balo ey, qaroko'z,
Har birin g'amzasidur inja biyo ey, qaroko'z.*

*Qatliom etti ko'zing amri ila qoshing qilichi,
Bir qalam birla hamma nomasiyo ey, qaroko'z [Muhsiniy 32^b].*

G'azalda majoziy ishq ifodalangan. Mumtoz she'riyatda ko'z – fitna qo'zg'atuvchi hisoblanadi. Oshiqning joniga balo bo'lgan bu – fitna qo'zg'ovchi qaro ko'zli ma'shuqadir. Ishva bilan suzilgan ikki ko'z go'yo oshiqni bu yoqqa kel, deya yoniga chaqirayotganday.

Muhsiniy she'riyatida ishq-muhabbat Navoiy, Fuzuliy, Amiriy, Nodira, Muqimiy, Furqat, Haziniy, Zoriy, Nisbatiy an'analarga monand bo'lishi barobarida o'ziga xos uslubda talqin etiladi. Uning ishqiy lirikasi mavzu va g'oyaviy jihatdan teranligi, uslub va ohang rang-barangligi, obrazlar tizimining mukammalligi, poetik takomili bilan diqqatga sazovordir. Shoir she'riyatida tasvirlangan lirik qahramon o'zida insoniy shuur va orzu intilishlarni, murakkab his tuyg'u va kechinmalarni mujassam eta olgan sabr-bardoshli oshiq timsolini namoyon etadi.

Muhsiniy she'riyatini o'rganish jarayonida shu narsa ayon bo'ldiki, shoir mumtoz adabiy an'analarni davom ettirish bilangina cheklanmay, uni yangilashga, badiiy kashfiyotlar qilishga uringan ijodkordir. Shoir she'riyatida lirik qahramon obrazi yetakchi o'rinda turadi.

*O'lar holatg'a yettim, so'rmadi bu xasta ahvolim
Tag'ofulpesha, zolim, purjafo, mastona yorim bor.
O'sha g'unchadahon yodida qong'a to'ldi bu ko'nglum,
Dilim xunobasidan ashki chashmi lolazorim bor.
Kamina Muhsiniy yuz novaki hajrida giryondur,
Demaydur bir za'ifu notavonu dilafgorim bor*

[*Muhsiniy 2008,28^b*].

Hijron azobida qolgan oshiqning ahvoli o'lar holatga yetsa-da, bevafo sitamgar ma'shuqa uning holiga beparvo yoridan shikoyat qiladi. Bu jafokash g'uncha dahanni o'ylab, dili qonga botadi. Keyingi misralarda oshiq holati yanada yorqin va ta'sirli o'xshatishlar bilan tasirlanadi. Dili siyoh bo'lgan oshiq ko'zidan oqqan yoshlar selidan lolazor paydo bo'lgan. So'nggi baytda shoir yor hajrida giryon ekanini, ammo ma'shuqa zaif, notavon va dilafgor oshiqqa e'tiborsizligidan shikoyat qiladi. Bu mahzun ohanglarda yor va zamondan ozor chekkan shoir ko'ngil olamining tug'yonlari o'z aksini topgan.

G'azallarda tengsiz go'zallik timsoli sifatida kuylangan yor ak-sar holatlarda o'z tashqi malohatiga zid tarzda bevafo va sitamkor, oshiqni hijron azobida qiynovchi tarzida talqin etiladi. Lekin bu holat oshiqni ishq yo'lidan qaytara olmaydi. Aksincha, uning qalbidagi

ishq otashini yanada kuchaytiradi, oshiqni ishq olovida toblaydi, kamolot darajasiga yuksaltiradi.

*Menga yorimni ishi javru jafu, ozordur,
Husn elini nazdida oshiqlar ko'p xordur.
Ul ko'zi jallod qonim to'kkali rahm aylamas,
Qirmizi kamzur ila ham ko'ngloki gulnordur,
Tobakay javru jafu tortar quling, berahm yor,
Ko'ngil olmoq fikrin et andin bo'lak bekordur,
Muhsiniyning chehrai zardig'a kulmang, do'stlar –
Kim, aning mahzun dilida g'ussasi bisyordur*

[Muhsiniy 2008, 28^b].

Lirik qahramon ya'ni, oshiq yorini qanchalik sevmasin, yori unga javru jafu ko'rsatishdan to'xtamaydi. Go'yoki go'zal husnli ma'shuqalar nazarida oshiqlar ko'p xordir. Shu sababli ma'shuqa ko'zi jallod kabi rahm qilmasdan oshiq qonini to'kmoqchi. Shuning uchun uning libosi ham qon rangida – qirmizi, ko'ylagi gulnordir. Oshiq berahm yor hajrida javru-jafu tortar ekan, undan ko'ngil olmoq fikrida bo'lishini o'tinadi. Oshiq yuzining hajrdan sarg'ayishiga kulmaslikni so'raydi, negaki, uning g'amgin dili g'ussaga to'liqdir.

Shoir lirikasidagi ishqiy mavzudagi she'rlar uning hazrat Alisher Navoiy va boshqa mumtoz shoirlar an'anasiga rioya etgan holda majoz vositasida haqiqatni kuylaganidan dalolat beradi. Bunda oshiq-ma'shuqa va raqib obrazlari uchligi asos sifatida olingani kuzatiladi. Garchi an'anaga rioya etgan bo'lsa ham, Muhsiniy muayyan obrazlar talqinida yangicha yondashishga intilgan va bunga muvaffaq bo'la olgan.

Diniy-tasavvufiy she'rlar. Muhsiniy she'riyatida bu mavzu quyidagi ko'rinishda namoyon bo'ladi.

1. *Qur'on oyatidan yoki hadisi sharifdan bir tayanch so'z yoki jumla aynan keltiriladi.*

Rahmat ummidin orzu har banda aylar justujo',

Farmon erur "lo taqnatu" omurzishi jurmu xato [Muhsiniy 2008, 11b].

Shoirning hamd g'azalidan olingan ushbu baytda "La taqnatu min rahmatillah" ("Zumar" surasi, 53-oyat), ya'ni "Allohning rahmat-marhamatidan noumid bo'lmangiz!" [Alouddin Mansur 2004, 521b], mazmunidagi Qur'oni karim oyatidan iqtibos olingan. Oyatning bir juz'i bayt ma'nosining teran ifodasini ta'minlagan.

IQTIBOS SAN'ATI

Shoirning hamd, munojot va na't ruhidagi g'azallarida aksar Qur'on oyatlaridan iqtibos oladi. Quyidagi baytlar mazmuni ham ushbu fikrni tasdiqlaydi:

*Qilma sharmanda, Iloho, meni ro'zi arosat,
Jurm isyonlarimi o'rnig'a yozg'il hasanot.
Bandai ojizu bechoralaring aylar umid,
"Hasbiy ne'mal vakil innaka qoziyul hojot"*

[*Muhsiniy 2008, 18^b*].

Dastlabki misrada lirik qahramon Yaratganga iltijo qilib, mahshar kuni arosatda sharmanda qilmasligini so'rayapti. Duo mazmunidagi ikkinchi misrada lirik qahramon gunohlari o'rniga Allohdan hasanot, ya'ni savob hamda yaxshiliklar yozishini tilamoqda. Keyingi baytda ojiz, bechora bandalar umidvor ekani aytilar ekan, dalil sifatida Qur'oni karim oyatiga tayanilmoqda: "Hasbiy ne'mal vakil innaka qoziyul hojot" ("Oli Imron surasi, 173-oyat). Qur'oni karim o'zbekcha izohli tarjimasida: (Bizga Yolg'iz Ollohning O'zi kifoya. U Zot eng yaxshi ishonchli Vakildir)" [Alouddin Mansur 2004,103b], deya tarjima qilingan. Baytda Allohga tavakkul mazmuni ifodalangan.

Ilm insonni ulug' va sharafli qilishini Muhsiniy oyatning bir juz'idan iqtibos olish usulida ta'sirli talqin etgan. Mana, o'sha bayt:

*Xalifa o'ldi biza bulbashar Safiy Odam,
Muallimi malak aylab va 'allamal asmo [Muhsiniy 11^a].*

"Va 'allamal asmo" (Baqara surasi 31-oyat) oyati karimasi Qur'oni karim ma'nolarining o'zbekcha izohli tarjimasida: "Va U Zot Odamga barcha narsalarning ismlarini o'rgatdi" [Alouddin Mansur 2004, 40b], deya tarjima qilingan. Tarjimaga asosan baytdan quyidagi mazmun anglashiladi: insoniyatning otasi bo'lgan Odam Safiy Yaratganning xalifasi maqomidadir. Alloh taolo unga barcha narsalarning ismlarini o'rgatish orqali farishtalarga muallim qildi. Ushbu bayt insonning Tangri taolo huzuridagi maqomi haqidagi qur'oniy haqiqat go'zal badiiy talqin etilgani bilan alohida ahamiyatga ega. Shoirning insonlarni Odam atodan meros ilmni o'rganishga targ'ib qilishi sababi shunda.

*Yo'lig'a Muhsiniy tavfiqin hamroh aylag'il, yo Rab,
Bahaqqi sayyidi kavnayn vasfi **Yosinu Toho** [Muhsiniy 10^a].*

Ushbu baytdagi "Yosin" shu nomli suraning dastlabki oyatlari

“Yo, Sin. (Ey Muhammad alayhissalom, ushbu) hikmatli Qur’onga qasamki, hech shak-shuhbasiz, Siz To’g’ri Yo’l (ya’ni, Haq Din) ustidagi payg’ambarlardandirsiz” [Alouddin Mansur 2004, 489b], ma’nosini o’zida mujassam etgan. “Toho” esa shu nomli oyatning 1,2,3 – oyatlari mazmuniga ishora qilgan. Oyati karima Qur’oni karim o’zbekcha izohli tarjimasida: “To, Ha. (Ey, Muhammad alayhissalom), Biz sizga bu Qur’onni qiynalib jafo chekishingiz uchun emas, balki (Olohdan) qo’rqadigan kishilarga pand-nasihati bo’lsin uchun nozil qildik [Alouddin Mansur 2004,348b].

“Sayyidi kavnayn” – ikki olamning sayyidi ma’nosini anglatadi. Shundan kelib chiqilsa, bayt mazmuni quyidagicha ekani ayon bo’ladi: “Vasfida “Yosin”, “Toho” suralari nozil bo’lgan, ikki olam sayyidi sanalgan Muhammad alayhissalom haqqi Muhsiniyni uning yo’liga taviq ila hamroh qilgin”.

Yana bir na’t-g’azalda Rasulullohning “Ana afsah”, ya’ni “Men Arab-u Ajamda chiroyli so’zlovchiman”, degan ma’nodagi so’zlari mohiyatan Qur’oni karim oyati ramzida ifodalangani, shu bois har bir inson ul zotning so’zlarini qulog’iga halqadek taqib olsa, ya’ni ularga so’zsiz amal qilsa, durru gavhardan ham laziz ne’matga – ikki olam saodatiga erishishi mumkinligi haqida so’z yuritilgan. Mana, o’sha bayt:

Durri guftoring “Ana afsah”ki, oyat ramzida,

Halqa bargo’sh aylagach chun durri gavhardin laziz [Muhsiniy 2008, 25^b].

Muhsiniy tarje’bandlaridan birida hadisi sharifdan iqtibos olish orqali zamon ahlini ilm olishga undab, shunday satrlarni bitadi:

Sa’y aylang bizni o’qutmak uchun,

O’tmasun behuda bu shomu sabo,

“Utlub ul ilma valav bis Sin” dedi,

Ul Muhammad peshvoyi anbiyo [Muhsiniy 2008, 129^b].

“Utlub ul ilma valav bis Sin” misrasi “Ilm Xitoyda bo’lsa ham borib o’rganinglar (talab qilinglar)” degan mazmunidagi hadisdir. Lirik qahramon yoshlar tilidan so’zlab, bizni o’qitishga shunday harakat qilingki, shomu tonglar behuda o’tmasin, tarzidagi fikrni ifodalaydi.

2. *Muhsiniy she’rlarida oyat yoki hadisning mazmuni badiiy talqin etiladi.* Diniy-ma’rifiy mohiyatni ifodalashning bu turiga doir misollar shoir ijodida ko’plab uchraydi. Quyidagi baytda, jumladan, inson hayotining mazmuni haqidagi teran fikrning mana bunday ifodasi kuzatiladi:

*Yaxshilar qavli bo'lg'ay: Dahr kun-kundin batar,
Demagilkim bu zamon behbudlig'-la tuz o'lur*

[*Muhsiniy 2008, 31^b*].

“Dahr kun-kundin batar” birikmasi hadis matnining tarjimasidir. Bu hol zinhor norozilik izhori emas. Balki olam va odamning ravishi tobora o'zgarib, evrilib borishi, inson bu qonuniyatdan xulosa chiqarib yashashi zarurligi haqidagi xulosalarini ifodalaydi.

3. *She'rlarda arabcha maqol va iboralarning qo'llanilishi.* Mumtoz shoirlarimiz ijodida arabcha, forscha so'z va iboralar qo'llanilishi odatiy hol hisoblangan. Biroq Muhsiniy she'riyatida arabcha so'z va maqollar o'rinni, ma'nosi chuqur anglangan holda qo'llanadi. Quyidagi bayt ham ushbu fikrni tasdiqlaydi:

*Yo man taqaddas zotuhi an xittat il-afkorino,
Aydi Muhammad hamdinga ajz ila "louhsi sano"*

[*Muhsiniy 2008, 11^b*].

Hamd g'azal matla'sida quyidagi ma'no ifodalanadi: “Yo man taqaddas zotihu an xittat il-afkorino” misrasi arabcha bo'lib, “Ey, zotining muqaddasligi fikrlar chegarasiga sig'maydigan (Olloh), Muhammad alayhissalom o'z jizlik bilan senga ko'p hamdu sano aytdi”.

“Sho'x” radifli g'azalda ham arabcha jumla bayt ma'nosini kuchaytirish va mazmunga ziynat berish maqsadida keltiriladi. Oshiq hajr azobidagi holatini arab tilidagi “*Ta'olo, yo Habibi, ilo bayt il-ahzan*”, ya'ni “Mening g'amxonamga xush kelgin, ey do'stim” tarzidagi satrni keltiradi. Ikkinchi satrda esa U zotning har qadamiga jonini fido etishini ta'kidlaydi:

*“Ta'olo, yo Habibi, ilo bayt il-ahzon”,
Qudumingg'a o'lsun bu jonim fido, sho'x* [*Muhsiniy 2008, 23^b*].

Yana bir g'azalida sirni shoir birovga aytsa, u tezda fosh bo'lib ketishini arabcha hikmatning bir juzi “jovazal isnayn” (ikki kishi bilgan sir sirligicha qolmaydi) orqali ifodalaydi:

Muhsiniy Muhammad alayhissalom vafotlariga bag'ishlangan 23 banddan iborat bir marsiya-muxammas yozgan. Muxammasda payg'ambarlar tarixiga ishora va islom dini tarixida muhim o'rin tutgan tarixiy shaxslar faoliyatiga munosabat aks etgan. Odam Ato va onamiz Havvo, shuningdek, Nuh, Ibrohim, Ismoil, Muso, Iso kabi payg'ambarlar nomi zikr etilishi orqali ularga yuborilgan sinovlar hikmati ifodalanadi. Me'roj kechasi vasfi va chahoryorlar sifati talqin etiladi. Umuman, ushbu muxammas orqali shoir Muhammad alayhissalomga bo'lgan cheksiz muhabbatini izhor etadi.

Muhsiniy o'n to'qqiz yoshida islomning beshinchi farzi – haj ibodatini ado etadi. Shu sababli bo'lsa kerak, chin iymon-e'tiqodni ulug'lovchi, Alloh vasliga yetishish uchun islom sha'riyatiga amal qilish zaruratini ifodalovchi she'rlar bitadi. Albatta, yuqoridagi kabi baytlarni bitish uchun Allohga iymon keltirish va qalban uning buyukligini his qilish uchun komil musulmon fazilatlariga ega bo'lish kerak edi. Muhsiniy ana shunday taqvodor, iymoni mustahkam shaxs bo'lgan.

Shoir devonida 28 ruboiy bo'lib, ular diniy-tasavvufiy mavzu tizimli ifodalangani bilan ahamiyatlidir. Ruboiylar ketma-ketligiga e'tibor berilsa, biri ikkinchisini ma'no va mazmun jihatdan to'ldirishi kuzatiladi. Ruboiylar hamd, na't va chahoryorlar madhi hamda irfoniy mazmunda ekani yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi. Quyidagi ruboiy tasavvufiy mazmun yoritilgani jihatidan ahamiyatlidir:

*Vahdat mayidan sog'arimi qilsam no'sh,
To ursa ko'ngul ichra oning nishoti jo'sh –
Kim, tark qilam so'ngra jahon ta'liqin,
Majnun kabi mahvi hayrat o'lsam madhush*

[*Muhsiniy 2008, 151^b*].

Shoir hamd va na't g'azallarida hayot mohiyati, inson zimmasidagi mas'uliyat haqidagi teran mazmuni o'ziga xos badiiy talqin etadi. Insonlarga qarata noumid bo'lmaslik kerakligi, chunki mo'minlar umid bilan yashashi bilan bog'liq haqiqatni uqtirmoq istaydi. Alloh yer yuziga ko'p payg'ambarlar yuborgan, ularning ba'zilarini podshoh qilib taxtga o'tqazsa, ayrimlarini og'ir mehnatga muhtalo qilib sinagani baytlarda ifodalanadi. Ayrim she'rlarda musulmon Sharqida g'am-alam timsoli bo'lgan Ya'qub alayhissalom, go'zallik ramzi sifatida talqin qilinadigan Yusuf alayhissalom va boshqa payg'ambarlar hayotiga doir ibratli voqealar talmeh san'ati vositasida badiiy talqin etilgan. Mana bu baytlar mazmuni ham ushbu fikrni tasdiqlaydi:

*Ya'qub (n)i o'g'li furqatida zor yig'latub,
Yusufni hibs qildi necha yil zeri cho(h).
Tavahhumida yig'ladi Yahyo ba ashki xun,
Ikki bo'lundi arra birla shoh Zikriyo [Muhsiniy 2008, 12^b].*

G'azal mazmunidan anglashiladiki, umid har bir inson, mo'min kishi uchun eng muqaddas tushuncha bo'lishi kerak, musulmon kishi umidsiz kamolotga erisha olmasligi ta'kidlanmoqda.

Na't g'azallarda bir qancha payg'ambarlarni zikr etib, Mu-

hammad sallallohu alayhi vasallam sifatlari va ul zotni Alloh taolo olamlarga rahmat qilib yaratgani hamda barcha nabiyalar sarvari ekanligi, gunohkor ummatlarini shifoat qiluvchi ekanligi haqidagi mohiyat betakror badiiy talqin qilingan:

*Afloki olamdin nari, nuri Muhammad ilgari,
Barcha nabiyalar sarvari, ul shofi'i ro'zi jazo*

[*Muhsiniy 2008, 12^b*].

Muhsiniy diniy mavzudagi she'rlaridagi lirik qahramon Allohga chin dildan iymon keltirgan, hamisha unga solih banda bo'lishni xohlaydi. Shu sababli bo'lsa kerak, ko'pgina she'rlarida islomiy tushuncha va iboralar faol qo'llaniladi. Shoirning Tangri taologa e'tiqodi shunchalik kuchliki, Undan to'g'ri yo'l ko'rsatishini, Ul Zotdan o'zga yori yo'q ekanini aytib, tavfiq so'raydi:

*Tavfiqi roh ayla karam Muhsiniyg'a sen
Yo'qtur o'zingdin o'zga anga yoru muttako*

[*Muhsiniy 2008, 12^b*].

Alloh taolo ishqni Muhsiniyni asir etib, ko'nglida mudom unga ishonch ortganini o'z ash'orlarida yorqin bo'yoqlar orqali ifodalaydi. Shu bois shoir ijodida ilohiy ishq mavzusi pafos bilan tarannuim etiladi. Ijodkor she'rlaridagidagi lirik qahramon o'z ko'nglini barcha yomon illatlardan toza tutishini Allohdan o'tinib so'raydi. Chunki barcha narsaning avvali va oxiri, har bir ishga qodir bo'lgan Allohgina unga yordam bera oladi.

Ko'nglumi oynasidin ketkuzub zangu g'ubor,

Jumla asbobi jahondin mosivo qilg'il, Karim [*Muhsiniy 2008, 66^b*], deya yozganida ham inson ko'ngli pok bo'lsagina e'tiqodi mustahkam bo'lishi mumkinligiga doir shoir konsepsiyasi o'z aksini topgan. Oshiq tunu kun, hattoki umr bo'yi Alloh taolo zikri bilan o'tishga tayyor. Doimo tilidan Rabbisining nomi tushmasin, deya o'tinadi. Najot yo'lini topolmagani uchun sham yorug'i bilan yo'lini oydin qilishini o'tinib so'raydi. Muhsiniy ilohiy ishqqa bo'lgan intilishini faqat o'zi uchun emas, zamonasining hamma insonlarga xos hayot tarzi, deb biladi.

Shoir o'zining iymon-e'tiqodini ojizona baholaydi va Allohdan Mahshar kuni xatolarini, isyonlarini kechirishini va hasanot yozishini iltijo qiladi. Boshqa bir baytda quyidagicha fikrni bildiradi:

Muhsiniy Hashr aro tursa gunahdin mahzun,

Rahmat aylab ani o'ng qo'lig'a ber xatti barot [*Muhsiniy 2008, 18^b*], - deya Yaratganga iltijo qiladi. Shoir lirik qahramoni diyonatli,

taqvodor, komillikka intiluvchi, hamisha Allohni qalbida tutadigan inson sifatida gavdalanadi. Ijodkor g'azalarida ilohiy ishqni kuylar ekan, arabcha so'z va birikmalardan o'rinli foydalangani kuzatiladi:

*O'zdadur o'zga makone, yo'qg'a qilsang justujo,
"Ayna mo kuntum" – dedi, nuri Xudo istar esang*

[*Muhsiniy 2008, 62^b*].

Bu baytda "Qaerda bo'lsangiz ham Alloh taolo siz bilan birgadir", mazmunidagi hadisga iqtibos qilingan. Bu kabi misollar Muhsiniyning Qur'oni karim va hadisi shariflarni mukammal bilgani, zarur o'rinlarda she'rlarida bu ikki mo'tabar manbadagi ko'rsatmalardan foydalangani ayon bo'ladi.

Umuman, Muhsiniy lirikasida ilohiy ishq alohida zavq-shavq bilan kuylanganligi she'riyatida yaqqol ifodalangan. Shu sababli shoirni XIX asr oxiri – XX asr boshlarida diniy va tasavvufiy ruhda ijod qilgan shoirlar sirasiga mansub, deyish uchun yetarli asoslar bor.

Ma'rifatparvarlik mavzusidagi she'rlar. Millatning ilmu ma'rifatni egallashi orzusi shoir she'riyatida zo'r pafos bilan kuylangan. Muhsiniy lirikasi mavzulari mohiyatiga ko'ra Qo'qon adabiy muhitining Muqimiy, Furqat, Muhyi, Muhayyir, Zoriy, Zavqiy kabi namondalari asarlariga hamohangdir. Adib yashagan davr ijodkorlari asarlarida ma'rifatparvarlik, millatparvarlik g'oyalari aks etgan. Ilim-ma'rifatga doir asarlar Muhsiniy lirikasida salmoqli o'rin tutadi. Shoir bir g'azalida, jumladan, shunday yozadi:

*Ilm odob o'la insona sharaf,
Yo'qsa asli ani bir tiyra xazaf* [*Muhsiniy 2008, 53^b*].

Inson – koinot gultoji, ilm-ma'rifat uni ulug'laydi. Inson ilmi va odobi bilan sharaf topadi, aks holda odam bir qora tuproqdan boshqa narsa emas. Shoir bu bayt orqali vatandoshlarini insonlik sharafiga munosib bo'lishga chaqiradi. G'azalning keyingi bir baytida ushbu mazmun yanada kuchaytiriladi:

*Ma'rifat topsa, o'shal insondir,
Varna hayvon ishidir obu alaf* [*Muhsiniy 2008, 53^b*].

Ma'rifat – insonning o'zini va o'zligini, Yaratganni anglashidir. Shoir nazdida, ma'rifat topgan kishigina inson demoqqa munosibdir. Aks holda u umri faqat o't yeb, suv ichib o'tadigan hayvonga mengzaydi.

Ma'lumki, XX asar avvalida ijtimoiy hayotdagi keskin o'zgarishlar, Turkistonning Rusiya mustamlakasiga aylanishi natijasida

xalqimiz hayotiga yangi tushunchalar, an'analar kirib keldi. Shoirlar ushbu yangiliklarni boshqalardan ko'ra tezroq idrok etib, munosabat bildirdi. "Bekasman" radifli g'azalida Muhsiniy ilm ahli orasida bo'layotgan yangi xat haqida shunday bayt bitadi:

*O'lubtur ushbu kunlar fazlu donish xati o'rischa,
Oningdek ilmu fanni qilmag'on takror bekasman*

[Muhsiniy 2008, 79^b].

Baytda bilimli, dono kishilar orasida rus tilida yozish, gapirish ommalashayotgani e'tirof etiladi. Bu ilmu fanni o'qimagan va o'rganmagan bois shoir o'zini bekasman, deya malomat qiladi. Til va boshqa xalqlar yozuvini o'rganish zarurligiga urg'u beradi.

Shoir tarje'bandlarida ma'rifat mavzusini keng va teranroq ifodalab, quyidagi satrlarni yozadi:

*Ham maorif sarfi ermastur garon,
Uhdasidin kelg'usi har notavon.
Bersa maktabga kishi farzandini,
Topgusi Tongla savobi begaron...
Vorism dedi nabiy olim elin,
Qildi onlar vorisi payg'ambaron*

[Muhsiniy 2008, 130^b].

Shoir maorif, ilm o'rganishga mablag' sarflashni har qanday notavon ham uddalashini ta'kidlaydi. Kimki, maktabga farzandini ilm olish uchun bersa, Mahshar tongida hadsiz savobga sazavor bo'ladi. Nabiy alayhissalom hadisda olimlar mening vorislarimdir, degani uchun bolasini maktabga bergan kishi uni payg'ambarga merosxo'r qilibdi. She'rda ana shu mazmun xalqona uslubda ta'sirli ifodalangan.

Ko'rinib turibdiki, Muhsiniy lirikasida ilm-ma'rifat mavzusi kuchli ehtiros bilan kuylanib, bu mavzu shoir yashagan davrda dolzarb bo'lgani kuzatiladi. Albatta, Muhsiniy o'z davrining ma'rifatli kishisi bo'lib, jamiyatda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlarni o'tkir nigoh bilan kuzatib, muhim xulosalar chiqaradi. Shoir muxammaslarida, tarje'bandlarida maorif va ilm insonga sharaf bag'ishlashi ta'kidlanib, bizning millat ilm-ma'rifatdan orqada qolgani afsus-nadomatlar bilan talqin etiladi. Tavallo g'azaliga bog'lagan muxammasida shoir mana bunday yozadi:

*O'zga millat topadur ilm maorif-la rivoj,
Bizni aylar o'zini hiylalarig'a muhtoj*

[Muhsiniy 2008, 108^b].

Muhsiniy lirikasida ilmu maorif haddi alosiga ko'tarilib tarannum etilgan asarlari musamman va tarje'bandlar hisoblanadi. Bizningcha, bu she'r namunalari shoir ijodining nisbatan so'nggi yillarida yozilgan bo'lsa kerak. Chunki asarlarida ilgari surilgan g'oyalar va tushunchalar shunday xulosaga asos beradi. Ayniqsa, bir musammani o'ziga xos shakl va mazmunga egaligi bilan xarakterlidir. Shoir quyidagicha yozadi:

*Ilm bir gavhar erur, atfol ko'nglidur sadaf,
Topg'usi farzandi odam ilm ila izzu sharaf*

[Muhsiniy 2008, 126^b].

Musammaning mazkur ikki misrasida tashbeh va takrir san'atlari mahorat bilan qo'llangan. She'rda ilm – gavharga, bola ko'ngli sadafga qiyoslanib, tashbehi mo'kad hosil qilingan. “Tashbehi mo'kad (ta'kid yo'li bilan o'xshatish). Bunda o'xshatish vositalari (yordamchi so'zlar, -dek qo'shimchasi) ishlatilmaydi, balki o'xshatilgan va o'xshalgan narsa hukmu mahkum (ega+ot kesim) tarzida keladi” [Quronov 2010, 88b]. Yuqoridagi misralarda “ilm” – *mushabbih* ega bo'lsa, “gavhar erur” – *mushabbihun bih* kesim vazifasidir. Ikkinchi tashbehda “ko'ngil” – *mushabbih* ega bo'lsa, “sadaf” – *mushabbihun bih* kesim vazifasida kelib, tashbehi mo'kad hosil qilingan.

“Takrir” atamasi lug'atda takror ma'nosini anglatadi. Shoir baytda biror so'zni ikki yoki uch marta qo'llasa, takrir san'ati sodir bo'ladi” [Rahmonov 2020, 79]. Ilm so'zi birinchi misra boshida va ikkinchi misra o'rtasida takror qo'llanishi takrir san'atini hosil qilgan. Mazkur misralarda ilm gavharga, ko'ngil sadafga tashbeh qilinishi shoirning o'ziga xos badiiy topilmasidir. Tashbeh va takrir san'atlari ifodalanayotgan fikrning obrazli va ta'sirli bo'lishini ta'minlagan. Shoir bandning keyingi misralarida johilu nodon inson el-ulus ichida beqadr, hurmatsizdir, degan fikrni ta'kidlaydi. Shu bilan birga, odam umrini behuda narsalarga sarflamasligi zarurligi uqtiriladi. So'nggi baytda kimki javonmard, millatparvar inson bo'lsa, madrasayu maktab bunyod qilish orqali dinning yuksalishiga yordam berishi kerakligini ta'sirli ifodalaydi:

*Johil-u nodon eli beqadr monandi xadaf,
Buyladur hukmi ilohiy, sunnatu qavli salaf,
Tashlangiz rohi safohat, ham jaholat bir taraf,
Bo'lmasun behuda bu umri garonmoya talaf –
Kim javonmard o'lsa, din yo'lig'a imdod aylasun,
Madrasa, avqofu maktabxona bunyod aylasun*

[Muhsiniy 2008, 126^b].

Ma'rifatparvarlik ruhida yozilgan tarje'bandiga shoir "Padari jonibidin farzandlarga", deya sarlavha qo'yadi. Muhsiniy farzandlari timsolida o'z davridagi barcha millat yoshlarini ko'zda tutadi. Bugungi yosh avlod uchun ham shoir so'zlari muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ilm olish islom dinida farzi ayn – barcha birday bajarishi zarur bo'lgan ish ekani hadislarda ta'kidlangan. Erkak-ayol, yosh-qari ilm o'rganishi farzligi uqtirilgan. Johil va nodonlik kishini zalolatga olib boradi. Shoir farzandlariga bunday kimsalardan yiroq bo'lishga chaqiradi:

*Ey dilimni quvvati, nur ul-basar,
Go'sh aylang nuktai durru guhar,
Farzi ayn o'lmish maorif, kasbi ilm,
Keldi buyla ramzi oyotu xabar.
Er-u xotin, xoh piru xoh javon,
Jahl-u nodonlig' erur jong'a zarar.
Ey dilimni ravshani, nur ul-basar,
Jahl-u nodonlig'din aylangiz hazar*

[*Muhsiniy 2008, 130^b*].

Muhsiniy o'z davri shoirlari kabi mumtoz she'riyatimiz an'analariga sodiq qolish barobarida o'zi ham shakl va mazmun jihatdan barkamol she'rlar bitdi. Millatni ilmu ma'rifatga chaqirdi. Uning taraqqiy etishi yo'lga butun ilmuni, salohiyatini safarbar etdi.

Ijtimoiy mavzudagi she'rlar. Muhsiniy devonida ijtimoiy mavzu yoritilgan asarlar ham bir qanchadir. Zero, shoir yashagan davr ijodkorlari asarlari ijtimoiy mazmun kasb etishi bilan harakterlidir. Adabiyot ushbu paytga kelib, millat hayotining og'ir va ayanchli ahvolini yoritishdek muhim bir vazifani bajarishga kirishgan edi. Turkiston o'lkasining ma'naviy-ma'rifiy va siyosiy-ijtimoiy jihatdan inqirozga yuz tutganini ko'rib, bundan hadsiz iltirob chekkan ma'rifatparvarlar qatori Muhsiniy ham she'rlarida jaholat, adolatsizlik va jabr-zulmni qoraladi.

Muhsiniy nechog'lik murakkab va ziddiyatli davrda yashaganini she'rlarida mana bu tarzda ta'sirli ifodaladi:

*Jahon lazzatig'a ko'p chekmag'il ranj,
Achchig'durkim oxiri ta'mi noranj.
El ichra o'lg'usi qadri ziyoda,
Sadoqat birla o'lsa kim suxansanj.
Nifoqu kufr birlan to'ldi olam,
Buxoro, xoh Farg'ona, ham Urganj*

[*Muhsiniy 2008, 21-22^b*].

Shoir fikricha, bu olam lazzatidan bahramand bo'la olmadim deb ranju alam chekish to'g'ri emas. Chunki noranj – apelsinning oxirini yesangiz, ta'mi achchiq. Kimki sadoqatli, so'zamol bo'lsa, el ichida hurmat va izzat topadi. Ammo bu olam nifoq va kufrga to'ldi. Shu sababli shoir nobakorlar, ilmsizlar ulug'lanayotganidan achinadi. Butun Turkiston – Buxoro, Farg'ona va Urganj kabi shaharlar ham shu ahvolga tushib qolganidan afsuslanadi. Shoir millat ahlini ilmi, dinu diyonatli, ozod ko'rishni xohlaydi, uning taraqqiysini orzu qiladi. Albatta, bu orzularga erishish uchun ilm-ma'rifatni asosiy vosita deb biladi, millatni ma'rifatli bo'lishga chaqiradi. Shoir xuddi jadidlar kabi maktab ochishga xayrixoh bo'lib, islom dini ahkomlarini ham unutmastikni o'z she'rlarida ifodalaydi. Adib she'rlari mazmun-mohiyatiga ko'ra jadidlar g'oyalariga hamohangdir. Zamon manzarasini shoir mana bu g'azalida yaqqol tasvirlab beradi:

*Ketti Farg'onadin insofu diyonat afsus,
Bu sababdin boshimiz uzra kelib qavmi o'rus.
Qildi Xo'qand shahi o'rdau Arki oliysin
O'zig'a butxona, osub anga jalojil noqus.
Qolmadi yoshu qari o'rtasida sharmu hayo,
Ketti odob, yana or ila nangu nomus*

[*Muhsiniy 2008, 39-40^b*].

Muhsiniy tom ma'noda taqvodor inson bo'lganligi uchun zamondagi o'zgarishlarni, ayniqsa, islom dini qoidalariga mos kelmaydigan yangi odat va amallarni o'z vaqtida tez tushunib yetgan. Shu bilan birga, Chor hukumati siyosatining asl maqsadini anglagan ijodkorlardan edi. Shu bois shoir jamiyatdagi illatlarni lirikasida achchiq til bilan bayon etgan:

*Vahki, Farg'ona eli motamsaro bo'ldi, darig',
Sifla, dunlar – shoh, shahlarkim gado bo'ldi, darig'* [*Muhsiniy 2008, 50^b*] - deya afsus-nadomat chekkanida uning Vatan taqdiri uchun nechog'lik kuyungani, ko'ngil iztiroblarini qanchalik ta'sirli ifodalagani yaqqol namoyon bo'ladi. Keyingi baytlarda shoir xalq ichida mustabid Rusiya hukumati qonunlari, nizomlari xuddi joriy bo'lganidan, Muhammad payg'ambarimiz shariatining ahkomlari qadrsizlanganidan nadomat chekadi. Hukumat qonunlari zolim poraxo'rlarga ayni muddao bo'ldi, deya ayrim nafsu havo quli bo'lgan amaldorlarga nafratini izhor etadi.

Axloqiy-falsafiy she'rlar. Shoir bir g'azalida davr va jamiyat ahvolidan afsus-nadomat bilan quyidagilarni bitgan edi:

Oldi g'aflat ko'nglumiz, yo'qtur vale bedormiz,

Ketsa ham qo'ldan diyonat, qani nangi orumiz?

[*Muhsiniy 2008, 37^b*].

Shoir nazdida millat ahli zohiran bedor tuyulsa-da, aslida g'aflat uyqusida. Millatning oru-nomusi, diyonati ketganidan iztirobini mana bu tarzda ifodalagan:

*Daraxti mevalig'dek odamiy bog'i jahon ichra,
Anga yetmas havodiskim, o'lursa xayru ehsonliq*

[*Muhsiniy 2008, 49^b*].

Daraxt mevasi bilan qadrli bo'lgani kabi, bu jahon bog'ining ziynati odamiylikdadir. Xayru ehson ahliga hech qanday hodisa zarar yetkaza olmaydi. Boshqa bir baytida shoir dilozorlik yeng yomon odatlardan ekanini uqtiradi. Alloh Qof tog'idek gunohni afv etishi mumkin, biroq kibr va dilozorlikni kechirmaaydi:

*Afv etar Tangri, gunohing bo'lsa misli Qof,
Lik kechmaydur gunohing kibru dilozorlig'*

[*Muhsiniy 2008, 49^b*].

Shoir nazdida, el aybig'a emas, balki o'z nuqsonlariga boqish chinakam odamiylikdir. Oqil inson qalbidagi sirlarini birovlarga aytib, noqulay ahvolga qolmasligi zarurligi bilan bog'liq shoir qarashlari quyidagicha talqin etilgan:

*O'zni nuqsoningga boq, solma nazar el aybig'a,
Ochmag'il hargiz alarg'a diydai siyna g'alat* [*Muhsiniy 42^b*].

Bu dunyo o'tkinchi bo'lib, barqaror emasligi, hech kimsaga vafo qilmasligi, ammo ilm-ma'rifat abadiy hayotga daxldorlik asosi ekani mana bunday ifodalangan:

*Bu jahon foniy erur ham besabot,
Ilmu irfondir hayoti jovidon* [*Muhsiniy 2008, 130b*].

Yaratganning taqdir qalami xato yozmasligi teran ma'no va go'zal badiiyat mutanosibligida quyidagicha talqin etilgan:

*Barcha taqdiri azal siri senda ojiz, faqir,
Homai tahriri qudrat yozmag'ay aslo g'alat* [*Muhsiniy 42^b*].

Xulosa qilib aytganda yuqoridagi tahlillardan anglashiladi-ki, Muhsiniy devonda jamlangan asarlari mavzu jihatdan ham keng bo'lib, o'z davrining dolzarb muammolarini yoritganligi bilan xarakterlidir. Demak, shoir lirikasida ilohiy ishq, an'anaviy sof muhabbat bilan tarannum etilgan she'r namunalari asosiy o'rin tutadi. Shu bilan birga, ilm-ma'rifat ulug'langan, o'sha davr ijtimoiy voqeligi haqqoniy

ifodalangan asarlar ham salmoqli o'ringa egadir.

Muhsiniy she'riyati janr jihatdan rang-barang bo'lib, mumtoz she'riyatimiz an'alarini yuksak mahorat bilan davom ettirdi. Adib davr ijodkorlariga hamnafas tarzda diniy-ma'rifiy, ishq-muhabbat va ijtimoiy mavzularda betakror she'rlar yaratdi. Diniy-ma'rifiy mavzudagi she'rlar shoir lirikasining asosini tashkil etadi. Umuman, Muhsiniy asarlarida ilohiy ishq mavzusi tarannum etilgan she'rlar ustunlik qiladi.

Adabiyotlar

Qur'oni karim. 2004. Ўзбекча изоҳли таржима. Алоуддин Мансур. Тошкент.

Муҳсиний. 2008. *Девон*. Барҳаёт гулшан. Фарғона.

Муҳсиний. ЎЗР ФА ШИ. Инв №7392.

Муҳсиний. *Девон. Гулшани жовид қўлёзма*. Нуриддинов М., шахсий кутубхонаси.

Қуронов, Д., Мамажонов, З., Шералиева, М. 2010. *Адабиётшунослик луғати*. Тошкент: Академнашр.

Исҳоқов Ё., 2006. *Сўз санъати сўзлиги*. Тошкент: Зарқалам.

Раҳмонов В., 2020. *Шеър санъатлари*. Тошкент: Shaq.

Фузулий. 2014. *Шеърлар тўплами*. Қалб гавҳари. Тошкент: Hilol-nashr.

The scope of the subject matter of Muhsin's poetry

Furkat To'xtamuratov¹

Abstract

Poets of the Kokand literary environment wrote in various genres and themes in the late 19th and early 20th centuries. The artists of this period enriched the treasury of our classical literature with their unique lyrical works. Husaynquli Sulaymonquli oğlu Muhsini (1860-1917) is one of such talented poets who lived and worked in Kokand.

In this article, Husseinquli Muhsini's poems, which are included in the edition of the collection of lyrical heritage and manuscripts, are classified according to the scope of the topic. The poet's poems were found and analyzed on romantic, religious-mystical, enlightenment, moral-philosophical.

¹*Tuxtamuratov Furkat Safarmuradovich* - teacher, Tashkent state university of Uzbek language and literature named after Alisher Navoi.

E-pochta: toxtamuratov81@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-9855-2353

For citation: Tuxtamuratov, F. S. 2022. "The scope of the subject matter of Muhsin's poetry". *Uzbekistan: Language and Culture* 1 (2): 40-59.

sophical and social themes. There are also scientific and theoretical views on the genre features of the poet's poetry. It explores how the traditions of classical poetry continued in the poet's work and how his works reflected the changes in the social life of the period.

Key words: *devan, manuscript, ghazal, theme, love, religious-mystical theme, enlightenment, social essence, moral-philosophical issues, artistic interpretation.*

References

- Qur'oni karim*. 2004. O'zbekcha izohli tarjima. Alouddin Mansur. Toshkent.
- Muhsiniy. 2008. *Devon. Barhayot gulshan*. Farg'ona.
- Muhsiniy. O'zRFASHI. Inv №7392.
- Muhsiniy. Devon. *Gulshani jovid qo'lyozma*. Nuriddinov M., shaxsiy kutubxonasi.
- Quronov, D., Mamajonov, Z., Sheralieva, M. 2010. *Adabiyotshunoslik lug'ati*. Toshkent: Akademnashr.
- Is'hoqov, Y., 2006. *So'z san'ati so'zligi*. Toshkent: Zarqalam.
- Rahmonov, V., 2020. *She'r san'atlari*. Toshkent: Sharq.
- Fuzuliy. 2014. *She'rlar to'plami*. Qalb gavhari. Toshkent: Nilol-nashr.

Majzub Namangoniyning badiiy san'atlardan foydalanish mahorati

Oybek Boyatov¹

Abstrakt

Buyuk so'z san'atkorlari badiiy asarlarining mazmunan rang-barang bo'lishi uchun turli poetik san'atlardan unumli va mohirona foydalanishlar. Bu esa asarning badiiy jihatdan tiniq, uslubiy ravon va shaklan jozibador bo'lishida olib kelgan.

Ushbu maqola Namangan adabiy muhiti vakili, Naqshbandiya tariqati namoyondalaridan biri Abdulaziz Majzub Namangoniyni ijodida badiiy san'atlarning o'рни haqida yozilgan. Ijodkor asarlarida badiiy san'atlarning ikki turi: lafziy va ma'naviy san'atlardan foydalanishligi, ularga chiroyli dalillar berilganligi haqida.

Ma'naviy san'atlar baytdagi ayrim so'z yoki butun baytning ma'no-si bilan aloqador badiiy vositalar bo'lib, ularning miqdori, Atoullloh Husayniyning "Badoyi'u-s-sanoyi" asarida keltirilishicha, ellikdan ortiq. Mubolag'a, tashbih, tamsil, husni ta'lil, tajohuli orifona, tashxis, talmih, laff va nashr, ruju', istiora, kinoya, irsoli masal, tazod, tanosub va boshqalar ma'naviy san'atlarning eng mashhurlaridir.

Lafziy san'atlar bayt yoki undagi ayrim so'zlarning shakli - talafuz va yozilishiga asoslangan bo'lib, «Badoyi'u-s-sanoyi»da tarsi', tajnis, ishtiyoq, raddul ajz, radd ul-matla', tardu aks, takrir, mukarrar, kitobat, talmi', tarix kabi ellikdan ortiq lafziy san'at namunalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: *Majzub, talmeh, tazod, Alloh, tashbih, oriy manam, tadrij.*

Kirish

O'zbek adabiyotshunosligida mumtoz she'riy san'atlarni o'rganish, asosan, 1960-yillardan keyingi davrga to'g'ri keladi. O'zbek adabiyoti vakillari ijodiga bag'ishlangan tadqiqot va ilmiy maqolalarda she'riy san'atlar haqida ham ma'lumotlar keltirilgan. Ularning ko'pchiligi Alisher Navoiy asarlari bilan bog'liq holda bayon qilingan.

¹Boyatov Oybek Maxmudjon o'g'li - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti magistri.

E-pochta: oybekboyatov151@gmail.com

Iqtibos uchun: Boyatov, O. 2022. "Majzub Namangoniyning badiiy san'atlardan foydalanish mahorati". *O'zbekiston: til va madaniyat* 1(2): 60-75.

Jumladan, Yo.Is'hoqovning «O'zbek tili va adabiyoti» jurnali sahifalarida «Mumtoz adabiyot poetikasidan ma'lumotlar» rukni ostida e'lon qilingan 10 dan ortiq she'riy san'atlar haqidagi maqolalari fikrimizning dalilidir [Исоқов 1970, 90]. Chuqur ilmiy saviyada yozilgan bu maqolalar o'zbek adabiyotida va adabiyotshunosligida bade'shunoslikni o'rganish va rivojlantirishda muhim hissa bo'lib qo'shildi.

Badiiy san'atlar haqida gap ketar ekan, albatta, ko'z oldimizga ajdodlarimiz yaratgan mumtoz asarlar keladi. So'nggi yillarda mumtoz badiiy asarlar va ularda qo'llanilgan badiiy san'atlarning ayrimlarini umumfilologik tarzda o'rganishga oid bir qator ilmiy ishlar yaratildi. Keyinchalik esa muhim badiiy san'atlarga bag'ishlangan qo'llanma xarakterdagi asarlar nashr etildi [Husayniy 1981].

Badiiy san'atlarning ba'zilari haqida hozirgi zamon filologik lug'atlarida ham keng ma'lumotlar qayd etilgan.

Ma'lumki, o'tmish davrlarda «ilmi adab» deb atalgan adabiyotshunoslik fani «ilmlar uchligi» deb atalgan quyidagi uch sohani o'z ichiga olgan: 1) ilmi aruz - she'rdagi vaznlar va ularning qonun-qoidalari haqida bahs yurituvchi bo'lim; 2) ilmi qofiya - qofiya qonuniyatlari hamda turlari to'g'risida ma'lumot beruvchi bo'lim; 3) ilmiy bade' (bade' - arabcha ajoyib, nodir) - fikrni ravon va nafis ifodalash yo'llari va vositalari, badiiy san'atlarning turlari hamda xususiyatlari kabi masalalarni o'z ichiga oluvchi bo'lim.

Ilmi bade'ga doir asarlarda nasr va nazmda qo'llanadigan badiiy san'atlarning yuzdan ortig'i haqida mu'lumot berilgan bo'lib, ana shu san'atlar so'zning ikki tomoni: ma'nosi yoki shakli bilan bog'liq holda yuzaga chiqishiga ko'ra uch guruhga bo'lingan:

1. Lafziy san'atlar.
2. Ma'naviy san'atlar.
3. Mushtarak, ya'ni ham lafziy, ham ma'naviylik xususiyatiga ega bo'lgan san'atlar.

Ma'naviy san'atlar baytdagi ayrim so'z yoki butun baytning ma'nosi bilan aloqador badiiy vositalar bo'lib, ularning miqdori, Atoullah Husayniyning «Badoyi'u-s-sanoyi'» asarida keltirilishicha, ellikdan ortiq. Mubolag'a, tashbih, tamsil, husni ta'lil, tajohuli orifona, tashxis, talmih, laff va nashr, ruju', istiora, kinoya, irsoli masal, tazod, tanosub va boshqalar ma'naviy san'atlarning eng mashhurlaridir.

Lafziy san'atlar bayt yoki undagi ayrim so'zlarning shakli - ta-laffuz va yozilishiga asoslangan bo'lib, «Badoyi'u-s-sanoyi'»da tarsi', tajnis, ishtiqoq, raddul ajz, radd ul-matla', tardu aks, takrir, mukarrar, kitobat, talmi', tarix kabi ellikdan ortiq lafziy san'at namunalari

keltirilgan. (Husayniy, 1981)

Ma'naviy-lafziy san'atlar so'zning ham ma'nosi, ham shakli bilan aloqador san'atlardir, ularning miqdori unchalik ko'p emas. Ma'naviy-lafziy san'atlarning namunasi sifatida tavfiq, ta'dil, iqtibos, tazmin, baroati istihlol kabilarni ko'rsatish mumkin. G'oyaviy mazmunning yorqin va ta'sirchan ifodasiga xizmat qiluvchi lafziy, ma'naviy va mushtarak san'atlar badiiy asarda xilma-xil uslub va vazifalarda qo'llanishi mumkin. Agar jiddiyroq e'tibor berilsa, turli guruhlariga mansub san'atlarning mazmun-mohiyat, shakl yoki boshqa biror jihatdan bir-biriga yaqinligi seziladi. Shuning uchun atoqli adabiyotshunos olim Y.Is'hoqov bu uch guruhga mansub san'atlarining uslubiy xususiyatlarini yanada aniqlashtirib, ularni quyidagi o'n guruhga ajratadi:

1. Istioraviy-ramziy tasvir usullari: majoz, istiora, kinoya, baroati istihlol, ranglar ramzi.

2. Qiyosiy-assotsiativ usullar: tashbeh, talmeh, tansiq us-sifot, tamsil ko'rinishlari, laffu nashr, muroati nazir.

3. Fikrni dalillash yo'llari: husni ta'lil, tamsil, irsoli masal.

4. Emotsional-mubolag'ali tasvir usullari: mubolag'a, tashbehning ayrim turlari, ruju', murojaat, savolu javob, ritorik so'roq.

5. Sintaktik-stilistik usullar: tarse', tardi aks, radd ul-ajz ilas-sadr, tashobehul atrof (tasbe'), murabba', mudavvar, muzdavoj, mumosila, tashtir, tajziya, tasre', tazmin, tasme, tardid, takror, raddul-matla', tajdidi matla' kabi.

6. a) so'zning ichki, tashqi formasi bilan aloqador san'atlar: tajnis, iyhom, ittifoq, ishtiqoq, qalb, mutazalzil;

b) ayrim so'z emas, umuman tugal tekst (misra', bayt) bilan aloqador stilistik usullar: tavjeh, ta'kid ul-madh bimo yashbahuz-zam, idmoj, ta'liq, tajohuli orif, hazlun murodu bihil-jidd.

7. Kontrast (tazod) san'ati.

8. Murakkab san'atlar: muammo, ta'rix, hijoi huruf, harf bilan bog'liq usullar.

9. Stilistik mutanosiblik: jam, tafriq, taqsim, jamu tafriq, jamu taqsim va boshqalar.

10. Qofiya bilan aloqador san'atlar: e'not, iyto (raddul qofiya), hojib, tajnisli qofiya, zulqofiyatayn, musajja', tasmit kabi.

Navoiyshunos olimning mazkur tasnifidan ma'lum bo'ladiki, u takrorga asoslangan tasviriy vositalarni alohida guruhga ajratib, sintaktik-stilistik usullar (tasnifda 5-guruh) deb nomlagan. Bu san'atlar uchun umumiy jihat shuki, ularning hammasi ham so'z yoki so'zlar guruhining bayt yoki asar doirasida qaysidir shaklda takrorlanishi-

ga asoslangan san'atlardir.

Asosiy qism

Xudoyi taborak, Xudoyi taolo,

Uzung Hodiy, yo'l ochg'il Haq taolo (Majzub, 2020 qolgan baytlar ham shu manbadan olingan).

Ey, bandalarning xojatlarini qondirguvchi barakot sohibi ulug' Robbimiz, Sen o'zing To'g'ri yo'lga boshlaguvchi Haqiqiy Parvardigorimizsan. Bizlarni o'zingning haq yo'lingga yo'llab, hidoyating tarafga yo'l ochgil.

Yuqoridagi baytda "Xudoyo" so'zining bir misrada takrorlanishini kuzatish mumkin. Bu so'z bir o'rinda Allohga murojaat shaklida kelsa, yana bir o'rinda yaratganning buyukligi hadida so'zlaydi.

Ma'lumki, adabiy asarda ayrim so'z, so'z birikmalari va hatto misralar muayyan maqsad bilan takror holda qo'llanishi mumkin. Badiiy asarda g'oyaviy-badiiy mukammallikka xizmat qiluvchi bunday takrorlar oddiy takrordan farqli o'laroq, badiiy takror deyiladi. Badiiy takrorlar she'rda ifodaviyliklikni oshirib, so'z yoki misra bag'riga jo bo'lgan muayyan mazmun yoki fikrni alohida ta'kidlashga xizmat qiladi. Badiiy takrorlar rang-barang ko'rinishga ega. Ular misra, bayt yoki she'rning xilma-xil o'rinlarida xilma-xil tarzda takrorlanib kelishi mumkin. O'tmish mumtoz badiiyat ilmida takrorning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ularga turlicha nom berilgan: tarse', tardi aks, radd ul-ajuz ilas-sadr, tashobehul atrof (tasbe'), murabba', mudavvar, muzdavoj, mumosila, tashtir, tajziya, tasre', tazmin, tasma, tardid, takror, raddul-matla' va tajdidi matla'. Har bir so'z san'atkori o'z poetik iqtidoriga yarasha badiiy takror san'atlaridan foydalanish, o'z asarining g'oyaviy va badiiy quvvatini oshirishga intilgan.

Shayx hazratlarini qo'lyozma asarlarini, lirikasini o'qir ekanmiz, unda turli xil badiiy-she'riy san'atlardan unumli foydalanganligini kuzatishimiz mumkin. Lirikani tahlil qilish davomida shoir asarlarida eng ko'p badiiy san'atlarning: talmeh, tanosub, tazod, ishtiyoq san'atlari tashkil etishini kuzatdik.

Talmeh (nazar solmoq) she'r yoki nasrda mashhur tarixiy voqealar, afsonalar, adabiy asarlar, maqollar va tarixiy, mashhur shaxslarga ishora qilmoq san'atidir. (Hojiahmedov, 1999, 41)

Abdulaziz Majzub Namangoni asarlarida yaratgan Alloh va payg'ambarlar, sahobalar, tobeinlar va din ulamolarining nomlarini keltirish orqali badiiy san'atni yuzaga keltirgan.

Tufayli Muhammad alayhissalom,

Aning oli, as'hobig'a ham salom.

Ey Robbimiz, bizlar uchun eng sevimli, gozal xulqli bo'lgan, O'zingni habibing bo'lmish Muhammad alayhissalomni vasila qilib, o'rta qo'yub suraymiz, Bu oliyjanob do'sting tufayli ya'ni sabablari va hurmatlaridan bizlarni to'g'ri haq yo'lga yo'llagin. Payg'ambarimiz alayhissalomga doimo ko'makdosh bo'lib fidokorlik ko'rsatgan oila a'zolariga, sahobalariga salomlar bo'lsin.

Eshoni Majzub rahmatulohi alayh o'zlarining ushbu avvalgi g'azallarida bizlarga ta'lim uchun duo qilish va duo qilishda esa nimalarni so'rashimiz, kimlar tufayli duolarimiz ijobatga yaqin bo'lishini ko'rsatib beradilar.

*Tufayli Abu Bakr kim, yori g'or,
Tufayli Umar adlda nomdor.*

Payg'ambarlarning buyugi bo'lmish Rasul akram alayhissalom bilan uch kecha-yu kunduz Savr g'orida birga bo'lgan insonlarning eng yaxshisi va ulug'i bo'lmish Abu Bakr Siddiq raziyallohu taolo anhu hamda tarixda adolat timsoli bo'lib kelayotgan Umaru odil raziyallohu taolo anhu hurmatlaridan so'rayman...

*Tufayli uchunchi xalifaki Usmon,
Shinovari g'avvosi daryoi Qur'on.*

Qur'oni karim ma'naviy ilohiy daryo bo'lsa, unda suzuvchi va g'avvos bo'lib sho'ng'uchi bo'lmish uchinchi xalifa Usmon raziyallohu taolo anhu sabablari va hurmatlaridan surayman...

*Tufayli xalifa Ali shohi mardon,
Saxo ma'dani, maxzani judu ehson.*

Saxiylikning koni, in'omu-ehson xazinasi, mard-u maydonlar shohi xalifa Ali raziyallohu taolo anhu hurmatlaridan surayman...

*Tufayli ikki sarvi bo'stoni jannat,
Ikki shohzodai javononi jannat.
Nabiyzodalar ham valiyzodalar,
Sahi bog'i sabr ichra ozodalar.*

Muhtaram Nabiyimiz alayhissalom nabiralari nabiyzodalar, Aliyu valiyyulloh raziyallohu anhungin farzandlari valiyzodalar, jannat bo'stoni yigitlarining shaxzodalari, sabr bog'ining ozodalari, qomatlari kelishgan barvasta imomi Hasan va imomi Husayn raziyallohu taolo anhumo hurmatlaridan so'rayman...

Ijodkor yuqorida keltirilganlardan tashqari yana bir qancha shaxslarni keltirib din yo'lida fidokorona mehnat qilganlarini kuzatamiz. Masalan,

Zaynul – Obiddin – imomi Husaynning o'g'illari;

Tufayli o'shal Zaynul-ubbodi imom,

Ki maydoni irfonda uluvvi xitom.

Imomi Boqir - hamma ilmda mohir bo'lgan beshinchi imom;

Tufayli imomiyki Boqir edi,

Hama ilmu fan ichra mohir edi.

Salmon – zuhdu-taqvo (zohidlik va parhezkorlik, taqvodorlik) yo'lini mahkam tutgan sahoba;

Tufayli sahobaki Salmoni fors,

Tutar zuhdu taqvo tariqiyini pos.

Qosim – Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhuning nabiralari, qaddi-qomati toat-ibodatda nun kabi egilgan;

Tufayli o'shal Qosimi zufunun,

Ki toat bila qomati hamchu nun.

Ja'fari Sodiq – bandachilikni o'z joyiga muofiq o'rnatib qo'ya olgan, pokiza zot;

Tufayli o'shal pok, Sodiq imom,

Ishi bandalikda muofiq imom.

Taqvoli va pokiza imomlar – dinimizning shamchirog'i bo'lib, din ravnaqi va rivoji uchun o'z hissasini qo'shgan zotlar;

Imomi taqiyyu, imomi naqiy,

Tufayli ikki sham'idin ravnaqi.

Xoja Abdul Xoliq G'ijduvoni – Xojagon tariqatining sarhalqasidan, Xojai jahon maqomini olgan ulug' peshvo.

Tufayli o'shal Xojai G'ijduvon,

Chu anga laqab bo'ldi "Xojai jahon".

Tashbih – Sharq adabiyotida keng tarqalgan san'atlardan biri bo'lib, "o'xshatish" ma'nosini ifodalaydi. Ikki narsa yoki tushunchani ular o'rtasidagi haqiqiy yoki majoziy munosabatlarga ko'ra o'xshatish san'atidir. Tashbih san'ati tasvirlanayotgan shaxs, buyum yoki tushunchani o'quvchi ko'z o'ngida aniqroq, jozibaliroq gavdalantirishga xizmat qilib, asar timsollari ma'naviy qiyofasini yorqinroq ochish, binobarin, shoir g'oyasini o'quvchi ongiga to'laroq yetkazishga imkon beradi.

Ishq dashtida adashdim, yo'q mango yor-u rafiq,

Chunki ketdi ilgari bu vodiya yo'ldoshlar.

Alloh ga bo'lgan ishq dashtida ya'ni ishqning bepayon yo'lida menga yor va hamroh yo'qligidan adashdim. Bu yo'ldagi din peshvolari mendan avval ketgan deb o'zidan ilgari yashagan din ulamolariga va shoir Mashrabga ishora qilmoqda. Ushbu baytda "ishq dashti" deya o'xshatish orqali tashbeh san'atini vujudga keltirgan. Bundan tashqari "yor-u rafiq" so'zlari yordamida tanosub san'atini ham yorqin namunasini izohlagan.

Abdulaziz Majzub Namongoniy lirikasida din yo'lida peshvo xizmat qilgan shaxslarni qiyoslab tashbih san'atidan unumli foydalanligini kuzatamiz.

Xalifa Umar raziyallohu anhuni – adolat peshvosi deb ta'riflaydi. Unga nisbatan adolat hamrohi deydi.

Xalifa Ali raziyallohu anhuni – sahiylik va in'om-ehson xazinasiga qiyoslaydi.

Abul Qosim Ko'ragoniyni – Xojalar shamiga qiyoslaydi.

*Tufayli Abulqosim Ko'ragoniy,
O'shal xoja sham'i xayli ma'ofiy.*

Tazod bu so'z "zid qo'yish", "qarshilantirish" degan ma'nolarni ifodalaydi. Shu so'z bilan ataluvchi sheriy san'at esa baytda ma'no jihatidan o'zaro zid, qarama-qarshi bo'lgan so'zlarni qo'llab ta'sirchan badiiy timsollar, lavhalar yaratishni nazarda tutadi.

*Yaxshilarni qildi paydo ham yomonlarni bino,
Dema mundog' nega qildi, Hikmatullohdin gapur.*

Yaxshi insonlarni paydo qildi, shu bilan birgalikda yomonlarni ham dunyoda bino qildi. Yaxshi va yomon insonlarni nega yaratdi dema, uning o'rniga Allohning hikmatidan gapir. Ushbu baytda insonga nisbatan yaxshi va yomon sifatlarini kelishi bu tazod san'atini vujudga keltirmoqda. Shoirning baytlarida, asosan, g'iybatdan yiroqda bo'lish va Yaratganning bizga bergan ne'matlaridan unumli foydalanishga chorlash ma'nolarini kuzatish mumkin. Yuqoridagi baytda yana talmeh san'atidan foydalanilgan: Hikmatulloh – Allohning biz insonlarga buyurgan yo'l-yo'riqlariga to'la amal qilgan, o'zining hayotini Allohning roziligi uchun bag'ishlagan diniy ulamo.

*Hama dardmang'a shifo qil,
Ki solik eliga safo lutf qil,
Ki Majzublarg'a vafu lutf qil,
Giriftorlardur, giriftorlar.
Umidvorlardir, umidvorlar.*

Hamma dardi borlarga shifoi komil ato et, So'fiylik tariqati-

ga mansublarga ya'ni tariqat ahliga iymonli rahmatingdan bergin. Majzublarga ya'ni o'zining hayotini Alloh roziligi uchun bag'ishlaganlarga vafoli rahmatingdan bergin. Ular sening yo'lingga va himmatingga yo'liqqanlardir va umidvorlardir. Ushbu baytda "dard" va "shifo" so'zlari o'zaro zid ma'nolarni ifodalashi bu tazod san'atini vujudga keltiradi. Bundan tashqari yana baytda "shifo" va "safo" so'zlari yordamida tanosub san'atidan mohirona foydalanilgan. Shifo bu darddan forig' bo'lib, poklanish ma'nosini ifodalasa, safo so'zi ham poklanib, iymonli bo'lish ma'nosini ifodalaydi. Ijodkor baytda takror so'zlarni qo'llab she'rning badiiyligini oshirishga harakat qilgan. Bu esa takrir san'atini vujudga keltirgan. Takrir san'ati bu she'riy misrada u yoki bu so'zni takror qo'llash nazarda tushuniladi. So'z ma'nosini, uning mohiyatini ta'kidlab ko'rsatadi.

*Shohg'a yokim gadog'a rutbai ishq tengdur,
Ham tafovut yo'q bu ishda ko'hna solu yoshlar.*

Bu o'tkinchi dunyoda shoh va gadoning Allohga bo'lgan ishq darajasi tengdir. Bu ishqda yoshlarimizning tafovuti ya'ni farqli jihatlari yo'q. Yaratganga ergashish va uning buyurgan ishlarida insonlarning tabaqalanishi yo'qligini, buni bugungi yoshlar bilib olishini ta'kidlagan holda, shoh va gado, teng va tafovut kabi so'zlarni baytda qo'llab tazod san'atining yorqin namunasi keltirgan.

*Mavti do'zax birla jannat tutsa tutg'uch bermagon,
Loyiqi o'z vasli bo'lg'on e'tibor ahli keling.*

O'lim har bir insonga do'zax va jannatni tutsa, har kim qilgan amallari orqali bu yo'llarni bosib o'tadi. Bu dunyoda hamma o'tkinchi ekanligini va har kim qilgan amallari orqali jannat yoki do'zaxga borishi, shuning uchun ham har kim o'z amallarini yaxshi bajarib, loyiq holda borishi kerakligini ta'kidlaydi. Ushbu baytda "do'zax" hamda "jannat" so'zlari o'zaro zid ma'noni ifodalashi va shuning bilan tazod san'atini vujudga keltirgan.

*Savobing ko'p bolib, gunohing kamir,
Ki aytsang alarga salovotu salom.*

Yaratgan Alloh ga va uning rasuli Muhammad sallallohu alayhi vasallamga salovotu salomni qancha ko'p aytsang, savobing shuncha ko'payib, gunohing shuncha kamayadi. Inson bu foni dunyoda Yaratganga va Payg'ambarga salovoti salomlar aytishini shoir ushbu baytda bildirgan. Yuqoridagi ikki misrada "savob" va "gunoh", "ko'p" hamda "kam" so'zlari o'zaro qarama-qarshi ma'nolarda ifodalanishi bu baytda tazod san'atini yuzaga keltiradi.

Tanosub she'r baytlarida ma'no jihatidan bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so'zlarni qo'llab, ular vositasida obrazli ifodalar, lavhalar yaratish san'atidir. Majzub Namangoniy ijodida tanosub san'atining yorqin namunalarini juda ko'p uchratishimiz mumkin:

Zavq bozoridag'i sarroflar der naqdi jon.

Vera durri shavq olg'uch savdogar ahli keling.

Ushbu baytda sarrof va savdogar so'zlari o'zaro ma'no jihatidan bir-biriga yaqin ma'nolarda ifodalanishi badiiylikni oshirishga xizmat qilgan. Bozorda pul maydalovchi sarrof uchun naqdi jonday aziz bo'lsa, huddi shunday lazzatdan din yo'lida foydalanadigan savdogarlar keling deya murojaat orqali baytning jozibaliligini ta'minlagan.

Dayr piri derki, eshik el supuron yuz bila,

Xasdin o'zni kam yiqitg'on, xor-u zor ahli keling.

Xonaqoh piri deydiki, eshik va elni yuzi bilan supuradigan, o'zini hammadan kam biladigan xor-u zor ahli keling. Ushbu misrada "xor-u zor" so'zlari orqali tanosub san'atini qo'llanishi, baytda kengroq ma'noda ishlatilishini ta'minlaydi.

Abdulaziz Majzub Namangoniy o'zining devonidan joy olgan "oriy manam, manam manam" radifli g'azalida boshdan oyoq tanosub san'atining yorqin namunalarini ifodalagan.

Soqiy manam, sog'ar manam, oriy manam, manam manam,

Hojiy manam, muhrim manam, oriy manam, manam manam.

Soqiy – mumtoz adabiyotimizda ko'plab so'z sohibkorlari ijodida uchraydigan so'z bo'lib, may quyuvchi degan manoni anglatadi. Sog'ar esa - may, qadah ma'nolarida ishlatiladi. Yuqoridagi baytda esa – may idishi ma'nosida ishlatilgan. Oriy- aslida keluvchi, kelgan ma'nolarni angltsa, baytda rost ma'nosida ishlatilgan. May quyuvchi ham men, mayning idishi ham menman, oriy- rosti ham menman. Hojiiy ya'ni haj qiluvchi ham, muhrim – ehrom kiygan ham menman. Oriy – rosti ham, shundayi ham menman. Baytda soqiy, sog'ar, oriy, hojiiy, muhram kabi so'zlar tanosub san'atini vujudga kelishi uchun asos vazifasini bajarmoqda.

Zohid manam, obid manam, oriy manam, manam manam,

Oshiq manam, orif manam, oriy manam, manam manam.

Zohid – zuhd qiluvchi, dunyo ishlarini tashlab, toat va ibodat bilan mashg'ul inson, lekin ibodatni jannat uchun qilganliklari uchun so'filar buni ta'ma deb bilishadi. Baytda esa - dunyodan yuz o'girib,

faqatgina toat-ibodat bilan mashg'ul ma'nosida ishlatilgan. Obid – ibodat qiluvchi, Oshiq – ishq-u muhabbatga giriftor bo'lgan, Orif – biluvchi, tanuvchi, ma'rifatli, dono ma'nolarini anglatadi. Demak, baytda dunyo ishlaridan voz kechib, toat va ibodat bilan shug'ullanuvchi ham, Alloh ishqiga giriftor bo'lgan ham, bularni hammasini ko'ngilda his qilgan, biluvchi ham menman. Baytda tanosub san'ati bevosita zohid, obid, oshiq, orif kabi so'zlar bilan ifodalangan.

*Sufiy manam, sofiy manam, oriy manam, manam manam,
Xodim manam, nodim manam, oriy manam, manam manam.*

Sufiy – tasavvuf tariqatidagi inson, sofiy – pok, ozoda kishi, Xodim- xizmat qiluvchi, Nodim – nadomat qiluvchi ma'nolarini anglatadi. Bundan kelib chiqadiki, shoir o'zini tasavvuf tariqatida ya'ni Yassaviya tariqatiga amal qilganligiga ishora qiladi. Yassaviya tariqatida tarkidunyochilik, bu dunyo noz- ne'matlaridan voz kechib, faqatgina toat –ibodatda bo'lishlikka ishora bor. Inson qachonki pok bo'lsa, shundagina tasavvufga tayyor holda kirishi mumkinligi haqida fikr yuritilgan. Baytdagi sufiy, sofiy, xodim va nodim so'zlari o'zaro ma'nosi bir-biriga yaqinligi bilan badiiy san'atni vujudga keltirgan.

Pok ozoda holatda xizmat qiluvchi ham, nadomat qiluvchi ham menman. Shunday insonman demoqchiday.

*Vola manam, shaydo manam, oriy manam, manam manam,
Bulbul manam, ham gul manam, oriy manam, manam manam.
Rayhon manam, sunbul manam, oriy manam, manam manam,
Zokir manam, shokir manam, oriy manam, manam manam.*

Vola – berilgan, hayratda qolgan, maftun, oshiq, shaydo; Shaydo – oshiq-u beqaror; Zokir – zikr qiluvchi; Shokir – shukr qiluvchi. Yaratgan Alloh yo'lida oshig'-u beqaror ham, Yaratganni kuylovchi bulbul ham, Alloh ismini salovotlar ila bezatgan gul ham menman. Rayhon va sunbul kabi hushbo'y hid taratuvchi ham menman. Yoqimli hid taratib zikr aytuvchi ham, shukr qiluvchi ham menman.

*Xoif manam, sobir manam, oriy manam, manam manam,
Tolib manam, sodiq manam, oriy manam, manam manam.*

Xoif – qo'rquvchi, xavflanuvchi; Sobir – sabr qiluvchi; Tolib – talab qiluvchi; Sodiq – sadoqatli, rostgo'y. Baytda ijodkor o'zini Alloh dan qo'rquvchi, ya'ni Alloh buyurgan yo'ldan yuruvchi sifatida ham, bu yo'lda doimo sabr-bardosh bilan turuvchi ham, Allohning roziligini izlovchi, talab qiluvchi ham, bu yo'lda sadoqat bilan xizmat qiluvchi ham menman.

Fosiq manam, fojir manam, oriy manam, manam manam,

Osiy manam, rasvo manam, oriy manam, manam manam.

Fosiq – axloqsiz, yomon ishlar qiluvchi; Fojir – buzg‘unchi; Osiy – gunohkor; Rasvo – sharmanda bo‘lgan. Baytda shoir shunday ma‘noni ko‘zlaganki, bu dunyoda har kim gunohkor hisoblanadi. Shunday ekan yomon ish qiluvchi ham, buzg‘unchi ham, gunohkor bo‘lib sharmanda bo‘lgan ham menman deya murojaat qiladi.

*Xolis manam, muxlis manam, oriy manam, manam manam,
Qone’ manam, tome’ manam, oriy manam, manam manam.*

Xolis – toza, sof, qorishmasiz; Muxlis – samimiy, ochiq ko‘ngil, ixlosmand, sadoqatli; Qone’ – qanoatli; Tome’ – tama’ qiluvchi. Baytda Allohga sof va samimiy ixlos bilan qanoat qiluvchi va tama’ qiluvchi ham menman.

*Majnun manam, mahzun manam, oriy manam, manam
manam,
Sokin manam, soyir manam, oriy manam, manam manam.*

Majnun – aqldan ozgan, ishq yo‘lida telba bo‘lgan; mahzun – xafa, g‘amgin;

Sokin – harakatsiz, bir joyda istiqomat qiluvchi; Soyir – sayr etuvchi. Baytda aqldan ozib, g‘amgin holatda bir joyda yashovchi ham, sayr qilib yurguvchi ham menman.

Shoir g‘azalini tahlil qilar ekanmiz, har bir baytida tazod, tashbeh, tanosub kabi badiiy san’atlardan unumli foydalanganligini kuzatishimiz mumkin.

Tazod – zid qo‘yish, qarshilantirish ma‘nolarini ifodalaydi. She’rda ma‘no jihatidan o‘zaro zid, qarama- qarshi bo‘lgan so‘zlarni qo‘llab, ta’sirchan badiiy timsollar, lavhalar yaratishni nazarda tutadi.

*Majnun manam, mahzun manam, oriy manam, manam
manam,
Sokin manam, soyir manam, oriy manam, manam manam.*

Ushbu baytda, Sokin – bir joyda turuvchi va Soyir - sayr etuvchi mazmun jihatidan tazod san’atini vujudga keltirgan. Yana bir misrasida esa – qone’ va tome’ so‘zlarini tazod san’atida ifodalaganini kuzatishimiz mumkin.

Tanosub – she’r baytlarida ma‘no jihatidan bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so‘zlarni qo‘llab ular asosida obrazli ifodalar, lavhalar yaratish san’ati. She’rda so‘zlar asosan ma‘no jihatidan bir turkumga kirishi kerak.

Vola manam, shaydo manam, oriy manam, manam manam,

*Bulbul manam, ham gul manam, oriy manam, manam manam.
Rayhon manam, sunbul manam, oriy manam, manam manam,
Zokir manam, shokir manam, oriy manam, manam manam.*

Ushbu baytda Vola va Shaydo; Rayhon va Sunbul; Zokir va Shokir kabi so'zlar ma'no jihatidan bir turga kirishi va she'rda tano-sub san'atini vujudaga kelishini bildirgan.

Tashbih – Sharq adabiyotida keng tarqalgan san'atlardan biri bo'lib, o'xshatish ma'nolarini ifodalaydi. Ikki narsa yoki tushunchani ular o'rtasida haqiqiy yoki majoziy munosabatlarga ko'ra o'xshatish san'atidir.

Shoir ijodini o'rganish borasida tashbih san'atidan keng va unumli foydalanganligini kuzatishimiz mumkin. Masalan, ijodkor o'zini soqiy, sog'ar, oriy, hojiy, muhrim, zohid, obid, oshiq, orif, sufiy, sofiy, xodim, nodim, vola, shaydo, bulbul, gul, rayhon, sunbul, zokir va shokir kabi ko'plab unsurlarga mengzaganini kuzatishimiz mumkin.

Shoir she'rlarida uchraydigan badiiy san'atlardan yana biri bu takrir san'atidir.

Takrir "takrorlash" ma'nosini ifodalovchi lafziy san'at bo'lib, she'rda u yoki bu so'zni takror qo'llashni nazarda tutadi. Takrorlash vosiotasida so'z ma'nosini, uning mohiyatini ta'kidlab ko'rsatish ushbu san'atning asosiy xususiyati sanaladi. Abdulaziz Majzub Namangoniyning quyidagi bir muhammasi takror so'zlar bilan yakunlanib takrir san'atini vujudga keltirgan.

*Qadam yo'liga qo'yg'on talabgorlar,
Muhabbat o'tidin dilafgorlar,
Qachon g'ofil o'ldi ul bedorlar,
Ki hushyorlardurki, hushyorlar,
Xabardorlardur, xabardorlar.*

Alloh taoloning rizoligi yo'lida qadam bosgan toliblarning ya'ni ilm ahlining dillari ishq-muhabbat o'tida o'rtangandur. Bu dillari uyg'ongan, ogohlik ganjinasidan nasibalangan zotlar qachon g'aflatda qolgan bo'lur edilar? Albatta g'ofil bo'lmaslar, chunki ular hamma narsaga hushyorlardan va xabardorlardandur.

*O'zini muqimi dari dayr etar,
Guliston asrorini sayr etar,
Qachon dilni moyil suyi g'ayr etar,
Ajab yorlardur, ajab yorlar,
Neku korlardur, neku korlar.*

O'zlarini piyri komil xonaqohining eshigida muqim tutgan, doimo pirlarini go'zal suhbatlaridan bahramand bo'lub, sir-asrorlar gulistoniga sayr etib turib mastona bo'lsalar, endi qachon dillarini Alloh taolodan boshqa tarafga moyil etadilar? Albatta, moyil etmaslar, chunki ular ajoyib yaxshi ish qilguvchi do'st-u yorlardur.

*Guruhiy qilur mug'bacha xizmatin,
Tutor pos piyri mug'on hurmatin,
Ki izlar xudojo'y kishi suhbatin,
Xaridorlardur, xaridorlar.
Vafodorlardur, vafodorlar.*

Yana bir guruhlariki, piyri komillar va ularning xalifalari xizmatlarini va bergan vazifalarini bajon-u dil bajaradilar. Piyri mug'onlarni xurmatlarini mahkam tutarlar. Xudoning do'stlarini suhbatlarini izlab bo'lsa-da, toparlar. Chunki, ular Alloh taoloning diydori jamoliga xaridor va bergan va'dalariga vafodorlardur.

*Talab xaylini joyi ma'vosi yo'q,
Jahon naqdiga zarra parvosi yo'q,
Ki Haqdin digar xech tamannosi yo'q,
Sabukborlardur, sabukborlar.
Xudo yorlardur, Xudo yorlar.*

Alloh taoloning talabi yo'liga kirgan bir guruhlariki borlar, ularning turar joylari ham yo'q, naqdi dunyodan qo'liga bersangiz zarra parvosi ham yo'q, ularda Haq Subhanahu va taoloning vasliga yetishlikdan o'zga orzulari ham yo'q. Ular dunyo matosidan yuz o'girib yuklarini yengil qilgan, Xudo yor bo'lgan zotlardur.

*O'shal karamro'larni xoki rahi,
G'ubori alar xodimi dargahi,
Qiling ko'zga to'tiyo, iqlim shahi,
Xush osorlardur, xush osorlar.
Safodorlardur, safodorlar.*

O'shal dargohning saxovat chehralarini yo'lining tuprog'i bo'lib, xizmatidagilarni oyog' gardini ey iqlim shohlari, ko'zga to'tiyo qilib surkang! Chunki ular yuqorilardan qolgan eng yaxshi azmandi nishona tabarruk, hamda o'zlarini eng pokiza tutgan zotdurlar.

*Ki ajzi niyoz hama inkisor,
Ki mehr tobidin zarradek beqaror,*

*Alar soyai rahmati Kirdigor,
Nadamvorlardur, nadamvorlar.
Xush abrorlardur, xush abrorlar.*

Alloh taoloning yerdagi soyasi va rahmati, ishq-muhabbat tobidan doimo zarra kabi beqaror bo'lmish zotlar, fazilatda hammadan ustun bo'lsalarda, o'zlarini ojiz-u ehtiyojmand deb bilib, siniqlik bilan nadomat etguvchilardan bo'ldilar. Bular butun umrlarini insoniylik, insonsevarlik xizmatiga bag'ishlagan sof dil, ajoyib xush abrordurlar.

*Suyur Haqni darvesh, ani Haq suyar,
Ki pok ishqidin ayladi bahravar,
Umid ulki, oxir o'zin ko'rsatar,
Sazovorldur, sazovorlar.
Talabgorlardur, talabgorlar.*

Darveshlar Haq taoloni yaxshi ko'rishadi, chunki Haq taolo o'zi ularni yaxshi ko'rgandur, shuning uchun O'ziga bo'lgan ishq-muhabbatdan ularni bahramand etgandur. Endi umidimiz shulki, oxiri sazovor bo'lganlarga va talabgorlarga O'zining diydori jamolini ko'rsatur.

*Birov tolibi rohi Mavlo esa,
Yo'lin tobg'on erlarga shaydo esa,
Tuzog'i xavasdin kerakvor esa,
Sharardorldurlar, sharardorlar.
Na ahrorldur, na ahrorlar.*

Birov Robbi Parvardigorimiz rizoligi yo'liga talabgorlardan bo'lsa va bu yo'lni topgan mardlarga shaydoligi ham bo'lsayu, lekin hoyi-havas tuzog'idan qutulmay nafsining zararli xohishotlari ortidan qolmay bajarib yurgan bo'lsa, endi bu kishi qandayin oliyjanob, pokiza himmatli zotlardan deb aytishimiz mumkin?

*Hama dardmandga shifo lutf qil,
Ki solik eliga safo lutf qil,
Ki Majzublarga vafu lutf qil,
Giriftorldur, giriftorlar.
Umidvorldur, umidvorlar.*

Ey mehribon Robbimiz, O'z lutf-u marhamating bilan barcha ishq-muhabbat dardiga muftalo bo'lgan bemorlarga shifo bergin. Tariqat yo'liga kirgan solik devonalarga O'z lutf-u marhamating bilan qalb safoligini nasib qilgin. Majzublarga esa O'z lutf-u marhamating bilan vafodorlikni bergin, chunki bularning barchalari Senga bog'langan va Sendan umidvor

bo'lgan zotlardur.

Xulosa

XIX asr boshlari Namangan adabiy muhiti namoyandasi Majzub Namangoniy ijodida tasavvufona g'oyalar, diniy timsollar talqini mavjudligi sabab, mustaqillikka erishilgunga qadar ular adabiy merosini mukammal o'rganish imkoni bo'lmagan. Madrasa ta'limini olgan, arab, fors tilini chuqur o'rgangan, diniy hamda dunyoviy ilmlarni egallagan ushbu shoir buyuk salaflari ijodi bilan yaqindan tanishib, zamondoshlariga nisbatan har sohada ilg'or dunyoqarashga ega bo'lgan.

XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida yashab ijod etgan namanganlik shoir fiqh ilmining yetuk bilimdoni ekanini anglatadi. Bu borada Qur'on oyatlari va hadislar mazmunini she'rga singdirish, talmeh san'ati vositasida diniy timsollar talqinini yaratish, asosan, Xizr, Muhammad (s.a.v), Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali sifatlarini ta'rifu tavsif etish Majzub Namangoniy ijodida o'ziga xos o'rin tutgan.

Shoir ijodida ishq motivi yangilandi. Asarlarida millat ishq, ma'rifat ishq talqini yetakchilik qildi. Ijodkor ijodida, ayniqsa, axloqiy-ta'limiy mavzudagi she'rlar salmog'i oshdi. Ularning badiiy ijod va axloqiy qarashlaridagi uyg'unlik fidoyilik, millatparvarlik, kurashchanlik kabi xislatlarini namoyon etdi. Asarlarida ham mumtoz adabiyot an'alarining davom etishi, ham yangi davr adabiyotiga xos xususiyatlar bo'y ko'rsatishi – bir vaqtning o'zida bu ikki jarayon yonma-yon kechgani ular ijodining serqirra ekanini anglatadi.

Adabiyotlar

Исҳоқов, Ёқубжон. 1970. "Шеърый санъатлар. Ийҳом". *Ўзбек тили ва адабиёти* 1.

Маҳмуд, Атоуллоҳ Ҳусайний. 1981. *Бадоеъ ус-саноеъ*, Тошкент.

Мақсуд, Шайхзода. 1972. Асарлар. 6, 4-том. Тошкент.

Маҳмуд, Атоуллоҳ Ҳусайний. 1985. *Бадойиғу-с-саноеъи*. Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.

Исҳоқов, Ёқубжон. 2006. *Сўз санъати сўзлиги*. Тошкент: Зарқалам.

Majzub, Abdulaziz. 2000. *Devoni Majzub*. Namangan.

Анвар, Ҳожиахмедов. 1999. *Мумтоз бадиият малоҳати*. Тошкент: Шарқ.

Majzub, Abdulaziz. 2020. *Oshiq manam*. Toshkent: Hilol nashr.

Majzub Namangani's mastery of the arts

Oybek Boyatov¹

Abstract

The great poets have used various poetic arts effectively and skillfully to enrich the content of their works of art. This made the work artistically clear, stylistically fluent, and attractive in form.

This article is about the role of art in the work of Abdulaziz Majzub Namangani, a representative of the Namangan literary community and one of the representatives of the Naqshbandi sect. There are two types of art in the works of the artist: the use of verbal and spiritual arts, and they are given beautiful evidence.

Spiritual arts are artistic means related to the meaning of an individual word or an entire verse in a byte, and their number, according to Atoullah Husseini's *Badoyi'u-s-sanoyi*, is more than fifty. Rhetoric, allegory, parable, beautiful analysis, tajahuli orifona, diagnosis, talmih, laff and publication, ruju, istiora, satire, parable, tazad, tanosub and others are the most popular of the spiritual arts.

Vocabulary is based on the pronunciation and spelling of a byte or some of the words in it, takrir, mukarrar, kitabat, talmi ', history, more than fifty examples of verbal art are given.

Key words: *Majzub, talmeh, tazad, Allah, tashbih, oriy manam, gradual.*

References

- Yoqubjon, I. 1970. "She'riy san'atlar. Iyhom". *O'zbek tili va adabiyoti*, 1. Mahmud, Atoullah Husayniy. 1981. *Badoe' us-sanoe'*, Toshkent. Maqsud, Shayxzoda. 1972. Asarlar. 6, 4-tom. Toshkent. Atoullah Husayniy. 1985. *Badoyi'u-s-sano'yi*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Yoqubjon, Is'hoqov. 2006. *So'z san'ati so'zligi*. Toshkent: Zarqalam. Majzub, Abdulaziz. 2000. *Devoni majzub*. Namangan. Anvar, Hojiaxmedov. 1999. *Mumtoz badiiyat malohati*. Toshkent: Sharq. Majzub, Abdulaziz. 2020. *Oshiq manam*. Toshkent: Hilol nashr.

¹*Boyatov Oybek Mahmudjon oqli* - Master of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navo'i.

E-mail: oybekboyatov151@gmail.com

For citation: *Boyatov, O.* 2022. "Majzub Namangan's mastery of the arts". *Uzbekistan: Language and Culture* 1(2): 60-75.

FOLKLORSHUNOSLIK TADQIQI

Epik ot obrazining tarixiy asoslari

Abdumurod Tilavov¹

Abstrakt

Maqolada dostonlardagi epik ot obrazining badiiy jihatdan mukammal tasviriga sabab bo'lgan tarixiy asarlar tadrijiy tarzda beriladi. Otning turkiy xalqlar tarixida tutgan o'rne, bu borada tarixchilarning e'tiroflari, qadimiy qo'lyozma manbalarda ot bilan bog'liq topilmalar, xullas, turkiy xalqlar mafkurasi dostonlardagi jangovar ot obrazi bilan qiyoslanadi.

Xalq dostonlarida tasvirlangan jangovar otlarga xos xususiyatlar sifatida ularning tabiiy otlar orasidagi eng mukammali, ayni paytda mifologik va totemistik e'tiqodiy tasavvurlarda ifodalangan ot xususiyatlariga ham ega ekanligida ko'rinmoqda. Shu jihatdan dostonlardagi jangovar otlar chinakam tulpor bo'lishlari uchun bevosita yoki bilvosita suv otlari hamda samoviy otlarga bog'liq bo'lishligi shart deb anglangan.

Biz ushbu maqolada xalq dostonlarida epik ot obrazining yaratilishiga asos bo'lgan tabiiy, diniy-e'tiqodiy tayanchlarni va qarashlarni botartib ravishda bir-bir qarab chiqamiz.

Shuningdek, maqolada "zotli ko'chmanchi mavaniyer", "hayvon – ona" an'ana va ishonchlari, "Devonu lug'otut-turk" va ot bilan bog'liq turkiy so'zlar izohi, qarvosh xalq dostonlaridagi ot obrazi borasidagi tahlil va talqinlar o'rin olgan.

Kalit so'zlar: *Epik ot obrazi, turkiy mifologiya, tarix, yozma yodgorliklar.*

Kirish

Otning o'zbek xalqi hayotida tutgan o'rne beqiyos. Ayniqsa, ot asosiy ulov vositasi bo'lgan o'tgan asrlarda uning bahosi yanada ortgan. Otning O'zbekiston tuprog'ida juda qadim zamonlardan qo'lga o'rgatilib, undan keng foydalanganligini arxeologik va etnografik adabiyotlar tasdiqlaydi. O'zbek xalqining ot bilan bog'liq e'tiqodiy, hayotiy va badiiy-estetik qarashlarini xalq dostonlarida

¹Tilavov Abdumurod Xolmurotovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: a.tilavov@mail.ru

ORCID ID: 0000-0003-2428-7547

Iqtibos uchun: Tilavov A.X. 2022. "Epik ot obrazining tarixiy asoslari". *O'zbekiston: til va madaniyat* 1 (2): 76-91.

keng kuylangan ot obrazi yanada mukammalroq tasavvur etish imkonini yaratadi.

“Dostonlarda ot juda muhim o‘rin egallaydi. U qahramonning muvaffaqiyatga erishuvi yo‘lida xizmat qilib, g‘oyat mushkul vazifalarni bajaradi, qahramonga katta yordam beradi. Qahramon otga ega bo‘lganligi tufayli istagiga erishadi. Shu narsa xarakterliki, epik ot qatnashmagan bironta qahramonlik dostonini topish qiyin. Ot qahramonning safari va kurashlarida doimiy yo‘ldoshi, ishonchli qo‘ldoshi va yaqin do‘stidir” [Zarifov 1967, 65].

O‘zbek xalq dostonlarida epik ot obrazining o‘ta mukammal darajada ishlanganligi o‘z vaqtida folklorshunoslarimiz [Zarifov 1968, 70] tomonidan qayd etilgan va bu O‘rta Osiyoning tabiiy sharoiti, bu yerda yashagan xalqlarning hayoti, tarixi bilan bog‘liq deb to‘g‘ri ko‘rsatilgan. Chindan ham bizning xalqlarimiz xo‘jaligi, turmushida otning o‘rni, xizmati kattadir. Ayni paytda otga bo‘lgan e‘tiqod uni totem sifatida qadrlash, alohida sifat va fazilatga ega otlarni g‘ayritabiiy shajaraga egaligi haqidagi qarashlar ham epik ot obrazining mukammal ishlanishida muhim o‘rin egallagan. Professor Hodi Zarif o‘zining mashhur “Jangovar ot obrazining qadimiy asoslariga doir” maqolasida haqli ko‘rsatib o‘tganidek, “doston va ertaklarda epik otlarning tabiiy otlardan farq qiladigan alohida xususiyatlari ham bor. Bunday xususiyatlar, bir tomondan, tabiiy naslli otlarda mavjud sifat va xarakterlarni bo‘rttirib, badiiy bo‘yoqlar bilan bezab ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan, miflarda mavjud xususiyatlar bilan bezalgan holda namoyon bo‘ladi, uchinchidan, ularda totemizm elementlari ham uchrab turadi” [Zarifov 1968, 69].

Asosiy qism

Turkiy xalqlar tarixiy obidalarida, otning muqaddas hayvon sifatida tan olinishini tasdiqlovchi daliliy ma‘lumotlar, udumlar bizgacha yetib kelgan. Bu ma‘lumotlarni alohida-alohida qayd etish, ularda xalq ishonchlarining qaysi jihati namoyon bo‘lishini o‘rganish, geografik nuqtai nazardan tarqalishini kuzatishsiz ot obrazi tarixiy ildizlarini tahlil etish mumkin emas.

Turkiy xalqlar tarixini otsiz tasavvur qilish mumkin emas. Chunonchi, ota-bobolarimiz ilohiy mo‘jiza sanalmish bu hayvonning inson hayotidagi ahamiyatini birinchilardan bo‘lib juda yaxshi bilgan va uni ardoqlash, tarbiyalash, undan foydalanish borasida boshqa ko‘plab xalqlarga o‘rnak bo‘lgan xalqdir. Bu xususiyat nafaqat bizning tarixchilarimiz, balki g‘arb olimlari tomonidan ham e‘tirof etilgan. Masalan, U.V.Shmidt bu borada olib borgan tadqiqotlari natijasida

quyidagi xulosaga keladi: “O’rta Osiyoda yerlashib olgan va yovvoyi hayvonlarni qo’lga o’rgatishni boshlagan ilk qavm turkiy qavm bo’lgan. Ot birinchi marta turkiylar tomonidan qo’lga o’rgatilgan va ular otga mingan birinchi insonlar edilar” [Kafeso’g’li 1988, 102]. Ajdodlarimiz o’zni dunyoga tanitgan, bu bilan insoniyat tarixida muhim burilish va o’zgarish yasagan millatdir. Tarixchilar “otli cho’pon” yoki “ko’chmanchi otli madaniyat” deb ataluvchi madaniyatning o’rtaga chiqishini va otning qo’lga o’rgatilishini bevosita qadimgi turkiy xalqlarga bog’lash mumkinligini, insoniyat tarixida erishilgan bu muvaffaqiyat boshqa qavmlar va madaniyatlarning rivojlanishida katta ta’sir ko’rsatganligini qayd etishadi. V.Eberxard xitoyliklar otga minish san’atini faqatgina miloddan avvalgi 300 yillarda Osiyo xunlaridan o’rganganligini aytadi [“Ulku” jurnali 1975, 2].

IV-VI asr G’arb manbalari (A.Marjellinus, Sh.Gladianus, A.Sidonius, Zosimos)ga ko’ra, “Endigina oyoqqa turgan xun bolasi-ning yonida egarlangan ot tayyor turardi... Xunlar ot ustida yeyishar, ichishar, savdo-sotiq qilishar, suhbatlashar va uxlashar edi. Ot va boshqa qavmlarni faqatgina ustida olib yurar, lekin xunlar otning ustida hayot kechirishardi” [Древные авторы о Средней Азии 1940, 75].

“Go’ro’g’lining tug’ilishi” dostonida go’rda tug’ilgan chaqaloqning jinsini aniqlash uchun egardan foydalaniladi. “Sinab bilayin, shu bola o’g’ilmikin, qizmikim”, deb egar bilan uch oshiqni bir yoqqa qo’ydi. Ikki qo’g’irchoq bilan ro’molni go’rning bir yog’iga qo’ydi. Poylab yotdi. Go’ro’g’li... egarni minib, “chuv-ha, chuv-ha, ot qo’y, qaytma, boxabar bo’linglar”, – deb egarni asta-asta qimirlatib, go’rdan ancha uzoqlab ketdi” [Po’lkan shoir 1967, 54].

Ot ota-bobolarimizning to’yida ham, azasida ham birga bo’lgan. Kelinni chiroyli qilib bezatilgan otda olib kelish, ot hadya qilish odati hali hanuz yo’qolgani yo’q. Janoza marosimida bir o’zni dumi kesilgan yo bog’langan holatda olib kelinishi, hatto jangchi o’lsa, uni egar-jabduqli oti bilan birga ko’mish udumi ajdodlarimiz o’tmishida mavjud bo’lgan. Binobarin, Bo’zqir-turk qavmlariga oid qabristonlardan, Osiyo-Xun imperatorligiga oid qo’rg’onlardan, O’rta Osiyoda olib borilgan qazilma ishlari davomida juda ko’p ot suyaklarining topilishi ham bejiz emas. Umuman, ot boshqa hayvonlardan egasiga sodiqligi, aqlliligi va nihoyat, o’zining noyob xislatlari bilan ajralib turadi. Masalan, ot ko’z qorachig’ining naqadar qimmatli ekanligini usta xattotlarga bilishadi. Gap shundaki, otning ko’z qorachig’i solib tayyorlangan bo’yoq bilan yozilgan yozuv yaltiroqligi, ko’rimliligi va nafisligi bilan ajralib turadi. Bunday yozuv uzoq

muddat aslini yo'qotmaydi. Umar Hayyom "Navro'znoma" sida yoza-
di: "Aytadilarki, to'rt oyoqlilar ichida otdan yaxshisi yo'q, u o'tlovchi
to'rt oyoqlilarning podshohidir. Rasul alayhissalom: "Xayr yilqining
peshonasiga yozilgan", deganlar. Kayxusrav: "Mening podshohligim-
da otdan qimmatliroq narsa yo'q". Nasr bin Sayyor "Ot jang taxti va
qurolining gulidir", – degan" [Umar Xayyom 1989, 18].

Qadimdan O'rta Osiyo eng ko'p ot yetishtirilgan hudud
bo'lgan. 1246-yili O'rta Osiyoni kezib chiqqan sayyoh Plano Garpi-
ni quyidagilarni e'tirof etadi: "Hayvonlarning ko'pligi jihatidan ular
(O'rta Osiyoda yashagan xalqlar. – A.T.) nihoyatda boy insonlardir;
tuya, sigir va echkilari bor. Otlarga kelsak, shu qadar ko'pki, dunyo-
ning qolgan qismida shunchalar ot bo'lmasa kerak" [Kafeso'g'li 1988:
40]. Miloddan oldingi 49-yilda bir xun oilasining o'n ming bosh hay-
voni va yetti ming oti, milodiy 83-yilda boshqa bir oilaning yuz o'n
mingta qo'y va sigirlariga muqobil yigirma ming oti bo'lgan. Ko'k
turklar va beklarning yilqilari esa, hadsiz-hisobsiz edi, deya qayd eti-
ladi tarixiy manbalarda. Bu otlar sonlarining ko'pligi bilangina emas,
asosan, nasldorligi, tez yugurishi va chidamliligi bilan ham mashhur
bo'lgan. Chunonchi, ot ajdodlarimizning iqtisodini ta'minlovchi aso-
siy tijorat moli ham hisoblangan. Ular qo'shni davlatlarga, chet el-
larga ot yetkazib turishgan. Xorijda tarqalgan O'rta Osiyo naslli otlar
turkiylarning shuhratini dunyoga tanitgan. 1800-yilda Xivaga kel-
gan bir rus sayyohi o'z xotiralarida quyidagilarni yozadi: "Xivadalik
davrimda menga u yerdagi arg'umoqlar juda ham yoqib qolgan edi.
Ularning asosiy yemishlari jo'xori bo'lib, nisbatan kamtomoq va to'rt
kunlik yo'lni oziqlanmasdan bosishlari mumkin. Ular faqat minishga
moslashgan bo'lib, bo'yi basti katta otday, ingichka, tik qomatli, iyak-
dor, yengil... Bir pud jo'xori arg'umoqning o'n kunlik yemishi bo'lib,
uning bahosi 70 tiyin. Arg'umoqlarni Xivaga turkmanlar yetkazib
turishadi va ularni faqat turkman egarlari bilan minadilar. Qirg'iz
va bizning kazak egarlari to'g'ri kelmaydi. Arg'umoq tez yugurganda
xuddi quyonga o'xshab bor gavdasi bilan cho'ziladi. Va bizning eng
chopag'on rus otlaridan ikki marta tez yuguradi; ular yuvosh va aqlli
bo'lib, daryolardan dadil suzib o'tadilar, vafodor va uyurlarda qo'lga
tez o'rganadilar. Bu yerlarda bir arg'umoq uchun yuz so'm va undan
ham ortiq haq to'laydilar" [Поездка торговца Абрасимова в Хиву.
1860, 96].

Ma'lumki, bizning turkiy xalqlar har qanday sharoitda ham
o'zining azaliy, nodir san'ati, hunari, an'analarini saqlab qolishga
intilgan va ko'pincha bunga erishgan ham. Jumladan, ajdodlarimiz
ot tarbiyalash san'ati yalovini hech qachon qo'lidan tushirgan emas.

Abbosiy xalifalaridan Mu'tasim, Vosiq va Mutavakkil zamonlarida (840-860) arab davlati idorasidagi turk qo'shinlarining soni ham ko'pchilikni tashkil etardi. Xalifalar ayni paytda otlarni tarbiyalash ishini turklarga topshirib qo'yishgan. Ota-bobolarimiz Islom dinini qabul qilgandan keyin o'zlari ot minish, tarbiyalash san'atini ham Yaqin Sharqqa olib kirdilar. Bu davrda "Aspi turk" (Turk oti) juda mashhur bo'lgan. Muarrix Usmon Turon "turk ot madaniyati" bilan birga ig'dig' (bichish), yalg'iz (qorato'riq), uloq, yom, yombi, yilqi kabi so'zlarning arab va fors tillariga o'tganligini qayd etadi [Turkiy xalqlar mafkurasi 1997, 92].

Shu o'rinda otning bizning lug'at boyligimizga ham katta "his-sa qo'shganligini" alohida ta'kidlash joiz. Darhaqiqat, tilimizda ot bilan bog'liq ko'plab so'zlar mavjud. Ularning ma'nosi faqat ayrim gu-ruh orasidagina ma'lum. Buyuk tilshunos olim Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'otit turk" asarida otga aloqador yuzdan oshiq so'zlar-ni izohini beradi [Tilavov 2021, 15-21].

Shu o'rinda "ot" so'zining etimologiyasi haqida. "Ot so'zi" ba'zi mo'g'ulshunos olimlar tomonidan mo'g'ulcha deya aytiladi va bu fikr ancha e'tirozlarga yo'l ochdi.

Ibrohim Kafeso'g'li "O'rxun yodnomalari"da Kultegin mingan otlar nomlari bilan berilganligi va o'sha paytlardan beri tilimizda "OT" deb aytib kelayotganimiz so'zning asli Osiyo xunlarining qo'lga o'rgatilgan hayvon jinsidan bahs etgan; miloddan avvalgi Xitoy man-basi "Shichti"da aytib o'tilgan "khit-ti" yoki "Khiai-thi" bo'lishi kerak-li va manba bu x u n c h a (ta'kid bizdan – A.T.) bo'lib, "hamisha kat-ta bir kuch bilan sapchishga, otilishga xohishli" (fuul of mettle with a great power leaping) degan ma'noni anglatishini aytadi. Tarixchi olim o'z fikrini quyidagicha asoslashga harakat qiladi: "Turkchada "ot" so'zidan yasaluvchi otim (atim), hatlamoq (atlamak), otmoq (at-mak) va boshqa so'zlarda ayni ma'no hozirgacha saqlanib qolgan. "Ot" so'zining mo'g'ulcha "akhta" (akxta) so'zi bilan aloqasi yo'q...".

Olimning fikrlari mantiqan to'g'ri va voqyelikdan uzoq emas, bizningcha. Chunki, ot (hayvon – A.T.) ko'pincha sapchishga, otilish-ga shay holatda ko'rinadi. Otlarning bu holati, ayniqsa, dostonlarda zo'r badiiy mahorat bilan tasvirlangan; "yulduzni ko'zlagan", "ko'kka qarab intilgan", "uchishga shay qush" deya ta'riflanishi otlardagi o'sha tabiiy xususiyatlarni namoyon etadi. Qolaversa, o'zbek tilida-gi "otmoq", "otilmoq", "hatlamoq" so'zlarida ham yuqoridagi ma'no saqlangan.

"Yont" – "yo'nt" so'zi ham qadimgi turkchada bir ot jinsi va ot suruvlarini ifoda etgan so'zdir. Bu so'z Onado'lida joy nomlari-

ga nisbatan qo'llanilganda "yunt" shaklini olgan. O'g'iz qabilalaridan birining nomi "Ala yo'ntlyg'" bo'lgan. M.Koshg'ariyda bu nom biroz o'zgargan shaklda, ya'ni "Ula-yo'ndlug'" tarzda keladi. Tadqiqotchi B.O'gal devonda bu nomning yanglish yozilganligini aytadi. "Koshg'ariy davrida, - deydi olim, - bu so'zning "Ala yo'ndlug' / Ala yuntlug'" shaklda qo'llanilganiga hech shubha yo'q" [Ўгал 347-348]. Bizningcha, B.O'galning bu mulohazasi bir muncha izohtalabdir.

Ko'k turk va uyg'urlardagi "o'n ikki hayvonli" turk taqvimida bir yilning "ot" ma'nosidagi "yo'nd" bo'lishi xarakterlidir. Bundan tashqari, Onado'lidagi bir necha joy nomlarida ham ayni ma'noni ifodalagan so'zning saqlab qolingani guvoh bo'ldik: Yo'nd tog'i (Koniya), "Yo'nd qishlog'i" (Edirna).

Ma'lumki, tilimizda ot suruviga nisbatan "yilqi" so'zi qo'llaniladi. Dostonlarimizda ham bu so'z ana shu ma'noda keladi:

Yilqi ichinda o'zi kelgan sinlidir,

To'bishqon tuyoqli, marol bellidir.

(“Alpomish” dostonidan).

Radlov "yilqi" so'zining asl ma'nosining "jonli hayvon" ekanligini qayd etadi. Ko'k turk yozuv yodnomalarida ham yilqining, umuman hayvonlar uchun ishlatilganligini ko'ramiz. Ba'zan "to'rt adaqliq - yilqim" deyish bilan suruvning hayvon bo'lganligi aytmoqchi bo'lingan. Qadimgi turkiylar o'z mulki hisoblangan hayvonlarga tamg'a urishgan. Shu sababdan bo'lsa kerak, Ko'k turk yodnomalarida "tamg'aliq yilqi" ifodasini uchratamiz. "Dada Qo'rquq kitobi"da ham "ylqi" so'zi faqatgina ot suruvi uchun qo'llanilgan: "... yurib-yurib kofirning ылqisiga duch keldi. Bir ot topsam tutib minayin, - dedi".

"Otli ko'chmanchilik madaniyati", jumladan, ko'pincha ot ustida yurish, doimiy harakat ot eti va sutini iste'mol qilish, O'rta Osiyo aholisining sog'ligiga ham ijobiy ta'sir etgan. O'tgan asrning o'rtalarida bu "otli ko'chmanchi"larning orasida kezgan V.Radlov, afyunning ularga deyarli zarar ko'rsatmasligini ko'rib hayratga tushgan. "Afyun chekkan xitoyliklar o'sha zahoti turgan joyida cho'kib o'larkan, ko'chmanchilarda afyundan o'lgan kishi yo'q edi", deydi olim [Bahouddin 1991, 71]. Ot ajdodlarimiz tarixida faqatgina oddiy ulov emas, eng yaxshi jang quroli ham edi. Ot tufayli turk xoqonlari hududlarini kengaytirdilar, zafarlarga erishdilar. Zero, azaldan ajdodlarimizning siyosiy tashkiloti va qo'shin qobiliyati boshqa qavmlardan ustun edi. Chunki ular birinchi bo'lib otdan muhoraba (jang) vositasi o'laroq foydalandilar va hatto jahon hokimiyati da'vosida bo'ldilar. Ot ustida jang qilish, "chavandoz qiyofati" deb nom olgan kiyimlar ham ajdod-

larimizning ijodidir. Tarixiy manbalar O'rta Osiyo ayollarining otjang qilish san'atini yaxshi egallaganliklaridan xabar bermoqda.

Otning ajdodlarimiz uchun muhim jang quroli, eng yaqin yo'ldosh bo'lganligini, turkiy xalqlarning qadimgi yozma yodgorliklari ham isbotlamoqda. Bu yodnomalarda ot boqish, uning tarbiyasi, turk xoqonlarining zafar qozonishlarida otning yordami ta'kidlanadi. Jumladan, turk xoqoni Eltarishning kichik o'g'li Kultegin qabriga qo'yilgan bitikda ("O'rxun bitiklaridan) mingan otlar sifat-lari, nomlari alohida aytib o'tiladi. "(Kultegin – A.T.) eng avval Tadqan Churning Bo'z otini minib hujum qildi. U ot o'shanda o'ldi. Ikkinchi bor, Ishbara Yamtarning Bo'z otini minib hujum qildi, ot o'shanda o'ldi. Uchinchi bor yegan Selig bekning to'riq otini minib hujum qildi, u ot o'shanda o'ldi" [Qadimgi hikmatlar. 1987: 28].

Bu kabi harbiy yurishlarda Kulteginning Bayirqun, Al Shalchin, Azman, Ugsizlarning oq otini, Azning kulrang otini minganligi hikoya qilinadi.

E'tiborli tomoni shundaki, vafot etgan shaxs tilidan, yaqin qarindoshlarining keyingi avlodga iztirob, achinish bilan aytgan gaplarida o'sha shaxs otlaridan ayrilganligi eslatiladi:

Menga qaraydigan Aguk Qatun
yerimdan ayrildim.
Tangrili davlatimdan, o'g'illarimdan,
qizlarimdan,
olti ming yilqimdan ayrildim.
Xoqonimning tulpori, qora xalqi,
mashhur qahramonlarim,
...qiz-kelinlarim (dan) ayrildim.
(Uyuq Turan yodnomasi, 41).

Qadimgi turklar mashhur otlarda qanot borligi, binobarin bunday otlarning uchishiga ishonishgan. Eligeshdan topilgan yodnomada ham (yenisey bitiklari):

Uchar otlarimdan ayrilib,
Qora xalqimni yo'qotdim, yo'qolib
ketdim men, – deyiladi (42-bet).

Qadimgi turk davriga oid qog'ozga yozilgan yagona, nodir yodgorlik hisoblangan "Irq bitigi" (Ta'birnoma)da ot bilan bog'liq ishonch-e'tiqodlarning, mifologik tushunchalarning ifodasini ko'ramiz. Bir misol:

Men chavkar¹ otli taqdir² tangrisiman,

¹Ya'ni ola otli.

²Ayn. yo'l.

Kunduz va kechqurun
(otni) yeldiraman.
U ikki oy oldin
Odam o'g'lini¹ uchratdi.
Odam qo'rqdi,
"Qo'rqma", dedi u.
Bilib qo'ying: bu – yaxshi.

(47-bet)

Turkiylar Ko'k – Tangrisining ham bir oti borligiga ishonishgan. Keltirilgan parchada ana shu qadimiy, botil e'tiqodning ta'siri sezilib turibdi.

Bitikda ot inson qadar aqlli jonzot, his-tuyg'uli tarzda tasvirlanadi:

So'qir toycha ayg'irlar orasida
Shifo izladi.
Kun o'rtasigacha bo'zladi,
Tun o'rtasigacha qon yig'ladi
Oq ot dushmanini
Uch avloddan ajratib
tavba qilishga va o'tinishga
majbur qildi, deyishadi...
Bilib qo'ying: bu – yaxshi. (50-bet).

Otning magik qudratga egaligi va uning qushlar bilan bog'liq holda tilga olinishini ot haqidagi qadimiy tushunchalarning bitikdagi ifodasi o'laroq qabul qilish kerak.

Men uyur uchun kuch beruvchi ayg'irman,
Yong'oq daraxti (bor manzil) – yozlik (joy)im,
Qushlar ko'p joy qishlik (joy)imdir,
O'sha yerda turib shodlanaman, – deydi,
Bilib qo'ying: bu – yaxshi. (52-bet).

Quyidagi parchalarda esa ajdodlarimizning nodir san'ati – ot tarbiyasiga o'ta hassoslik bilan e'tibor berish lozimligi uqtiriladi:

Otni noto'g'ri tushovladi,
Yurishga majoli yo'q deyishadi.
Bilib qo'ying: bu – yomon. (53-bet)
Semiz ot og'zi qattiq bo'ldi²,
Egasi uni parvarish qilishni
uddalay olmadi, der,

¹Inson.

²Ya'ni yeyishdan qoladi

Bilib qo'ying: bu – yomon. (58-bet).

Ajdodlarimiz tarixida otning tutgan o'rni, bu hayvonning turkiy xalqlar madaniyatiga ko'rsatgan ijobiy ta'siri haqidagi muhim ma'lumotlarni XI asrning buyuk filologi Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'otit turk" asarida beradi. V.M.Jirmunskiy va H.Zarifovlar to'g'ri ta'kidlaganlaridek, dasht xalqlari, jumladan, turkiy tilli xalqlarning tili otning turlari, yoshi, ranglari va hokazolarini ifodalovchi so'zlar-ga boy [Жирмунский, Зарифов 1947, 353].

Chunonchi, M.Koshg'ariy bu asarida ot bilan bog'liq turkiy so'zlar izohini berar ekan, tilimizning boyligini, shu bilan birga lug'at xazinamizga otning qo'shgan "hissasi"ni isbotlab beradi. Olim "**Ot turkning qanotidir**", "**Qush qanoti bilan, er oti bilan**"¹, "**Yayov kishining qiymati yo'qdir**" kabi maqollarni keltirib turk va otning bir-biriga naqadar yaqinligini va ota-bobolarimizning haqli g'urur va tuyg'ularini ko'rsatadi.

Mahmud Koshg'ariyning ma'lumot berishicha, ota-bobolarimiz otlarni maxsus joylarda tarbiyalashgan [Девону луғотит турк. 1967:]. Olim ajdodlarimizning otini tarbiyalashda yalang'och holatida ham minish mashqlari o'tkazilishini qayd etadi². Natijada, bunday otlar yugruk yoxud yugurgan, yorig'a, eshkin, erik kabi yugurish sifatlariga ega bo'ladi³.

Ot tanlashda avvalo uning zoti surishtiriladi. Devonda bu xusus ham e'tibordan chetda qolmagan.

Yugurdi kevel at,
Chaqildi qizil ot.
Kuyirgu arug at,
Sagrap анын о'rtенур⁴.

"Zotdor ot yugurganda tuyoqlari ostidan chiqarayotgan qizil olovdan quruq o'tgan yonadi).

Devonda ot bilan bog'liq she'riy parchalar ko'p uchraydi:

Qancha bo'lsang ey o'g'ul,
Erding munda tinch va mo'l.
Otdin endi uz ko'ngil,
Noloyiq ish aylading. T. 1, 104)
Uchqur otim sho'xliq qildi,
Sho'xlik qilar yerni ko'rdi.

² Qarang: Ot bo'ldi er yigitning qanoati,
Yugruk, minsa kimning kuchi yetadi ("Xoldorxon" dostonidan).

¹Devonu lug'otit turk, mundi.

² Qarang: "DLT". Югрук, јорига, эшкін, эрік.

³ "DLT". "Чакылды".

Ko'kni bosib bulut keldi,
Bahor seli o'ynab yog'di. (T. 1, 157)

Mahmud Koshg'ariy ot bilan bog'liq hikmatli so'zlarni ham keltiradi:

yetkur mening so'zimni olimlarga, hoy,
Baytal tinar otlarga
qo'shilganda toy. (T. 1, 214)
yetkar mening so'zimni olimlarga, hoy,
Tinar biya minilsa, ot bo'lganda toy. [T. III, 173]

Ot hadya etish – turkiy xalqlardagi juda qadimiy odatlardandir. Otni bir xonlik yo beklik ikkinchisiga eng maqbul sovg'a sifatida bergan. Masalan, Abbosiy xalifasi o'zining elchisi Ibn Attor orqali Xorazm shohi Jaloliddinga yuborgan hadyalari ichida butun anjomlari oltin bilan bezatilgan, tuyoqlariga qiymati 100 dinor bo'lgan qimmatbaho halqalar osilgan ikki ot, bundan tashqari ustida Rum (Vizantiya) yoping'ichi va zirxli yoping'ichlari bo'lgan o'ttiz ot, o'ttiz sayis bor edi. Olovuddin Kayqubodning esa Jaloliddinga yuz ot va ellik xachir yuborganligi ma'lum. "Dada Qo'rqut kitobi"da ham bu odat bilan bog'liq bir lavha bor [Абдуллаев 1995, 45] "Devonu lug'otit turk"da ajdodlarimizda mavjud bu odat "sing'ut", "yag'rilandi", "idx'ti", "artut" so'zlariga izoh berishda tilga olingan.

Ushbu asarda ot xastaliklarining nomi va ularni davolash yo'llari haqida qimmatli tavsiyalar berilgan. Devonda xastaliklar, jumladan, otda ko'ringan xastaliklarga nisbatan "ig" so'zi (T. 1, 48) qo'llanilgan. Keksa chavandozlar bilan suhbatlarda otdagi kasalliklarni ko'pincha dog'lash, qon olish, turli tog' giyohlari qo'yish bilan davolashganiga guvoh bo'lgan edik. Ayni davolash yo'llari haqida "Devon"da ham "dog'", "tog'ladi", "tog'latti", "chekdi", "chekturdi", "ang'do'z" so'zlarining izohida ma'lumot beriladi.

Ajdodlarimizning ot bilan bog'liq mifik tushunchalari "turk va ot" mavzuining muhim sahifasini tashkil etadi. Bu ma'lumotlar dostonlarimizdagi mifik ot obrazining ko'p jihatlarini yoritishda, mohiyatini tushuntirishda yaxshi yordam beradi.

Masalan, qabilasining otdan tarqalganligiga¹, qabilani shu hayvon qo'riqlashiga ishonganlar otning go'shtini yeyishmas, hatto uni cho'chitishmas, ozor berishmas, ardoqlashardi. Ularning ishonchiga ko'ra, kimki qabilasi uchun muqaddas sanalgan hayvonni hurmat qilmasa, o'ldirsa, uning boshiga katta falokatlar keladi².

¹Boshqird eposida bosh qahramon – Buzans botirni ot tuqqanligi haqida o'sha xalq rivoyati mavjud.

²Qiyoslang: "Mendan senga nasihat shuki, qayerda bo'lmagin: jangda bo'lasanmi,

Ma'lumki, qadim odatlarga ko'ra, qavmlar o'zlarini totemning nomi bilan atashgan, uning tunj, marmar va oddiy toshdan haykallarini yasashgan. Jumladan, turk qavmlaridan bo'lmish yoqutlar ham totem deb qabul qilgan hayvonni ism-sharif o'laroq qabul qilganlar. Binobarin, kimning qaysi qabiladan ekanligini osonlikcha ajratish mumkin bo'lgan.

Hodi Zarifov eramizdan ilgarigi ba'zi shaxslarning (masalan, Vishtasp – jangovar yoki asov ot sohibi, Aspanja – otboz) nomlarida “asp” (ot) so'zining borligini qayd etadilarki [Зарифов 77], fikrimizcha, bu ham ajdodlarimizdagi ot totemining izlaridandir. Shu o'rinda jumhuriyatimizdagi ba'zi joy nomlarida ham “ot” yoki “asp” so'zlarining borligini ta'kidlamoqchimiz:

Olot (aslida ola ot, Buxoro viloyatida)

Qo'ng'irot (qo'ng'ir ot, Surxondaryo vohasida, Qoraqalpog'iston Respublikasida)

Samandarak (Farg'ona viloyati, Bag'dod tumanidagi bir qishloq nomi)

Xazorasp (forscha “xazor” – ming, “asp” – ot, Xorazm viloyatidagi bir tuman)

To'rtayg'ir (Samarqand viloyati, Oqdaryo tumanidagi qishloq nomi).

O'rta Osiyo va Sibirda yashagan turkiylar totem deb bilganlari hayvonlarning, jumladan otning insonlarga yaxshilik keltirish bilan birga yomonlik ham keltirishi mumkinligiga ishongan, ya'ni ma'lum ma'noda otdan cho'chishgan ham. Shu sababli, ot kabi muqaddas sanalgan hayvonlarning suyaklari yoxud shakllari bir joyga to'planib, ulardan “yaxshilik” va shafqat so'ralgan. Biz kuzatishlarimiz davomida xalqimiz orasida “Otning o'ligiga ham ishonma, qochib ketadi”, “ot asli janoza uchun yaratilgan, shuning uchun qachon bir janoza chiqarkan-u, xabarini yetkazar ekanman, deb kutib turadi”¹, “ot o'lsa hamki, uning kalla suyagini bog'lab qo'y” kabi ot haqidagi

o'limda bo'lasanmi, qirq kunlik ochlikda qolasanmi, istasang chanqoqlikdan o'lib qol, uyqusizlikdan oyoqda turolmaydigan bo'l, ammo o'sha paytda o'zingni o'ylamasdan, o'zingga qaramasdan G'irotingga qaragin, uning har bir hojatini chiqar. Shundan keyingina o'zingga qaraysan. Nozikkina chaqaloqqa qaragan kabi qaragin unga, toki G'irotni senga uka bo'lsin, seni dunyo torliklaridan, azob-uqubatlaridan, hamma-hammasidan cening o'rtog'ing, aka-ukang emas, mana shu G'irotni qutqarajak. Buni hech qachon esingdan chiqarma. Va yana shuni bilib qo'yingki, G'irotni esingdan chiqarganing, unga e'tibor bermay qo'ygani kuni, unga bo'lgan sevging kamaygan kuni boshingga balo-ofatlarning eng kattasi keladi”. Go'ro'g'lining maydonga chiqiqshi / turk xalq dostoni. – Istanbul, 1990. – B. 48.

¹Otning xabarlashuv vositasi sifatida ham ahamiyati katta bo'lgan.

salbiy iboralar ham mavjudligiga guvoh bo'ldik. Ayni animistik tushunchani ifodalovchi bir sav (maqol)ni esa Mahmud Koshg'ariy ham keltiradi: "jung boshin jularlab kenilgi" – otning boshini qaynatgandan keyin yemoqchi bo'lsang, qochmasligi uchun unga avval no'xta solib bog'la, keyin yegin [Девону луғотит турк, 16-17].

"HAYVON – ONA" ishonchi ham ota-bobolarimiz orasida keng tarqalgan. Professor Abdulqodir Inon "Shomonizm" nomli asarda (Anqara, 1995) bu ishonchga "arvoh ishonchi" deya nom beradi. Ona – hayvon butun boshli qabilaning emas, bir kishining (shomonning – A.T.) ruhi edi. Bu ishonchga ko'ra, ruh – Ona – hayvon shomonga butun hayoti davomida yordam beradi. Bu ruh – hayvon "iye kыл" deb atalgan. Kimning Ona – hayvoni kichik, kuchsiz bo'lsa, bu kishining qabiladagi obro'si ham ancha past bo'lgan. Bir shomon katta bo'lgach, boshqa bir hayvonni Ona-hayvon o'laroq qabul qilardi. Biroq bu "o'zgarish" hayoti davomida uch martagina sodir etilishi mumkin edi.

Eng maqbul sanalgan "ko'rinmas Ona-hayvon ruhlar" **ayg'ir** (ta'kid bizdan – A.T.), buqa, kiyik va ayiq, yomonlari esa bo'ri va it edi [Мифы народов мира. 1980: 300]. Turk mifologiyasida kichik ayiq burji ikki ot, buyuk ayiq burji esa ularni quvgan yetti bo'ridir. Umuman, "конь играет важную роль во многих мифологических системах Евразии. Является атрибутом (или образом) ряда божеств. На коню передвигаются (по небу и из одной стихии или мира в другой), боги и герои. В индоевропейском близнецовом мифе в виде двух коней представлялись божественные Близнецы и связанные с ними – два мифологических представителя – родоначальники племени. Общим для индо-европейских народов является образ бога солнца на боевой колеснице, запряженной конями, причем само Солнце представляется в виде колеса" [Мифы народов мира 1980, 143].

Xulosa

Jumhuriyatimiz mustaqillikka erishgach, xalq qadriyatlariga bo'lgan munosabat, qolaversa "xalq hayotini qamrab olgan jonli, hayotiy bo'yoqlar bilan yoritilgan haqiqiy xalq tarixi"ni tuzib uni keng jamoatchilikka yetkazish masalasi davlat siyosati maqomida hal etilmoqda. Bunday tarix kitobining yuzaga kelishi uchun esa, tabiiyki, bir necha manbalarga ehtiyoj seziladi. Boy va qimmatli ma'naviy hazinamiz – o'zbek xalq ijodiyoti, ana shunday muhim, aytish mumkinki, birlamchi manbalardandir. Chunki bu asarlardagi "har bir jumla va tarixiy fakt tarix kitoblari sahifalarida ta'kidlanmagan u yoki

bu voqealarni eslatishi, ularni qayta tiklashga yordam berishi va eng muhimi ijodkor xalqning mavjud ijtimoiy-siyosiy tuzumga bo'lgan real munosabatini, dunyoqarashi va estetik ideallarini haqqoniy ochiq-oydin ko'rsatib berishi shubhasizdir". Chunonchi, bu ijod namunalari xalqimizning ishonch-e'tiqodlari, rasm-rusumlari, dunyoqarashi bilan mantiqan bog'lanib ketgan qadriyatlar o'z ifodasini topgan. Faqat ana shu javohirotni tizimli tarzda tadqiq etib keng jamoatchilikka ko'rsatish – ilmdagi, xususan, folklorshunoslikdagi dolzarb vazifalardan biri bo'lib kelmoqda. Maqolamizning yakunlovchi eng muhim xulosalarini quyidagicha bayon etishni ma'qul ko'rdik:

1. Turkiy xalqlar tarixini otsiz tasavvur qilish mumkin emas. Chunonchi, tarixchilar "otli cho'pon" yoki "ko'chmanchi otli madaniyat" deb ataluvchi madaniyatning paydo bo'lishi va otning ilk bora qo'lga o'rgatilishini bizning ajdodlarimizga bog'lash mumkinligini e'tirof etishmoqda.

2. Ot bilan bog'liq to'plaganimiz ashyoviy dalillar – qabrtoshlardagi ot suratlari, ot haykallari, qoya toshlardagi ot rasmlari, Oltoy hududidan topilgan; turkiylarga oid eng qadimiy ashyo deb hisoblanayotgan gilamdagi ot tasvirlari, xalqimiz orasida hozirgacha yashab kelayotgan ot bilan bog'liq inonchlar otning totem hayvon sifatida alohida o'rni borligini tasdiqlaydi. Yana ma'lum bo'ldiki, birorta totem hayvon tushunchasi xalq hayotidan tasodifan o'rin olmaydi. Totem sifatida ulug'langan hayvonlar albatta o'zidagi bir necha xislatlari bilan insondan ustun yoxud insonning eng yaqin yordamchisi hisoblangan. Binobarin, otning aqlliligi, sezgirligi, uzoq masofani yaqin qilishi kabi xislatlari ota-bobolarimiz tomonidan bu hayvonning muqaddaslashtirilishiga va e'zozlanishiga asos bo'lgan. Ot bilan bog'liq topilmalar ajdodlarimizning otga bo'lgan ana shu hurmat va e'zozini tasdiqlash barobarida, ularning yuksak madaniyat va nafis san'at sohibi bo'lganliklarini namoyon qilmoqda.

3. O'zbek xalq dostonlaridagi ot obrazining tarixiy va hayotiy asoslarini tahlil etish, bu obrazning badiiy jihatdan mukammal ishlaganligini aniqlashtirish uchun ot bilan bog'liq topilmalar, shu bilan birga turkiylar tarixida otning tutgan o'rni, mifologik dunyoqarash va ot, qadimiy bitiklarda ot, ot haqida ajdodlarimiz yozib qoldirgan asarlar – "baytarnoma"larda ot kabi masalalarga imkon doirasida oydinlik kiritildi.

4. Tarixiy obidalarda totem o'laroq madh etilgan ot ko'p jihatdan hayotiy zamanga ega bo'lgan, bu hayvon bilan bog'liq hikoya, rivoyat va afsonalar bilan tasdiqlanishi lozim edi. Chunonchi, mavzu yuzasidan yaqin o'n yil davomida o'lkamizning turli viloyatlaridan

va qardosh xalqlardan yiqqanimiz ot bilan bog'liq ilk qarashda afsonanamo, biroq hayotiy hikoyalarning, termalarning ayni paytda ham ommaviy tarzda yashab kelayotganligini tabiiy hodisa deb qabul qilish lozim.

5. Yuqorida qayd etilgan xulosalar otning xalq baxshisi tomonidan sevib kuylanishi, dostonga kirishi uchun tarixiy zarurat va hayotiy zaminni yuzaga keltirgandir.

Adabiyotlar

- Зарифов Х.Т. 1967. "Ўзбек халқ дostonларининг тарихий асослари бўйича текширишлар: Жанговар отнинг қадимий асосларига доир". *Ўзбек халқ оғзаки ижоди бўйича тадқиқотлар. 4-китоб Пўлкан шоир*. Тошкент: Фан.
- Мирзаев Т. 1968. "Алпомиш" дostonининг ўзбек вариантлари. Тошкент: Фан.
- Саидов М. 1970. *Ўзбек халқ дostonчилигида бадиий маҳорат*. Тошкент: Фан.
- Саримсоқов Б. 1982. "Эпик жанрлар диффузияси". *Ўзбек фольклорининг эпик жанрлари*. Тошкент: Фан.
- Древние авторы о Средней Азии*. 1940. Ташкент: Фан.
- Гўрўғлининг туғилиши*. 1967. Айтувчи: Пўлкан шоир. Ташкент: Фан.
- Умар, Ҳайём. 1989. *Наврўзнама*. Ташкент: Меҳнат.
- Кафесўғли И. 1988. *Турк миллий маданияти*. Истанбул.
- Поездка торговца Абрасимова в Хиву. 1860. Санкт-Петербург.
- Тилавов А. 2021. *От образи: тарих, таҳлил ва талқин*. Тошкент: Sapostandart.
- Баҳоуддин Ўгал. 1991. *Турк маданияти тарихига кириш*. 1-жилд. Анқара.
- Қадимги ҳикматлар*. 1987. Тошкент: Фан.
- Жирмунский В.М., Зарифов Х. 1947. *Узбекский народный героический эпос*. Москва: Наука.
- Девону луғотит турк*. 1967. Индекс-луғат. Тошкент: Фан.
- Абдуллаев Р. 1995. "Асл тулпорлар". *Ўзбекистон адабиёти ва санъати*. 1 сентябрь.
- Аҳмедов Б. 1992. *Ўзбек улуси*. Тошкент: Фан.
- Мифы народов мира*. 1980. Москва: Наука.

Historical foundations of the epic horse image

Abdumurod Tilavov¹

Abstract

The article provides a gradual presentation of the historical works that led to the artistically perfect depiction of the epic horse in the epics. The place of the horse in the history of the Turkic peoples, the confessions of historians in this regard, the findings of the horse in ancient manuscript sources, in short, the ideology of the Turkic peoples is compared with the image of a war horse in the epics.

As characteristic of the war horses described in folk epics, they appear to be the most perfect of the natural horses, as well as the horse features expressed in mythological and totemistic beliefs. In this respect it was understood that the war horses in the epics must be directly or indirectly dependent on water horses and celestial horses in order to be true tulpars.

In this article, we will take a closer look at the natural, religious beliefs and views that underlie the creation of the epic horse image in folk epics.

The article also includes “nomadic mavaniyer”, “animal-mother” traditions and beliefs, “Devonu lug'otut-turk” and commentary on Turkish words related to the horse, analysis of the image of the horse in the Karvash folk epics and interpretations took place.

Key words: *epic horse image, Turkish mythology, history, written monuments.*

References

- Zarifov H.T. 1967. “O‘zbek xalq dostonlarining tarixiy asoslari bo‘yicha tekshirishlar: Jangovar otning qadimiy asoslariga doir”. *O‘zbek xalq og‘zaki ijodi bo‘yicha tadqiqotlar. 4-kitob Po‘lkan shoir*. Toshkent: Fan.
- Mirzaev T. 1968. “*Alpomish*” dostonining o‘zbek variantlari. Toshkent: Fan.
- Saidov M. 1970. *O‘zbek xalq dostonchiligida badiiy mahorat*. Toshkent: Fan.
- Sarimsoqov B. 1982. “Epik janrlar diffuziyasi”. *O‘zbek folklorining epik*

¹ *Abdumurod X. Tilavov* – Candidate of Philological Sciences, Associate Professor, Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.

E-mail: a.tilavov@mail.ru

ORCID ID: 0000-0003-2428-7547

For citation: Tilavov, A.X. 2022. “Historical foundations of the epic horse image”. *Uzbekistan: Language and Culture* 1 (2): 76-91.

- janrlari*. Toshkent: Fan.
- Drevnie avtorii o Sredney Azii*. 1940. Tashkent: Fan.
- Go'ro'g'lining tug'ilishi*. 1967. Aytuvchi: Po'lkani shoir. Tashkent: Fan.
- Umar, Hayyom. 1989. *Navro'znoma*. Tashkent: Mehnat.
- Kafeso'g'li I. 1988. *Turk milliy madaniyati*. Istanbul.
- Poezdka trgovsa Abrasimova v Xivu*. 1860. Sankt-Peterburg.
- Tilavov A. 2021. *Ot obrazi: tarix, tahlil va talqin*. Toshkent: Sano-standart.
- Bahouddin O'gal. 1991. *Turk madaniyati tarixiga kirish*. 1-jild. Anqara.
- Qadimgi hikmatlar*. 1987. Toshkent: Fan.
- Jirmunskiy V.M., Zarifov X. 1947. *Uzbekskiy narodnyy geroicheskiy epos*. Moskva: Nauka.
- Devonu lug'otit turk*. 1967. Indeks-lug'at. Toshkent: Fan.
- Abdullaev R. 1995. "Asl tulporlar". *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*. 1 sentyabr.
- Ahmedov B. 1992. *O'zbek ulusi*. Toshkent: Fan.
- Mifly narodov mira*. 1980. Moskva: Nauka.

ZAMONAVIY ADABIYOT MUAMMOLARI

Badiiy asarda sarlavha poetikasi

Umida Rasulova¹

Abstrakt

Mazkur maqolada badiiy asar strukturasi sarlavhaning ahamiyati xususida mulohaza yuritiladi. Asar sarlavhasida muallif g'oyaviy, estetik qarashlarining namoyon bo'lishi yoritiladi. Ma'no nuqtalarining yaxlitlik kasb etishi mohiyatni aniq-ravshan anglatish imkonini berib, asar estetik quvvatini oshiradi. Sarlavhada tabiatdagi unsurlar nomi vositasida ramziylik, ishoraviylik ortib boradi. Badiiy muloqotga kirishayotgan san'atkor kitobxonga ma'lum axborot, yangilikni yetkazibgina qolmay, uni ijodiy yondashuvga chorlashi darkor.

Tarkibdagi ilk semiotik markaz sarlavha bo'lib, unda muallif g'oyasi, konsepsiyasi jo bo'ladi. Sarlavha ilk taassurot, muallif hamda kitobxonning ruhiy muloqoti debochasi. San'atkorlar borlig'i, iste'dodi, ijodiy niyatini baholash shu lahzadan boshlanadi. "Yur, tog'larga ketamiz", "Qoyalar ham yig'laydi", "Saodat sohili" kabi qissalar maskan nomi bilan quvvatlanadi. Makon tasviri estetik zavq beribgina qolmay, shu maskan bilan bog'liq asosiy voqea, kalitga ishora beradi.

Ilk jumla muloqotning ibtidosi, qahramon hamda kitobxonning g'aybona uchrashuvi, kompozitsion sathning muhim belgisi. Keyingi holatu vaziyat, dialogu monolog debochasi. Mavzu, muammolar borasidagi ilk taassurot, bu keyingi bosqichga ko'tarilish, faollikni jadallashtirish jarayoni. Qissada epigraf poetik mazmunni umumlashtirish, badiiy niyatni uqishda muhim sanaladi. Muallif yoritayotgan masalaga doir zarur ko'chirma (she'r, hikmat, maqol, hadis kabi)ni kiritib, g'oyaviy, hissiy salmoqdorlikni oshiradi. U asosiy ma'noni o'zida jo aylagani, qahramon holatini asoslashi, fikrni tasdiqlashi bilan e'tiborni tortadi.

Kalit so'zlar: *nasr, sarlavha, matn, tarkib, qissa, roman, talqin.*

Kirish

Har bir ijodkor sarlavha orqali asarda yoritiladigan mavzu,

¹Rasulova Umida Yo'ldosh – filologiya fanlari doktori, Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: rasulovaumida12@gmail.com

ORCID ID: 0000-9762-4407

Iqtibos uchun: Rasulova U. 2022. "Badiiy asarda sarlavha poetikasi". *O'zbekiston: til va madaniyat* 1(2): 92-99.

ifodalanadigan tuyg'ularini kitobxonga ma'lum qilishga intiladi, shu fursatdan ular orasidagi muloqot jonlanib boradi. Asar tarkibidagi ilk semiotik markaz sarlavha bo'lib, unda muallif g'oyasi, konsepsiyasi jo bo'ladi. Sarlavha ilk taassurot, muallif hamda kitobxonning ruhiy muloqoti debochasi. San'atkorlar borlig'i, iste'dodi, ijodiy niyatini baholash shu lahzadan boshlanadi.

“Sarlavha asar predmeti topilishida muhim ochqich, kalit. U asar turi va aniqlanadigan struktura bilan uzviy bog'liq” [Feller.1981, 87].

Qissalar sarlavhasini kuzatganda tabiat unsurlari bilan bog'liq nomlar kuzatiladi. “Bahor qaytmaydi”, “Yozning yolg'iz yodgori” kabi asarlarga fasllar bilan bog'liq sarlavha belgilanadi. Alisher Navoiy kishi umrini fasllarga mengzab, yaxlit badiiy polotnoda buning hikmatini anglatgani ma'lum. Mazkur qissalar tarkibi ham ramziy ma'no zamirida qahramon qismatiga urg'u berilgani, turli sinoatlar imkonu sababdan bahs yuritganini asoslaydi. Inson umridagi muhim lavha, o'zgarish, burilish ma'lum vaqtda sodir bo'lib, xosiyati, oqibati bilan badiiy niyatni oydinlashtirishi mumkin.

“Yur, tog'larga ketamiz”, “Qoyalar ham yig'laydi”, “Saodat sohili” kabi qissalar maskan nomi bilan quvvatlanadi. Makon tasviri estetik zavq beribgina qolmay, shu maskan bilan bog'liq asosiy voqea, kalitga ishora beradi. Tog' viqori, qoya salobati, sohil halovati te-grasiga bosh qahramon istagi, orzusi, armoni muvofiqlashib borishi kutiladi. Bu nomlar kurrai zamindagi yaratilgan mohiyatini uqishga, yashirin mantiqiy tizimni kashf etishga undaydi.

“Jayhun ustida bulutlar”, “Yulduzlar mangu yonadi”, “Oydinda yurgan odamlar” sarlavhasi badiiy tafakkurda samo jismlari manzarasini jonlantiradi. Bulut, yulduz, oy kabi metaforik ifoda sirli-lik, g'ayri oddiylik hissini paydo qiladi. Masalan, oydin – yorug'lik, nurafshonlik belgisi. Odamlarning oyga bog'liqligi, u bilan birligida sinoat mavjud. Muallif oyning yog'dusida tasvirlayotgan kishilar siy-rati, tabiati, pokligi, ezguligi bois yuksaklikka ko'tarayotgandir. Inson zaminiy makondan yuksakka evrilishida tasavvur qudrati namoyon bo'ladi. Qissalarda olamdagi tartibot nizamga bo'ysundirilganlar qismatidagi mo'jaz tilsimlar zuhurlanib boradi.

“Sarlavha muallif tomonidan shunchaki tanlanmaydi, uni vaziyat, maqsad, sharoit, emotsiya (hissiyot) yo mushohadaga yo'nalgan fikrlash doirasi taqozo etadi” [Feller.1981, 90].

Sarlavha asardagi asosiy ma'no qatlamiga ishora berib, muallif bilan kitobxonning ichki muloqotini jadallashtiradi. Unda borliqdagi nabotot, hayvonot, osmondagi jismlar nomi keltirilib, tasvi-

riylik, ifodaviylik darajasini orttiradi.

“Ovul oralagan bo‘ri”, “Ot kishnagan oqshom”, “Ena bo‘ri”, “Uvlayotgan it” kabi asarlarda hayvon nomlari aks ettiriladi. Bular obraz shaklida taqdim etilib, vafo, sadoqati insoniy fazilatga parallel yo kontrast beriladi. Qissalar poetikasida turli hudud, iqlim, sharoit ke-simida ongli hamda ongsiz mavjudotlar hayot tarzi namoyon bo‘ladi. Hayvonlar tasvirida mifologik elementlar, totemistik qarashlar qo-rishib boradi. Kishilik olamidagi qonuniyatlar silsilasida jonzotlar o‘rni, vazifasi ham tushunib boriladi.

Endi muayyan qissalarda ilk jumla masalasiga ahamiyat qaratamiz.

“Saodat sohili” asarida “Usta Binoqul, qani turing, shom tushmay, huv dovonga yetib olaylik!” deya beriladi [Sultonov 1983, 159].

Birinchi jumlada vaqt (shom) hamda makon (dovon) tasvi-ri aniq keltirilib, safar, yo‘l tadorigi motividan voqif etiladi. Voqeani rivojlantirishda shom oraliq dam-kechga ishorani anglatayotgani, kengroq qaraganda umrga mengzash, zarur ishni bitirishga oshiqish anglashiladi. Dovon maqsadga erishishdagi aniq mo‘ljal, u iroda, sabr yanglig‘ qabul qilinib, olis manzil mashaqqatini, psixologik omi-lini belgilaydi.

“Quyosh qaerdadir tog‘ ortidan, qaerdadir cho‘l adog‘idan, qaerdadir asriy muzlar orasidan bosh ko‘taradi” deya boshlanadi” [Tohir Malik 1989, 3].

Jumlada shamsning kurrai zaminning turli maskaniga nur taratishi obrazli ifodalanadi. Qaerdadir gumon olmoshi uch hudud: tog‘, cho‘l, muzlik sathidagi tadriylanishga e‘tiborni tortadi. Ma‘lumki, quyosh yorug‘lik, issiqlik manbai bo‘lib, uning taftidan bahramandlik hammaga bir xil nasib etmaydi. Badiiy asarda quyosh baxt, shodlik ulashish, ruhiyatga epkinlik bag‘ishlash ma‘nosida qo‘llanar ekan, bu ne‘matga sazovorlik yoxud mahrumlik borasida mushohada yuri-tishga to‘g‘ri keladi.

“Otoyining tug‘ilgan yili” qissasi “Mashrabning oti nega Mash-rab? Ona qornida yig‘lagani uchunmi?” jumalari so‘roq ohangida berilib, tarixiy shaxs nomi yodga olingani bilan ahamiyatli” [O‘ktam A‘zam. 2002, 6].

Murg‘ak vujudning volida jismidagi yig‘isida qanday hikmat mujassamligini bilish dushvor. Mashrab ismi yodga olinishida shoir siyratidagi haqiqatparastik, ma‘rifatga oshuftalik xislatlari nazarda tutiladi. Bu g‘ayrushuuriy, noodatiy fitratli go‘dak qismati kitobxonni o‘yga toldiradi.

“O‘n sakkizga kirmagan men bor” qissasi “Kun bo‘yi osmonning zardasi bosilmadi” satri bilan boshlanadi [Qo‘chqor Norqobil 2004, 90].

Tasvirdagi samo holatida xavotir hissi yetakchilik qiladi. Zarda bulut, momaqaldiroq kabi tabiiy hodisotga urg‘u berib, tasvir zamiriga zulmat tushunchasini biriktiradi. Kishi fitratidagi zarda osmonga nisbat berilishida ma‘lum ishora sezilib, bo‘lajak voqea oqibatidan ogoh etadi.

Ilk jumla muloqotning ibtidosi, qahramon hamda kitobxonning g‘aybona uchrashuvi, kompozitsion sathning muhim belgisi. Keyingi holatu vaziyat, dialogu monolog debochasi. Mavzu, muammolar borasidagi ilk taassurot, bu keyingi bosqichga ko‘tarilish, faollikni jadallashtirish jarayoni.

Qissada epigraf poetik mazmuni umumlashtirish, badiiy niyatni uqishda muhim sanaladi. Muallif yoritayotgan masalaga doir zarur ko‘chirma (she‘r, hikmat, maqol, hadis kabi)ni kiritib, g‘oyaviy, hissiy salmoqdorlikni oshiradi. U asosiy ma‘noni o‘zida jo aylagani, qahramon holatini asoslashi, fikrni tasdiqlashi bilan e‘tiborni tortadi.

“Yolg‘onchi farishtalar” qissasidagi epigraf quyidagicha:

Koinot gultoji insondir azal,
Undadir eng oliy tafakkur, amal.
U hatto tubanlik ichra ham tanho,
Yo falak, ijoding buncha mukammal [Oripov 1983, 3].

Ne‘mat Aminov asarida moddiyat hamda ma‘naviyat tushunchasiga monand she‘r ikki qutbni izohlaydi. Olamdagi darajalanish nuqtai nazaridan odam tafakkuri ila yuksalib boradi. Afsuski, nafs qutqusiga oshnolik kishini zabuni xor aylab, tanazzulga ro‘baro‘ qiladi. Ko‘rinadiki, mezonni asrash murakkab, dushvor, bunga erishish sabru qanoatni talab etadi. Koinot, falakning kichik zarrasi, bo‘lagi inson fitrati murakkab bo‘lib, undagi ezgulik hamda yovuzlik, olijanoblik va tubanlik aro ziddiyat barham topmagan. Adib ojiz insonning a‘moli borasidagi mushohadasini shu misralar bilan to‘ldirib boradi.

“Yolg‘izlik” qissasidagi she‘r shaklidagi epigraf muallif niyatini tiniqlashtiradi:

Parcha-parcha bo‘ldim qaydasan?
Yuragimda jarlik, qaydasan,
Qulab tushmoqdaman, qaydasan?
Yolg‘izligim zo‘rlik, qaydasan,
Parcha-parcha bo‘ldim, qaydasan? [Ulug‘bek Hamdam. 2010,

10].

Ulug'bek Hamdam kishi tiynatidagi ruhiy po'rtanalarni obrazli tasvirlab, botindagi g'alayonni bo'rttirib boradi. Qahramon ichki olami, yuragi tubidagi armonga malham izlab bo'zlaydi. Vujud sokin ko'rinsa ham ruhiyatdagi bezovtalik "parcha" so'zini ta'kidlash, dard darajasini sezdirish orqali bildiriladi. Butunning bo'lakka ajralishi, qayg'u, alam, armonning hislar oqimini yuzaga keltirishi ma'no nuqtalarini tutashtiradi. Tanholikdagi dardmand mujda ilinjida o'zga makon, maskanga parvoz istaydi. Adib ong ostidagi tushuniksiz holat, kayfiyatni tahlil etib, intilish, mayllarini jilovlashga kirishadi.

Hayot murakkab, har kim uni o'z maqsad, muddaosiga ko'ra anglashga noil bo'ladi. Turmushdagi sinoatni bardosh ila yengishda donishlik, zakiylik bilan munosabatda bo'lish muhim. "Qaydasan" so'zi inson tuyg'u, iztirobini his ettirishi, to'g'ri qaror mashaqqatini anglatishi bilan diqqatni jalb qiladi. Adibning qahramon ruhiyatidagi bezovtalik, yo'lsizlikni savollar doirasiga biriktirish usuli samarasini beradi. Yolg'izlikka muhtalo kishi ko'nglidagi dardni tuyishda so'zlar zamiridagi ma'no qatlamini sinchiklab kuzatishni taqozo etadi.

"Bahor qaytmaydi" qissasiga Abdulla Oripovning "Ketmoqdaman" she'ri kiritilgan. Bu Alimardon tomonidan aytilar ekan, samimiylik, soflikdan yiroqlashib, tubanlikka yaqinlashgan qahramon vaziyatini tiniqlashtiradi.

*...Yaxshi qol, ey dilbarim, dilda kadar, ketmoqdaman,
Ishq aro endi holim zeru zabar, ketmoqdaman,
Na ishonchu, na quvonchu, na ko'nguldan ochma gap,
Barchasidan ushbu kun yo'qdir samar, ketmoqdaman* [Hoshimov. 2011, 40].

Obraz mantig'iga monand satrlar ruhiy holat darajasini asta balandlab boradi. Aql yo'rig'iga bo'ysunmay, hoyu, havas, shonu shuhrat asiriga aylangan erkak nafs sirtmog'iga bo'yin egadi. Yo'l motivi o'zlikdan ayrilish, mayl, istak qurboni bo'lish, barchasidan voz kechish nuqtai nazaridan belgilanadi. Qahramon kolliziyalar qurshovida o'zga manzilni ixtiyor aylasa ham ishq, vafo bobidagi zabunligini tan oladi. "Ketmoq" so'zi zamirida xudbinlik, takabburlik illatidan haqiqat manziliga intilishga ishora beriladi.

Yuqoridagi qissalar tarkibida she'riy parcha keltirilishi muallif badiiy niyatini teranlashtirish, obraz mantig'ini asoslash, voqeelikni falsafiy, estetik jihatdan to'yintirishga imkon beradi. Nasriy matn poetikasida mumtoz yo zamonaviy she'riy lavhalar ruhiyat manzarasi, tuyg'ular oqimini jonli, ta'sirli yetkazib, ifodaviylik, tas-

viriylilik, ohangdorlikni ta'minlaydi. Kuzatishlar natijasida Abdulla Qodiriy ("Obid ketmon") asarida zamonasoz she'r vaziyat talabi, Oybek ("Bolalik") qissasida Mashrab, Fuzuliy, Muqimiy, Tavallo she'rlari ehtirom maqsadida kiritilgani ma'lum bo'ladi. G'afur G'ulom ("Shum bola"), Tog'ay Murod ("Oydinda yurgan odamlar"), Murod Muhammad Do'st ("Galatepaga qaytish") asarlarida xalq qo'shiqlari, Abdulla Qahhor ("O'tmishdan ertaklar"), O'tkir Hoshimov ("Bahor qaytmaydi"), Ne'mat Aminov ("Yolg'onchi farishtalar"), Nabijon Boqiy ("Qatl-noma")lar zamondosh shoir she'rlaridan g'oyaviy, falsafiy mazmuni mustahkamlashda foydalanganlar.

Xayriddin Sulton ("Saodat sohili"), Erkin A'zam ("Otoyining tug'ilgan yili"), Isajon Sulton ("Munojot"), Shomirza Turdimov ("Mezon") qissalarida Hofiz, Rumiy, Navoiy, Bobur, Mashrab she'rlari diniy, ma'rifiy qatlamni boyitadi. Ulug'bek Hamdam "Yolg'izlik" qissasida shoirlik qobiliyatini ham yorqin namoyon etadi. Xurshid Do'stmuhammadning "Men - sensiz, sen - mensiz" qissa poetikasida mozaika usulidagi she'rlar jamlanmasi lirik pafosni quyushtiradi. Mak-tub (noma)lar zamiridagi Men va Sen tilsimini asosi Cho'lpon va Pushkin izhori ishqidan oziqlanadi. Bu obrazlar tiyatridagi oshiqlikni kitobxonga anglatish maqsadida Huvaydo, Erkin Vohidov, Usmon Azim, Muhammad Yusuf, Farida Afro'z, Abduvali Qutbiddin, Zebo Mirzo kabilar she'ri hamda Aleksandr Fet (rus), Baxtiyor Vahobzoda(ozar) bayti uyg'unlashtiriladi. Muallif muhabbat, ishq qissasini sinkretik yo'nalishda tashkillashtirib, tuyg'u, kechinmani obrazli ifodalashga, so'zning metonimik, metaforik sifatini anglatishga, badiiy samaradorlikni oshirishga muvaffaq bo'ladi. Ijodkorlar mavzuga yondashish, janr xususiyatini boyitish, inson botinini ta'sirli aks ettirishda bunday poetik usuldan o'rinli foydalanadilar. Muhimi, qissalar strukturasi she'rlar turli mazmun qirralarini ochib, badiiy obraz ruhiyatini teran yoritib, yaxlit matnning uzviy qismiga aylanib, asarning estetik qimmatini boyitishga xizmat qiladi.

Adabiyotshunos B.Karimov: "Yozuvchining badiiy-estetik ideali, badiiy-estetik tafakkuri matnda ob'ektivlashgan harf, so'z, ibora, gaplardagi-poetik nutqdagi tafakkurga nisbatan kengdir. Badiiy asar matniga yaxlit organizm sifatida qarash va germenevtik doirani (butunning qismlarga ajrashi va qismlardan butunning yuzaga kelishini) his etish eng to'g'ri va xolis adabiy - ilmiy tafakkurga xos xususiyatdir", - deya e'tirof etadi [Karimov 2014, 45].

Qissa janri inson siyrati-yu suratini turli rakursda qamrab oladi. Qahramon tadrijini yoritishda fitratidagi fazilat nuqsonni markazga birlashtirib boradi. Uning etik, estetik olami botindagi sirli

tebranish, betizgin tuyg'ularini qabartirib ko'rsatadi.

Asardagi mayda bob, qismlar aro uzviylikni anglash matn mohiyatiga kirib borishga turtki beradi. Strukturada ma'no-mazmun toblanishi, qat-qatligi, har zamonda yangi qatlami namoyon bo'lishi muhimdir. Tarkib (struktura) – tirik hodisa. Unda botiniy estetik quvvat mavjud. Mana shu quvvat tashqi estetik kuch – kitobxon bilan uchrashgach, asar tarkibidagi hayot o'zini namoyon eta boshlaydi. Ijodkor so'z vositasida hayot qonuniyatini badiiy aks ettirib, umum-bashariy muammolarni diniy, ma'rifiy qadriyatlar sathiga biriktiradi. Qissa poetikasida zamon hamda makon voqeligini qiyosiy yoritish, badiiy obraz psixologiyasidagi ilohiy, dunyoviy qarashlarni asoslash, ruhiyatdagi poklanish jarayonini anglatishga intilish kuchaydi. Qissa janri kompozitsiyasida obrazlar ko'p qirraligi, konflikt o'tkirligi, tasvirda ramziylik ortishi, botiniy mazmunning teranlashishi ko'zga tashlanadi. Dunyodagi hodisotlarni inson taqdiri bilan uzviylikda tasvirlash, tarixiy haqiqatni badiiy gavdalantirish, fojeiy holatlarni qiyosiy aspektda tahlil etish tamoyili ortadi.

Adabiyotlar

- Феллер, М. 1981. *Структура произведения*. Москва: Книга.
Sultonov, X. 1983. *Bir oqshom ertagi*. Тошкент.
Malik, T. 1989. *Alvido...bolalik*. Тошкент: Yosh gvardiya.
A'zam, E. 2002. *Kechikayotgan odam*. Тошкент: Sharq.
Norqobil, Q. 2004. *Kulib tur, azizim*. Тошкент: Sharq.
Aminov, N. 1983. *Yolg'onchi farishtalar*. Тошкент: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.
Hamdam, U. 2010. *Uzoqdagi Dilnura*. Тошкент: Akademnashr.
Hoshimov, O'. 2011. *Saylanma*. Тошкент: Sharq.
Karimov, B. 2014. *Abdulla Qodiriy va germenevtik tafakkur*. Тошкент.

Poetics title in a work of fiction (art)

Umida Rasulova¹

Abstract

The article discusses the importance of the title in the structure of a work of art. The title of the work emphasizes the manifestation of the author's ideological and aesthetic views. The integrity of the semantic points

¹Umida Rasulova - Doctor of science in philology (DSc) Tashkent State University of Uzbek language and literature named after Alisher Navoi.

E-pochta: rasulovaumida12@gmail.com

ORCID ID: 0000-9762-4407

For citation: Rasulova Umida. 2022. Poetics title in a work of fiction (art). *Uzbekistan Language and Culture* 1(2): 92-99.

allows you to clearly express the essence, increases the aesthetic power of the work. The integrity of the semantic points allows you to clearly express the essence, increases the aesthetic power of the work. With the name of the element in nature, the simbolizm in the title increases. An artist entering into an artistic dialogue must not only convey certain information and novelty to the reader, but also encourage him to a creative approach.

The first semiotic center in the content is the title, which contains the author's idea, concept. The title is a preface to the first impression, the dialogue between the author and the reader. Assessing the essence, talent, and creative intent of artists begins at this point. Stories such as "Let's go to the mountains", "Rocks also cry", "The coast of Happiness" are strengthened by the name of the place. The image of the place not only gives aesthetic pleasure, but also points to the main event, the key related to this place.

The first sentence is the beginning of the dialogue, the unseen meeting of the character and the reader, an important sign of the compositional level. The next situation and condition is the prelude to dialogues and monologues. The subject, the first impression of the conflicts are the process of moving to the next level, the acceleration of activity. In the story, the epigraph is important to generalize the poetic content, to read the artistic intention. The author increases the ideological, emotional weight by inserting the necessary extract (such as a poem, a saying, proverb, hadith) on the subject covered. It draws attention by the fact that it has the main meaning in itself, justifies the state of the character.

Key words: *prose, title, text, content, story, novella, novel, interpretation.*

References

- Feller, M. 1981. *Struktura proizvedeniya*. Moskva: Kniga.
- Sultonov, X. 1983. *Bir oqshom ertagi*. Toshkent.
- Malik, T. 1989. *Alvido...bolalik*. Toshkent: Yosh gvardiya.
- A'zam, E. 2002. *Kechikayotgan odam*. Toshkent: Sharq.
- Norqobil, Q. 2004. *Kulib tur, azizim*. Toshkent: Sharq.
- Aminov, N. 1983. *Yolg'onchi farishtalar*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.
- Hamdam, U. 2010. *Uzoqdagi Dilnura*. Toshkent: Akademnashr.
- Hoshimov, O'. 2011. *Saylanma*. Toshkent: Sharq.
- Karimov, B. 2014. *Abdulla Qodiriy va germeneytik tafakkur*. Toshkent.

Badiiy matnning lingvistik ekspertizasi ilmiy muammo sifatida

Suvanov Zovqiddin¹

Abstrakt

Maqolada yangi sho'roso'ngi makonining shakllanishi bilan yuzaga kelgan ziddiyatli vaziyatlarni o'rganishda etnik jamiyatdagi asosiy nazariy yondashuvlar muhokama qilinadi. Bu yondashuvlarning qanday konseptual zaif tomonlari yoki, aksincha, evristik imkoniyatlari keskinlikning o'ziga xos holatlarini o'rganishda, ba'zida kuch tahdidi yoki zo'ravonlikdan ochiq foydalanish natijasida etno-siyosiy mojarolar deb nomlanishda o'z aksini topadi. Bu masala, xususan, etnik kamsitish va yuzaga kelayotgan nizolarni tartibga solish kabi hodisalarni o'rganish uchun katta metodik ahamiyatga ega. Ekspert tadqiqot usuli esa sud ekspertizasi predmetiga tegishli faktik ma'lumotlarni aniqlash uchun uning obyektlarini o'rganishda qo'llanadigan mantiqiy yoki instrumental operatsiyalar tizimidir. Ekspert tadqiqotlari metodikasi – sud ekspertizasi predmetiga tegishli faktik ma'lumotlarni aniqlash uchun uning obyektlarini o'rganishda qo'llanadigan usullar tizimi.

Kalit so'z: *lingvistik ekspertiza, mantiqiy yoki instrumental operatsiyalar tizimi, etnik kamsitish, sud ekspertizasi, kuch tahdidi, zo'ravonlik.*

Kirish

Tajriba shuni ko'rsatadiki, badiiy matn ham lingvistik ekspertiza obyektiga aylanadi. Avvaliga u muallifning faqat matnshunoslik yo'nalishi maqsadida o'tkazilgan tekshirish manbai sifatida ehtiyojga ega bo'lgan. Bugungi kunda dunyo fanida badiiy matn sud nutqi jarayonida odatdagidan-da ko'proq o'rganish obyektga aylanmoqda. Bu, birinchi navbatda, intellektual mulk agentligi faoliyatida zaruratga aylandi. Unda mualliflik huquqi obyektlarini intellektual mulk (tovar) belgilari sifatida ro'yxatdan o'tkazish kun tartibidagi masalalardan bo'lib qoldi. Bundan tashqari,

¹Suvanov Zovqiddin Norqulovich - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: suvanovzavqiddin86@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-3685-2913

Iqtibos uchun: Suvanov, Z.N. 2022. "Badiiy matnning lingvistik ekspertizasi ilmiy muammo sifatida". *O'zbekiston: til va madaniyat* 1 (2): 100—113.

giyohvandlik vositalaridan foydalanishning maxfiy reklamasini tashkillashtirishga hissa qo'shadigan ma'lumotlarning mavjudligi uchun ham matnni tahlil qilishga ehtiyoj sezilmoqda. Shuningdek, bunda jismoniy va yuridik shaxslarning sha'ni, qadr-qimmati, ishchanlik obro'sini himoya qilish lozim. Ularga nisbatan haqorat, tuhmat qilish kabi, shuningdek, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va ularning tarqalishiga qarshi kurash bugun jamiyatdagi og'riqli masala. Ushbu maqolada badiiy asar inson sha'ni, qadr-qimmati va tadbirkorlik obro'sini himoya qilish uchun lingvistik ekspertiza obyekt sifatida qaralishi aks etgan.

Badiiy matnni legallashtirish imkoniyati mumkin emas, aslida. Ammo lingvistik ekspertiza bilan bog'liq hal qilinmagan muammolar bu holda ma'lum bir obyekt tomonidan murakkablashadi. Uning talqini bo'yicha uzoq yillik filologik an'analar va taxminlar mavjud. Shunda badiiy matndan foydalanishga to'g'ri keladi. Bunda muammo o'rganilayotgan obyektning o'ziga xos xususiyatlariga tegishli bir qator masalalarni o'z ichiga oladi. Muallifning badiiy shakldan foydalanishi uni qo'yilayotgan javobgarlikdan ozod qiladimi? Agar shunday bo'lsa, qanday sharoitlarda, degan savollar ko'ndalang turadi. Lingvistik ekspertiza doirasidagi badiiy matn tajribadan kelib chiqib, uni filologik talqin qilish an'alariga asoslanganmi yoki boshqa taxminlardan kelib chiqadimi? Badiiy asarning, jumladan, muallifning xarakterini hayotdagi odamlar bilan bog'lash qay darajada mumkin? Agar matn aralash janrda yozilgan va badiiy publitsistika sohasiga tegishli bo'lsa, bu masalalar yanada keskinroq tus oladi.

Ijodkorlik va san'at ijtimoiy-huquqiy sohada qo'l kelmaydi. Chunki boshqa koordinatalar tizimi tomonidan oldindan belgilab qo'yilgan yechimlar bo'lishi mumkin emas. Binobarin, bunday toifadagi ishlar uchun sud ishning barcha holatlarini har tomonlama va to'liq ko'rib chiqadi, ularning hech biri sud uchun oldindan belgilangan kuchga ega emas. Bunday hollarda sud amaliyoti nomuvofiq va ziddiyatli, lekin ko'pincha ikki yo'l bilan amalga oshiriladi: birinchi holda, obyektning badiiy asar sifatida o'ziga xosligi e'tiborga olinmaydi, boshqa holda bu ekspert lingvistik va yakuniy huquqiy tajribada hal qiluvchi omil bo'ladi. Badiiy matnni lingvistik tekshirish sud jarayoni doirasida isbotlanadigan holatlarni aniqlash maqsadida amalga oshiriladi. Bunda matn onologik xususiyat kasb etadi. Islohotga o'ch ijodkorlar katta dard bilan she'r yozishi mumkin. Darhaqiqat, badiiy matnni o'rganish doirasida, birinchi navbatda, muozarali materialni aniqlash va tasniflash bilan bog'liq ekspert vaziri-

falari izchil hal qilinishi zarur. Quyidagi shoir Shodmonqul Salom qalamiga mansub she'riy matnni shu nuqtai nazardan tahlil qilishga urinamiz:

*Ayo, zohid, yo'q, men kibr etmam,
Chin tavbam bor O'ziga – beshak!
Ayolining o'ynashiga ham
Zar to'n yopgan to'yni etgum tark!
Mardlar, alplar – zo'r afsonalar,
Ularni ham shoirlar yozgan!
Gar yashagan bo'lsa ham ular,
Qilichida qabrini qazgan.
Mardlar, erlar – yashamagan, yo'q,
Chumoliga talanib o'tgan...*

(Shodmonqul Salom, “Oripovga havas qilardim”).

Shoir kichik muammolarni emas, balki ijtimoiy katta dardni olib chiqqan. Matnda “aybsiz aybdorlik” yaxlitlangan. Uni *tavbam bor* va *tark etgum* ifodalari ko'rsatmoqda. Bundan kelib chiqadiki, har qanday lingvistik ekspertning ziddiyatli matnlarni o'rganishi badiiy matnning tahlili bilan u yoki bu darajada bog'liq. O.N.Matveevaning “Badiiy matn lingvistik ekspertiza obyekti sifatida” maqolasida “Axloq barqaror me'yorlarni yaratadi” deydi [Matveeva 2007. 370-378]. Shunga hamohang adabiy matnga nisbatan til huquqbuzarlik doirasining lingvistik tarkibiy qismlarini tavsiflaymiz.

Badiiy tasvirda mavjud haqoratli vaziyatning yuzaga kelishi sud himoyasiga murojaat qilish haqiqati bilan tasvirlanadi. Masalan, badiiy asarning salbiy lirik obrazida o'zini aybsiz ko'rsatish harakati ziddiyatga olib keladi: “aybdorlikni tan olish” va “jazodan qutulishga urinish”.

Har qanday ziddiyatli matnni, jumladan, badiiy matnni qonuniylashtirish uchun asos asilligi bo'yicha ekspert vazifalarini hal qilishdir. Shuning uchun til huquqbuzarligini o'rganishning eng muhim tarkibiy qismlari vaziyat ishtirokchilari hisoblanadi. Badiiy matnlar bilan bog'liq da'volarni qondirishdan bosh tortishning tez-tez uchrab turadigan sababi – matnda ma'lum bir shaxs ko'rsatmasining rasman yo'qligi. Shuning uchun ushbu turdagi matnlar bo'yicha ekspert amaliyotida identifikatsiya muammolarini hal qilish uchun kerakli ma'lumotlarni o'rganish juda muhim. Ayni paytda, qahramonlarni tan olish satirik turdagi badiiy va publitsistik asarlar uchun ajralmas shart, uning maqsadi – voqelikning salbiy hodisalarini masxara qilish. Bir tomondan, belgilar taniqli, boshqa tomondan, bu haqiqatga muvofiglik-nomuvofiglik doirasida baholab bo'lmaydigan tas-

virlardir. Ayrim hollarda badiiy obraz prototipini aniqlash mumkin, aslida uning matndan anglashilishi qiyin. Biroq, vaziyatning ishtirokchisini aniqlash imkoniyati ham “genetik qarindoshlik”ni o‘rnatish. Ammo shaxsiyat ichki shakl emas. Bu holat muallifga ham tegishli. Chunki badiiy asar muallifi va haqiqiy “muallif” bir xil emas, xuddi badiiy asar va real shaxslarning xarakterlari bir xil bo‘lmagani kabi. Masalan, badiiy matndagi real tarixiy shaxs bu shaxsning ruhiga mos keladigan va faqat haqiqatga muvofiqlik illyuziyasini yaratadigan, ammo uning ishonchli aksi bo‘lmagan to‘qima obrazlar ham mavjud.

Tashqi va ichki omillarni bog‘lash ham badiiy matn ekspertizasida muhim. Bunda ma’lumotlarning dalillar yoki qiymat qarorlari sifatida tajribasi tanlangan ma’lumotlar bayonining muvofiqligi hamda nomuvofiqligini chuqurroq aniqlashga e’tibor qaratiladi. Tomonlar o‘zlarini topadigan vaziyat juda keskin ziddiyatli holat bo‘lishi mumkin. Agar tasvirlangan dunyoning haqiqatga muvofiqligi isbotlansa, unda bahs mavzusi yo‘qolishi tayin. Agar uning nomuvofiqligi isbotlansa, unda badiiy matnda haqiqatdan nusxa ko‘chirilmasligi lozim. Badiiy matn – badiiy bilish usuli va tajriba timsoli. U voqelikning aksi emas. Shuning uchun notiq sifatida qo‘shimcha lingvistik vaziyatga ega bo‘lmaydi. Biroq har qanday matn ba’zi tashqi dunyo bilan o‘zaro bog‘liq holda tuziladi. Bu yerda badiiy matn uni haqiqat, yolg‘onchilik nuqtai nazaridan baholash uchun aniq ishlab chiqilmagan. Genetik nuqtai nazardan, u lingvistik bo‘lmagan haqiqat bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Biroq uning badiiyat sifatida mavjudligi haqiqat bilan bog‘liqlikni ta’minlaydi. Poetik matn – voqelikni badiiy rivojlantirish vositasi. Unda voqelik bilan aloqalar bilvosita bo‘lgan o‘zga dunyo yaratiladi. Tasvir badiiy asarda harakat qiladi va lingvistik bo‘lmagan haqiqat aniqlanmaydi. Shuning uchun tasvirning haqiqatga muvofiqligi yo nomuvofiqligini baholash shart emas.

Badiiy matndagi dalillar haqidagi ekspertiza bayonotlari rasmiy tushuncha bo‘lganligidan u bilan matnlardagi qadriyatlilik tamoyili orasida muvofiqlik bo‘lmasligi mumkin. Ijtimoiy uyg‘unlashuv bilan bog‘liq huquqiy cheklovlar yuzaga kelmasligi uchun matnni obyektiv baholash zarur. Chunki har qanday til unsuridan badiiy ifoda maqsadida foydalanish mumkin. Badiiy matn uchun yuridik mazmunli “qiymatni baholash me’yori” tushunchasi ishlatilmaydi. Shunga qaramay, ushbu bayonning ta’siri ishlatilgan vositalarning badiiy maqsadga muvofiqligi va asoslanishi bilan bog‘liq chegaralarga ham ega ekanligini unutmaslik kerak. Masalan, badiiy asarlarda tasvirlangan janjalli muammolar natijasida axloqiy aloqa me’yorlarining

buzilishi oqibatlarini eslash kifoya. Bunday badiiy asarlar muallifining javobgarligi masalasi o'quvchilarning ularga nisbatan bashorat qilingan tabiiy reaksiyasini hisobga olgan holda hal qilinishi kerak.

Ijodkorlik muammoni qo'yish va uni yechish degani emas, u faqat ijtimoiy amaliy maqsadlarni ko'zlamaydi. Shuning uchun qaysidir g'animini "badiiylashtirish" ham mumkin. Ammo tashqi biror ma'lumoti bo'lmasa, ramzlar ostiga yashiringan prototipni o'quvchi mutlaqo anglamasligi mumkin va adib "obro'sizlantirish" maqsadini mutlaqo ro'yobga chiqara olmasligi mumkin.

Badiiy asarda vaziyatni tushunish, tajribani umumlashtirish va boshqa holatlar mavjud. Haqiqiy sud amaliyoti shuni ko'rsatadiki, ba'zan badiiy matn muallifining botiniy va zohiriy niyati bo'lishi mumkin. Ko'rinishidan, badiiy va, ayniqsa, badiiy va jurnalistik matnlar bilan bog'liq holda, haqiqiy niyatni yashirish uchun badiiy shakldan foydalanish haqida gapiriladi. Badiiy matnning noaniqligi, bir tomondan, u shartli dunyoni tasvirlashini, ikkinchi tomondan, ichki shaklni yangilash imkoniyatini anglatadi. Biroq "o'rab berish" usullarning o'zi qonun bilan jinoiy javobgarlikka tortilmaydi va sharaf, qadr-qimmat va ishbilarmonlik obro'sini himoya qilish holatlarida muallifning niyatlari huquqiy tajriba doirasidan chetda qoladi.

Badiiy ifoda maqsadlarida har qanday tasviriy vosita, har qanday so'z birikmasi, jumladan, tahqirlash maqsadida qo'llanishi mumkin. Shuningdek, noadabiy ifoda badiiy matnda estetik vazifani ham bajaradi. Shuning uchun, nomaqbul shakl kategoriyasi badiiy tasvirga taalluqli emas. Ekspert amaliyoti shuni ko'rsatadiki, javobgarlar ko'pincha o'zini fosh etadigan ifodalar mantiqidan zarar ko'rishadi.

Badiiy matnning lingvistik ekspertizasida da'vo uchun ishlatilgan badiiy ifoda shakllari ham muhim. Shuningdek, matnning haqiqiy mazmuni badiiy talqinlar asosida doimiy ravishda har tomonga qarab o'zgarib borishi mumkin. Bunga bedilshunoslik bo'yicha adabiyotshunoslar orasida ommalashgan rivoyatlar e'tiborli. Shu ma'noda matn mazmuni kaleydoskop kabi har safar har xil ko'rinadi. Nafaqat turli shaxslar tomonidan matnni o'qiyotganda, balki bir kishi tomonidan matnni qayta o'qiyotganda ham bu ko'zga tashlanadi. Zotan, badiiy matn shunday hodisaki, u talqinning son-sanoqsiz variantlari yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Hatto badiiy matnning tashqi dizayni ham o'quvchini obyektiv mazmundan chalg'itishi, ko'pincha, botiniy mazmun zohiriy alomatlar tagida ko'rinmay ketishi ham mumkin.

Badiiy matn boshqa barcha nutq birliklariga nisbatan kom-

munikativ funksiyalari jihatidan ustunlik qiladi. V.N.Komissarovning fikricha, bu turdagi har qanday badiiy matnning bosh maqsadi muayyan estetik ta'sirga erishish va badiiy obraz yaratish. Ushbu adabiy yo'nalish badiiy nutqni xabar mazmuni birlamchi va mustaqil bo'lgan boshqa nutq birliklaridan ajratib turadi [Komissarov 1999, 95]. Badiiy matnni tahlil qilib, matn badiiyligini ta'minlash uchun mumkin bo'lgan maksimal semantik aniqlikdan chetga chiqish ular uchun odatiy ekanligini ta'kidlaydi.

Ko'plab badiiy matnlar – lirik, epik, dramatik asar matnlari o'quvchining hissiyotlariga ta'sir qiladi va unda estetik reaksiyani hosil qiladi. Aksariyat matnlar, ularni tashkil etish nuqtai nazaridan, belgilangan me'yorlarga rioya qilishga intilishini va, shu tariqa, matnning to'g'ri shakllanmasligiga qarshilik ko'rsatishini ta'kidlaydi. Biroq bu har doim ham badiiy matnlarga taalluqli bo'lavermaydi. Garchi ular ba'zi umumiy qabul qilingan me'yorlariga bo'ysunsa ham, ko'pincha matn to'g'riligini buzadi va gapning mazmuniy xususiyatiga ta'sir qiladi.

Badiiy matn bilan bog'liq bir necha omillarni aniqlashga harakat qilindi:

- til birliklarining ketma-ketligi, kombinatsiyasi yoki sonining ayrim turlari fonetik yoki ritmik jihatdan asosli so'zlarning va jumalarning ketma-ketlik ma'nosidan tashqari, matn shakllanishidan oldin ham ma'lum hislar, semantik kayfiyat olib kelishi mumkin.

- badiiy matn yaratish sharti, ayniqsa, versiyaviylikda muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, leksik muvofiqlikning muayyan sharti gap strukturasiidagi belgilari bo'lishi mumkin. Masalan, kinoya, so'z o'yini, metafora yoki boshqa uslubiy usullar kabi maxsus zanjirlarni yuzaga keltiradi. Sintaktik tartiblilik ham badiiy matnning o'zgarmas belgisi hisoblanadi.

- badiiy matn belgilarini qurish va tiklash uchun ishlatiladigan til birliklarining badiiy funksiyalari lug'aviy ma'nosini emas, balki, ushbu belgilar matnda bajarishi mumkin bo'lgan adabiy an'analardagi farqlarni hisobga olish muhim;

- badiiy matn o'zini namoyon qiladigan ma'lum bir kommunikativ-pragmatik vaziyat:

- ma'lum bir muallifning mavjudligi, ya'ni uning dunyo haqidagi va badiiy matn mavzusi haqidagi kognitiv-hissiy g'oyalari majmuasi va badiiy matnning o'zi:

- badiiy tartib shartlariga javob beradigan asar va o'quvchi:

- dunyo haqidagi g'oyalarning kognitiv-hissiy kompleksi

bilan o'quvchining ongida badiiy matn mavzusini qayta tiklashi.

Badiiy matnga xos bo'lgan bir nechta xususiyatlar o'ziga xos aniqlik kasb etadi:

- badiiy obraz va uning asosidagi til kategoriyasi o'rtasida bilvosita yaqin aloqa o'rnatiladi;

- semantik imkoniyatlar so'zlarning to'g'ridan-to'g'ri ma'nosini anglashi, o'quvchining fikrlari, hissiyotlari va tasavvurlarini ishga solish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Badiiy matnning semantik xususiyati realistik tipiklashtirish shakllarida yoki allegoriyada (ma'lum bir badiiy tasvir yoki dialog orqali g'oyalar(tushunchalar) ning badiiy namoyishi) yoki badiiy nutqning umumiy xilma-xilligi ta'sirida aks etadi;

- adabiyot uchun tabiiy bo'lgan mazmun va shaklning hamda badiiy shartlilikning milliy voqelanishini shartlangan obrazlarda aks ettiradi;

- asar yaratilgan davr belgisi tarixiy vaziyat va uni aks ettiruvchi badiiy obrazlar o'rtasida bog'liqlik orqali;

- yozuvchi milliy tilning individual uslublaridan foydalana-di. Uning birligini stilistik tahlil asosida qismlarga bo'lish mumkin. Badiiy matndagi alohida o'ziga xos soha she'riyat bo'lib, u ham o'z janrlariga ega.

Badiiy matnga estetik ma'lumotlarni uzatishga ixtisoslashgan omil sifatida qaraladi. Bunday matn kognitiv ma'lumotlar fonida mavjud va u to'liq ishonchli emas. Bunda badiiy matnda estetik ma'lumotni shakllantirishning ba'zi vositalariga e'tibor qaratiladi: epitetlar, qiyoslar, metafora, muallif neologizmlari, fonetik, morfemik, leksik, sintaktik, leytmotiv takrorlari, so'z o'yini, kinoya, toponimlar, asl matnning sintaktik o'ziga xosligi, dialektizmlar kabi.

Badiiy matn stilistik jihatdan turli xil leksik (dialektal, kasbiy, arxaik, ekzotik) va sintaktik lingvistik vositalar hamda so'zlashuv nutqi elementlaridan intensiv foydalanish bilan tavsiflanadi. Uning she'riy, nasriy va dramatik turlari ajratiladi. Ularning parametrlari o'z navbatida janr, tarixiy, tematik, xronologik jihatlariga ko'ra tasniflanadi.

Nasriy matn uchun belgilar:

1) nasriy matnlarning semantik va sintaktik tuzilishidan kelib chiqib bo'linishi;

2) matnda semantik va mantiqiy aloqalarning mavjudligi.

Nasriy matnning quyidagi xususiyatlari ta'kidlangan:

1) lingvistik xilma-xillikning imkoniyatlari;

- 2) polifoniya;
- 3) nutqning vizual va kognitiv imkoniyatlaridan keng foydalanish.

Shunday qilib, lingvistik ekspertiza nuqtai nazaridan badiiy matn xususiyatlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, badiiy matn boshqa turdagi matnlardan ajratib turadigan xususiyatlarga ega va unda quyidagilar hisobga olinadi:

- badiiy matnda adabiy ta'sir orqali badiiy obraz yaratish;
- badiiy matnda semantik jihatdan maksimal aniqlikdan chetga chiqish;
- badiiy matnda til birliklarining ketma-ketligi, birikmasi yoki sonining ma'lum turlari;
- matndagi til belgilarining badiiy vazifalari;
- badiiy matnda muayyan kommunikativ va pragmatik vaziyat;
- badiiy matn va til kategoriyasi o'rtasidagi bog'liqlik;
- badiiy matndagi semantik imkoniyatlar;
- badiiy matnga milliy tus berish;
- badiiy matndagi o'sha tasvirdagi davr muhiti;
- badiiy matnda yozuvchining individual uslubi;
- frazeologik birliklarning mavjudligi;
- badiiy matnda leksik va sintaktik til vositalarining xilma-xilligi va b.

Lingvistik xususiyatlar matnning leksik, grammatik, stilistik xususiyatlarida ro'yobga chiqadi.

Filologik ekspertiza og'zaki yoki yozma matnni protsessual tartibga solish bilan shug'ullanadi. Agar zarur bo'lsa, ekspert o'z ishida tilshunosning majburiy ishtiroki bilan birga boshqa mutaxassislarni jalb qilishi ham mumkin:

bu millatlararo va dinlararo mojarolar muammolari tarix, falsafa, etnografiya, konfliktologiyada tahlil qilinganligi bilan bog'liq;

terrorizm sabablarini kriminologlar, psixologlar, sotsiologlar o'rganishi mumkin; inson irqalarining kelib chiqishi masalalari – antropologlar, genetiklar va boshqalar.

Odatda ma'lum irqiy, milliy, diniy guruhlar to'g'risida faktik ma'lumotlar mavjud bo'lganligi sababli, bu yerda umumiy qoida qo'llanadi. Fakt ma'lumotlari haqiqatga mos keladigan bo'lsa, axborot tarqatish erkinligiga ustuvor ahamiyat berilishi lozim. Faktlarning haqiqatga muvofiqligini aniqlash uchun fanning belgilangan sohalari mutaxassislari jalb etilishi mumkin. Unda san'at asarlarini

aks ettiruvchi axborot materiallarini huquqiy va filologik baholash muhim xususiyatlarga ega. Ularni tahlil qilish uchun esa adabiyotshunoslikka ixtisoslashgan filologni jalb qilish tavsiya etiladi. Undagi muammoning yechimini topish usuli –badiiy matnning lingvistik ekspertizasi bilan bog‘liq hodisa. Lingvistik tahlil bilan bir qatorda og‘zaki bo‘lmagan vositalardan foydalanganda badiiy tanqid sohasidagi bilim ham talab qilinadi.

Badiiy matnning lingvistik ekspertizasi ixtiyoriy ekspert tadqiqotlari guruhiga kiradi. Unda jinoyat surishtiruv organi tomonidan ishdagi boshqa dalillar bilan birga ichki sudlanganligi asosida baholanadi.

Taqdim etilgan dastlabki ma‘lumotlar va tegishli bilim sohasining ilmiy qoidalari asosida o‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida tuzilgan ekspert xulosasi quyidagi prinsiplarga mos kelishi talab etiladi:

1) malaka prinsipi shuni anglatadiki, ularni hal qilish uchun maxsus ilmiy bilimlarni talab qilmaydigan masalalar badiiy matn ekspert oldiga qo‘yilmasligi va u tomonidan hal qilinmasligi kerak;

2) aniqlik prinsipi turli xil talqinlarga imkon beradigan noaniq xulosalarni shakllantirishga yo‘l qo‘yilmasligini anglatadi;

3) mavjudlik tamoyili.

Ekspert tomonidan hal qilingan vazifalar darajasiga qarab, obyektning tabiati va holati, obyektning tegishli tasnif asosida aniqlash, obyektlarning individual identifikatsiyasini o‘rnatish, vaziyat haqida xulosa deb farqlab ko‘rsatadi.

Ziddiyatli badiiy matnni o‘rganishda ham quyidagilarga e‘tibor qaratish zarur:

1) munozarali badiiy matn bilan jarayonni aks ettirgan nutq ishi, ya‘ni obyekt;

2) ziddiyatni keltirib chiqaradigan matn yoki nutq aloqasi va ijtimoiy xulq-atvor qoidalari buzilgan matn.

Nutqiy muloqot qoidalari an‘anaviy ravishda G.Grisning postulatlarini sifatida tushunilib, u tomonidan ishlab chiqilgan nutqiy muloqot maqsadlarini o‘z ichiga oladi.

Konfliktogen – filologik ekspertizada ziddiyatli nutq vaziyatining potensial manbai bo‘lgan so‘zlar, iboralar. U yoki bu badiiy matnning huquqni muhofaza qilish organlarining e‘tiboriga tushib qolishi va keyinchalik tadqiqot obyektiga aylanishining asosiy sababi uning mazmunida ziddiyatlarni keltirib chiqaruvchi poetik ifodalarning mavjudligidir.

Badiiy matnning lingvistik ekspertizasi ekstremistik maz-

mundagi yozma nutq asoratlarini aniqlash uchun zarur. Bundan tashqari, badiiy matnning ekstremizm belgilari bo'lgan ma'lumotlarini aks ettiruvchi materiallar sifatida uning mohiyatini aks ettiruvchi milliy nizo va adovat, tarixni soxtalashtirish, shaxsni ruhiy tushkunlikka olib kelish, shaxs ruhiyatida tajovuzkorlikni oshirish, egoizm va manfaatparastlikni targ'ib qilish, g'ayriilmiy fikrlarni singdirish, milliy va etnik ayirmachilik shaxsda loqaydlik, beparvolikni kuchaytirish, Boshqa millat, etnik qatlamlarning nafsoniyatini tahqirlash, milliy va etnik kamsitish, gender diskriminatsiyani targ'ib qilish, nepotizm, korrupsiyaga undash, pornografiyani targ'ib etuvchi unsurlar hisoblanadi.

Bularning ifodasini quyidagilarda ko'ramiz.

Etnik kamsitish. Etnik kamsitish – bu etnik dominant guruh a'zolarining qobiliyatlari bilan teng bo'lgan etnik ozchilik a'zolariga imtiyozlar berish, obro'-e'tibor va hokimiyatini asossiz ravishda rad etish.

Irqchilik. Irqchilik – bu odamlar o'rtasidagi ijtimoiy ahamiyatga va jismoniy farqlarga ega bir irq yoki etnik guruhning boshqasidan ustunligiga ishonishga asoslangan xurofot, munosabat va jarayon.

Irqchilik ham individual, ham institutsional darajada mavjud bo'lishi mumkin.

Institutsional irqchilik – bu jamiyatning tuzilishi va faoliyatiga asoslangan irqchilik, ya'ni ijtimoiy institutlar. Ya'ni bir etnik guruhni qo'llab-quvvatlaydigan va boshqalarni kamsitadigan siyosat olib borish (politsiya). Institutsional irqchilik irqchilikning bexosdan, ongsiz ko'rinishlari toifasiga kiradi. Institutsional irqchilikning namoyon bo'lishi nafaqat IIV xodimlariga xos, balki u boshqa jamoat va xususiy muassasalar faoliyatida ham aniqlangan. Shunday qilib, institutsional irqchilik turli irqiy va etnik guruh vakillarining ijtimoiy tengsizligini ko'paytirishga katta hissa qo'shadi. Institutsional irqchilik tushunchasi – jamiyatning tashkiliy tuzilmalariga asoslangan irqiy va etnik tengsizlikni ko'paytirishning tizimli jarayonlarini ta'kidlaydi. Ushbu konsepsiyaning zaifligi unndagi ilmiy qat'iylikning yetishmasligi. Nima bo'lganda ham irqchilik ko'plab sabablar va ko'rinishlarga ega bo'lgan ko'p qirrali hodisa va analitik ravishda institutsional va individual irqchilikni farqlash juda muhim.

Hozirgida odamlarning tabiiy tengsizligi haqidagi g'oyalarga asoslangan klassik irqchilik siyosiy va intellektual hayotning atrofiga o'tgan bo'lsa-da, zamonaviy jamiyat hayotidan yo'qolmadi. Eski irqchilik o'rnini turli irqiy guruhlarining madaniy tengsizligi g'oyalari

bilan bog'liq yangi irqchilik egalladi.

Yangi irqchilik madaniy ustunlikni emas, balki irqqlarning farqlarini ko'rsatadi va boshqa madaniyatga nisbatan dushmanlik odatiy va hatto odamlar uchun madaniy nomuvofiqlikka javoban ular o'z qoidalari bilan yashash istagini tabiiy his qilganda zarur. Yangi irqchilik shakllaridan biri ksenofobiya – begona, g'ayrioddiy narsalardan qo'rqish.

Gender diskriminatsiya. Gender diskriminatsiya – bu o'z vakillarini boshqa guruhlar yoki jins a'zolari uchun ochiq bo'lgan imkoniyatlardan mahrum qiladigan etnik guruhga nisbatan haqiqiy xatti-harakatlar. Jinsiy diskriminatsiya, ko'pincha, etnik xurofotga asoslangan bo'lsa-da, bu ikkisi alohida bog'liq hodisalar. Kamsitishning darajasiga qarab, R.Merton shaxsning to'rt turini ajratib ko'rsatdi:

1) ishonchli liberal – bu hech qachon kamsitishda qatnashmaydigan, xurofotsiz odam;

2) o'zgaruvchan liberal – bu xurofotsiz odam, ammo baribir jamiyat bosimi ostida kamsitishda ishtirok etadi;

3) doimiy irqchi – jamiyat bosimi ostida kamsitishda qatnashmaydigan xurofotga ega odam;

4) ishonchli irqchi - bu ikkilanmaydigan xurofotlarga ega odam.

Giyohvandlikni targ'ib qiluvchi badiiy matn. Bunda lingvistik ekspertizadan o'tkazish va uning asoratlarini bilish zarur. Giyohvand moddalarni iste'mol qilishning inson salomatligi uchun bir qancha zararlari mavjud: u inson fikrlash doirasini o'tmaslashtiradi, tana ning turli kasalliklarga chidamliligini yo'qotadi, xotirani susaytiradi. Shuningdek, bu zararli illat insonni o'ta yalqov, kamg'ayrat, oilaga beparvo, hamiyatsiz, jinsiy zaif qilib qo'yadi, ko'zni xiralashtiradi, tishlarni ham to'kib yuboradi.

Giyohvandlik kishilarni mardlik va olijanoblik kabi yaxshi sifatlardan mahrum qiladi. Insonni va'dasiga vafo qilmaydigan, ishonch bildirilsa, ishonchni oqlamaydigan, gapirsa, yolg'on gapridagan qiladi. Insondagi mas'uliyat va qard-qimmat tuyg'ularini yo'q qilib, unda qo'rqinch, xavf-xatar, qabihlik va pastkashlikni paydo qiladi. Unda o'ziga va yaqinlariga nisbatan xiyonat tuyg'ulari paydo bo'ladi.

Yana asosiy ishga qaytib, filologik ekspertiza faqat tegishli ma'lumotga ega bo'lgan va ushbu xizmatlarni taqdim etish uchun ruxsat olgan tajribali mutaxassis tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Filologik ekspertizaning maqsadlari juda boshqacha bo'lishi mumkin. Ayniqsa, sud ekspertizasi haqida gap ketganda, ko'pincha u quyidagilarni tekshirish uchun amalga oshiriladi:

- a) so'zning etimologiyasini bilish uchun;
- b) muayyan so'z ma'nosining izohi uchun;
- s) muayyan so'zning tarixiy takomilidagi ta'riflari uchun;
- d) ism va familiyaning mazmunidan kelib chiqib, izohini ta'riflash uchun;
- ye) so'zning hududiy xususiyatlarini bilish uchun;
- f) so'z ma'nosining izohi uchun;
- g) firma va kompaniyalar nomlarining mohiyati va izohlarini bilish va ularning to'g'ri yozilishi uchun;
- h) virtual axborot resurslarining ta'siri uchun;
- i) ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilgan axborot uchun;
- j) biznes va shaxsiy yozishmalardagi so'z mazmuni uchun;
- k) elektron va bosma nashrlar uchun;
- l) kundalik yozuvlar mazmuni uchun;
- m) turli janrdagi filmlar mohiyati uchun;
- n) hujjatlar-shartnomalar, bayonnomalar mohiyatini bilish uchun;
- o) badiiy adabiyotlarning yovuz ishlarga targ'ibotining oldini olish yoki oqibatining muhokamasi uchun;
- p) she'r va qo'shiqlar mazmunini tekshirish uchun;
- r) matnlar tarjimasidagi xatoliklar uchun.
- s) reklama varaqalaridagi xatoliklar ma'nosi uchun.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, ularda ekstremizmning turli xil ko'rinishlari mavjudligi uchun materiallarning sud-lingvistik ekspertizalarini takomillashtirish ko'p jihatdan shu turdagi ilmiy ish uchun uslubiy dasturni ishlab chiqish sifatiga bog'liq va u amaliy faoliyat mahsuli hisoblanadi. Shu munosabat bilan taqdim etilgan materiallarda ekstremizmning turli xil ko'rinishlari mavjudligini aniqlash uchun sud-lingvistik ekspertizasini o'tkazish metodologiyasining tuzilishini tahlil qilish o'z vaqtida va talab darajasida deb tan olinishi ham kerak. O'zbek badiiy matnlari lingvistik ekspertizasi bo'yicha masalaning kun tartibiga qo'yilishi doirasida aytish mumkinki, jamiyatda bu ilmiy yo'nalishga kuchli ehtiyoj mavjud. Bu dolzarb muammo o'zini ilmiy yechimini kutayotir.

Adabiyotlar

- Арутюнова, Н.Д. 1999. *Язык и мир человека*. Москва.
Барт Р. Семиотика. 1989. *Поэтика. Избранные работы*. Москва.
Галяшина, Е.И. 2005. *Возможности судебных речеведческих экспертиз*

по делам о защите прав интеллектуальной собственности. Интеллектуальная собственность. Авторское право и смежные права. 9.

- Голева, Н.Д. 1999. «Герой капиталистического труда» – оскорбительно ли это звание? (о двух стратегиях прагматического анализа текста как объекта юрислингвистической экспертизы). Юрислингвистика-I: проблемы и перспективы. Под ред.
- Голева, Н.Д. Барнаул, Лебедева, Н.Б. 2006. «Вот так и живем», или Подсуден ли персонаж художественного произведения? Юрислингвистика-VII: Язык как феномен правовой коммуникации/ Под ред. Барнаул.
- Лотман, Ю.М. 1981. *Текст как динамическая система.* Москва.
- Матвеева, 2007. О.Н. *Художественный текст как объект лингвистической экспертизы.* Юрислингвистика-8:
- Голева, Н.Д. *Русский язык и современное российское право: межвузовский сборник научных статей/под ред.* Кемерово; Барнаул: Изд-во Алт. ун-та.
- Комиссаров, В.Н. 1999. *Современное переводоведение.* Москва: ЭТС.

Linguistic examination of literary text as a scientific problem

Suvanov Zovqiddin¹

Abstract

The article discusses the main theoretical approaches in ethnic society in the study of conflict situations that have arisen with the formation of a new post-Soviet space. What conceptual weaknesses or, conversely, heuristic possibilities of these approaches are reflected in the study of specific cases of tension, sometimes referred to as ethno-political conflicts as a result of the threat of force or overt use of violence. This issue is of great methodological importance, especially for the study of phenomena such as ethnic discrimination and the settlement of emerging conflicts. The method of expert research is a system of logical or instrumental operations used in the study of its objects to determine the factual information relevant to the subject of forensic examination. Methodology of expert research is a system of methods used in the study of its objects to determine the factual

¹Zovqiddin N. Suvanov – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Tashkent state university of Uzbek language and literature named after Alisher Navoi.

E-pochta: suvanovzavqiddin86@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-3685-2913

For citation: Suvanov, Z.N. 2022. “Linguistic examination of literary text as a scientific problem”. *Uzbekistan: Language and Culture* 1(2): 100–113.

information relevant to the subject of forensic examination.

Key words: *linguistic expertise, system of logical or instrumental operations, ethnic discrimination, forensic expertise, threat of force, violence.*

Referenses

- Arutyunova, N.D. 1999. *Yazыk i mir cheloveka*. Moskva.
- Bart R. Semiotika. 1989. *Poetika. Izbrannyye raboty*. Moskva.
- Galyashina, Ye.I. 2005. *Vozmojnosti sudebnyx rechevedcheskix ekspertiz po delam o zaщite prav intellektualnoy sobstvennosti. Intellektualnaya sobstvennost. Avtorskoe pravo i смежные права*. 9.
- Goleva, N.D. 1999. «Geroy kapitalisticheskogo truda» – oskorbitelno li eto zvanie? (o dvux strategiyax pragmaticheskogo analiza teksta kak ob'ekta yurislingvisticheskoy ekspertizy). *Yurislingvistika-I: problemy i perspektivy/ Pod red.*
- Goleva, N.D. Barnaul, Lebedeva, N.B. 2006. «Vot tak i jivem», ili Podsuden li personaj xudojstvennogo proizvedeniya? *Yurislingvistika-VII: Yazыk kak fenomen pravovoy kommunikatsii Pod red. Barnaul.*
- Lotman, Yu.M. 1981. *Tekst kak dinamicheskaya sistema*. Moskva.
- Matveeva, 2007. O.N. *Xudojstvennyy tekst kak ob'ekt lingvisticheskoy ekspertizy. Yurislingvistika-8:*
- Goleva, N.D. *Russkiy yazыk i sovremennoe rossiyskoe pravo: meyvuzovskiy sbornik nauchnyx statey/pod red. Kemerovo; Barnaul: Izd-voAlt. un-ta.*
- Komissarov, V.N. 1999. *Sovremennoe perevodovedenie*. Moskva: ETS.

Lirikada obraz va obrazlilikning o'рни (Abdulla Oripov she'riyati misolida)

Uljon Boboqulova¹

Abstrakt

Obraz-kechinma lirikaning negizini tashkil qiladi. O'z navbatida bu kechinma badiiy ifoda uchun to'g'ridan to'g'ri maqsad bo'la olmaydi, u ma'lum vaziyatlarda yuzaga kelgan ma'lum kayfiyatlarni aks ettiradi va ularni umumlashtiradi. Ijodkorning yaratuvchanlik qobiliyati asosida qator sifat o'zgarishlariga uchraydi, yoki butunlay yangidan tug'ilib, kishini maftun etarli darajada mukammallashgan tasavvurlar olamidun dunyoga keladi. Poetik obraz yaratish uchun so'zning asl ma'nosiga nisbatan ko'chma ma'nosini, ma'lum va oddiy belgilariga nisbatan noma'lum va hatto favqulodda belgilarini tadqiq etish, so'zni mumkin qadar yangi qirralari va yangi jilolari bilan, xamelson ko'rinishda tasvirlash taqozo qilinadi. So'zga bunday o'zgacha ma'no, ko'rinish berish obrazlilikni yuzaga keltiradi. Zero, obrazlilik lirikaning muhim sharti bo'lib, har qanday kechinma obraz bo'lib shakllanmas ekan, she'rning oddiy bayondan farqi qolmaydi. Maqolada Abdulla Oripov she'riyati misolida obraz va obrazlilik xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: *Abdulla Oripov, poetik obraz, obrazlilik, lirika, inson, tabiat, kechinma, his-tuyg'u, induviduallik, umumlashma.*

Kirish

Badiiy asar ijodkorning obyektiv voqelikka bo'lgan subyektiv-estetik munosabatidan tug'iladi. Unda ana shu munosabat oqibati o'laroq, muhim deb xayol qilingan hayot ko'rinishlari o'z ifodasini topadi. "Borliqni jonli his etish va uni so'zda ifodalash shoirni yaratadi", deya ta'rif beradi Gyote shoir va she'riyatning mohiyati haqida fikr yuritib [Ekkerman 216, 141]. Darhaqiqat, har bir tashqi hodisadan avval orzu, tilak, niyat, xullas, fikr tug'iladi va bu fikr insonning tashqi olamni qanchalik darajada idrok etgani hamda o'ziga o'zlashtirgani hosilasi o'laroq yuzaga keladi. Ijodkor o'zi

¹*Boboqulova Uljon* – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti

E-mail: uljonboboqulova8@gmail.com

Iqtibos uchun: Boboqulova, U. 2022. "Lirikada obraz va obrazlilikning o'рни". *O'zbekiston: til va madaniyat* 1(2): 114—126.

anglagan tashqi ob'ektiv olamni ichki subyektivlik olamiga o'tkazadi. Ana shu ikkinchi olam – “subyektivlik saltanati bu – ichki dunyo” [Belinskiy 1955, 131]da tuyg'u va ong doirasida tashqi dunyodan yashiringan ruh tashqari olamni o'zida aks ettirgan ichki hayotning bor go'zalligi-yu mislsiz jilvalarini poeziyaga hadya qiladi. Bunda biz hamma narsani shoirning shaxsiyati va mahorati orqaligina anglaymiz. Yozuvchilar bu kabi hayot ko'rinishlarini tasviriy nutq vositasida yaratishadi.

Gap lirikaga xos obraz va obrazlilik haqida borar ekan, biz undan faqat lirik qahramon obrazini qidirishimiz kerak emas, balki lirik qahramon hislariga, kechinmalariga sabab bo'lgan obrazlar to'g'risida ham fikr yuritmog'imiz, ularni chuqur tahlil qilmog'imiz darkor.

Asosiy qism

Lirikada obraz muammosini yoritishdan oldin lirika istilohining mohiyatiga ham biroz to'xtalib o'tish joiz. Lirika yunoncha so'z bo'lib, “cholg'u asbobi” degan ma'noni anglatadi. Lirika eng qadimgi adabiy turlardan biridir va u o'zining bir qator xususiyatlariga ega. His-tuyg'u va kechinmalarni tasvirlash uning eng muhim xususiyati sanaladi. Shu bilan birga, lirika boshqa adabiy turlardan farqli o'laroq, voqelikni tasvirlamaydi. Uning uchun voqelik lirik qahramon kechinmalarining asosi, ularga turtki beradigan omil sifatida ahamiyatlidir. Shu bois ham lirik asarlarda voqelik lirik qahramonning qalb kechinmalari orqali ifodalanadi. Yana ham aniqlashtiradigan bo'lsak, kechinmalarni tasvirlash uchun oniy lahzalarda vujudga kelgan va turfa xilda tovlanuvchi “parchalar”, detallargina aks etishi mumkin. Insonni o'rab turgan rang-barang olam, uning turfa sir-sinoatlari, cheksiz ob'ektiv borliq – adabiyotning ob'ekti hisoblansa, o'sha olamda turli-tuman munosabatlarni o'zida mujassamlashtirgan inson hayoti esa uning tasvir predmetini tashkil qiladi.

“Buyuk shoir o'z “men”i xususida gapirar ekan, umum haqida – insoniyat haqida so'zlaydi. Zotan, insoniyatga xos hamma narsa uning tabiatida mavjuddir” [Belinskiy 1948, 45]. Buyuk rus tanqidchisining fikriga qo'shilgan holda yana shuni aytish mumkinki, haqiqatan ham, buyuk shoirning faqat o'zigagina tegishli, o'zigagina xos bo'lgan shaxsiy “men”i bo'lmaydi. Uning “men”ida botiniy va zohiriy olamda mavjud hamma jihatlar namoyon bo'lishi mumkin.

*Ko'rmagandi bunchalar xo'rlik,
Hatto ayoq tilganda yuzin.*

*Alamiga chidolmay sho'rlik,
Nola chekib yubordi uzun.*

Shuning uchun ham har qanday she'rxon shoir hasratida o'z hasratini, shoir dardida o'z dardini, uning quvonchida o'z quvonchini, uning qalbida o'z qalbini topadi. Uning qiyofasida faqat shoirnigina emas, balki insonni, o'z bashariy birodarini ko'radi.

Lirikaga xos obrazlilik ko'rinishlarini biz yuqorida tahlil qilganimiz – lirik qahramon obrazining namoyish etilish tarzlari belgilab beradi. Ayrim asarlarda bu obraz to'g'ridan to'g'ri aks etsa, ayrim asarlarda esa bilvosita – go'yoki lirik qahramonga aloqador bo'lmagan boshqa bir ramziy obrazlar ko'rinishida va yana ba'zi asarlarda esa goh bevosita, goh bilvosita tarzda namoyon bo'lishi mumkin. Shoir Abdulla Oripovning "Sentabr she'rlari" turkumidan o'rin olgan quyidagi she'rlarida yuqorida tilga olingan, ya'ni lirik qahramon tuyg'ularining namoyon bo'lish tarzlarini ko'rish mumkin:

*Ummon sohilida kezaman bedor,
Tong qolib Tangrining mo'jizasiga.
Qulog'im tutaman takror va takror
Hayotning abadiy o'lmas sasiga [Oripov]*

"Ummon bo'yidagi o'ylar" deb nomlangan ushbu she'rda lirik qahramon obrazi yaqqol ko'rinib turibdi. Shoirning barcha o'y-kechinmalari bevosita lirik obraz qiyofasida tasvirlangan bo'lsa, endi quyidagi she'rda esa lirik qahramon obrazini uning hayot haqidagi tasavvurlari orqali ochishga harakat qilgan:

*Ko'm-ko'k yaylov, ko'rinmaydi
Boshqa hech bir zot,
Yollarini silkitgan
O'tlaydi bo'z ot.
Yaltir-yultir uchib o'tar
Kapalak ba'zan,
Sirli olam mana shuldir,
Shuldir koinot [Oripov]*

Ko'rib turibsizki, bu she'rda o'zgacha tasvir namoyon. Shoir aytmoqchi bo'lgan poetik fikr bevosita lirik qahramonning monologiga emas, poetik obrazlarning o'ziga yuklatilgan. Lekin tabiat lirikasining go'zal namunasi orqali shoirning falsafiy qarashlari o'z ifodasini topganini ham qalban his eta olamiz.

Endi keyingi she'rga e'tiborimizni qaratsak:

*Osmonda bir tanho qush uchar,
Yuraklarni o'rtar ovozi.
Goh varrakdek balandlab ketar,
Goho pastlab ketar parvozi.
Birov bilmas, uchmish u qaydan,
Qayga qo'nar? Bu ham noma'lum.
Nolasi bor – uzilgan naydan,
G'oyib bo'lar o'tmasdan bir zum [Oripov [https://kh-davron.](https://kh-davron.uz)*

uz.]

Qarang, go'yoki lirik qahramon misralarda tasvirlangan tanho qush obrazi orqasida qolib ketganday – berkinganday ko'rinadi. She'r uch banddan iborat bo'lib, dastlabki ikki bandida “tanho qush”ning “yuraklarni o'rtovchi ovozi”, “goh baland, goho past parvozi”, “manzilining noma'lum ekanligi”, “bir zumda g'oyib bo'luvchi naydan uzilgan navosi” tasvirlari ko'lamida lirik qahramonning o'zini emas, uning tuyg'ularini, kayfiyatini, holatini bilvosita yuqorida sanab o'tilgan obrazlar orqaligina his eta olishimiz mumkin. She'rning xotimasida esa:

*O'sha qushdek yashadim cho'chib,
Sizni xavfdan ayladim ogoh.
Ketolmadim ko'kka ham uchib,*

Topolmadim yerda ham panoh...[Oripov 2018, 335]- tarzida lirik qahramon obrazi bevosita – “tanho qush” obraziga parallel ravishda bo'y ko'rsatadi. So'nggi banddan anglashiladiki, “tanho qush” bu – ijodkorning – lirik qahramonning o'zidir.

Ayrim holatlarning jozibadorligi va ommaning qalbiga chuqur yetib borishining sababi shundan iboratki, u haqda shoir so'z ochgan. Unday she'rlarda hayot ufurib turadi va shunda ildiz otgan. Shoirning mahorati natijasida poetik obraz darajasiga ko'tarilgan. Shoir poetik obrazlar orqali hayot haqiqatini boshqa muhitga – san'at olamiga, yangicha makon va zamon doirasiga olib kirgan, uni yangi bosqichga ko'targan va unga o'zgacha ko'rinish va sifat ato etgan. Bir insonning dardi-yu hasrati, quvonch-u shodligi yana bir odamga har doim ham ta'sir qilavermaydi (buning uchun o'sha notanish odamda ham shunga o'xshagan asos yoki sabab bo'lishi lozim). San'atda, ayniqsa, lirikada o'z va begona, uzoq va yaqin, irq va millat degan chegara, tafovut yo'q: shoirning tasvir ob'ektida kim turishidan qat'i nazar, uning his-tuyg'ulari, kechinmalari inson

quvonch-u shodligi yo dard-u hasrati sifatida qabul qilinadi, shuning uchun kitobxonni goh larzaga soladi, goh o'y-xayolga toldiradi, goh unga chinakam ruhiy quvvat beradi, surur bag'ishlaydi. Sababi, shoir hayotni kuzatadi, teran, o'tkir nigoh bilan uni mushohada qiladi, boshqalar anglashi qiyin bo'lgan qirralarini topadi, hayot haqiqatining mohiyatiga razm soladi, qaysidir jihatlari bilan hamjins, hamohang bo'lgan boshqa ko'pgina faktlarni o'rganadi, ularning nazardan chetda qolgan, unutilgan yoki noma'lum bo'lgan go'zallik qirralarini tadqiq etadi va konkret bir obrazda umumlashtirib beradi. Shu boisdan muayyan obrazga asos bo'lgan badiiy haqiqat hayot haqiqatiga nisbatan ko'p qirrali, umumlashma xususiyat kasb etadi, bu esa shoirga chuqur botiniy ma'noga ega bo'lgan lirik va falsafiy poetik obrazlar yaratishiga asos bo'la oladi. Bu mezon olim Uzoq Jo'raqulov ta'biri bilan aytganda, ijodkorning bir ko'zliliği atalib, bu hammaga birdek xolis bo'lish deganidir. "Bir ko'zli ijodkor uchun irq, millat, firqa singari tushunchalar mavjud emas. U butun insoniyatga samoviy mavjudot ko'zi bilan qaray oladi" [Jo'raqulov 2015, 243]. Misol uchun, Afrikaning Sahroyi Kabirida yashovchi biror kishi eskimoslarning quyoshning issiq nurlaridan mosuvo, sovuq, qorli makonlari aks ettirilgan she'rning umumiy poetik mazmunida o'z vatanini ko'ra olishi shundan darak. Axir shoirning iste'dodi, u oddiy narsaning ham go'zal jihatlari farqlashga qodir bo'lmog'idir, bunda kerakli mavzuni, tilga olishi lozim bo'lgan qirralarni, she'r mag'zini shoirga hayotning o'zi beradi; shularning barchasida ohangdor, nafis bir butunlikni yaratish endi shoirning muhim vazifasidir. Shundan xulosa qilish mumkinki, shoir lirik qahramon obrazining aynan o'zi emas. Lirik qahramon tomonidan his etilgan obraz – kechinma lirikaning qon-tomiridir.

Poetik obraz hayot haqidagi shoirona tasavvur va tafakkurning aniq bir his-tuyg'u va kechinma orqali maxsus tasvirlanishidir: bu goh ob'ektiv olamni shoirning qalb oynasida qayta aks etishi bo'lsa, goh ruhiy olamning odamlar shuuridagi, hissiyotidagi ifodasini shoir estetika qonuniyatlari asosida qayta jonlantirishi tarzida namoyon bo'ladi. Hayotdagi turfa voqea-hodisalar, unsurlar, shaxslar, turli vaziyatlar, ruhiy holatlar zamiridagi she'riyatni, odamlar qalbidagi go'zallikni aniq bir she'rlarga, konkret obrazlarga aylantirish uchun shoir ziddiyatli va murakkab holatlarni boshidan kechiradi. Poetik obraz goh birdaniga, g'oyibona tug'ilishi, goh ma'lum bir vaqt oraliğ'ida (makon va zamon) shoirning ruhiy holati natijasi o'laroq dunyoga kelishi yoki uzoq izlanishlar, ijodiy qiynoqlar jarayonida yuzaga kelishi mumkin. Har ikkala holatda ham shoirning estetik

didi yuksak shakllangan bo'lishi lozim. Faqat birinchi holda obrazlar beixtiyor, intuitiv tarzda shakllanganda ijodiy izlanishlar zohiran sezilmaydi, ya'ni lirik asarning umumiy mazmuni orqasiga "yashirinadi".

XX asrning buyuk shoirlaridan biri Iogannes Bexer "Yomon rasmlarning aybi yomon chizilganida emas, balki yomon o'ylanganidadir", deydi [Bexer 1965, 342]. Faqat shoirning oliyjanob o'y-niyati, fikrlari bilan to'la ma'nodagi poeziyani, poetik obrazlarni yaratish mushkul. Chinakam poeziya yorqin kechinmalarga aylanishi, ijod jarayonida individuallik kasb etishi va konkret xususiyatlarda namoyon bo'lishi lozim.

*Tik devorda o'rib, o'rmalab,
Chumolilar qatnar tinimsiz.
(Yashash shuni etadi talab)
Balki ular indosh yo insiz.
Ko'ryapsanmi uchrashib yo'lda
Gaplashganday bo'lar o'zaro
Hey, insonlar, boqing bu yo'lda
Ko'tarilmas urush, mojaro [Oripov 2021, 306].*

Chumoli so'zidan har bir shoir istagan she'rida har xil tasvirlarni, obrazlarni yaratishi mumkin. Adabiyotda, asosan, mehnatkashlik timsoli sifatida ta'riflanadigan bu obraz shoir Abdulla Oripov qalamiga mansub yuqoridagi "Chumolilar" she'rida yangicha obraz sifatida individuallik kasb etgan. Shoirning dunyoni teran anglashi, o'ziga xos uslubi, ijodiy ehtirosning kuchi va yaratuvchanlik dardi shaklan juda ham kichik bo'lgan hasharot obrazida katta bir umumbashariy muammolarni – insoniyat dardi va bashariyat taqdiri haqidagi o'y-xayollari tajassum qilinganligiga shubha qilish mumkinmi? She'rning dastlabki misrasidanoq "*tik devorda*" yolg'iz yo'ldan tinimsiz ravishda qarama-qarshi harakatlanayotgan (odamlar borki, ayro yo'llarda ham bir tomonga tinchgina harakatlana olmaydi) chumoli bir paytning o'zida "*o'rmoq*" va "*o'rmalamoq*" singari insoniy hamda hayvoniy sifatlarni o'zida mujassamlashtirgan badiiy umumlashma obraz sifatida namoyon bo'ladi. "*Chumolilarning tinimsiz qatnashi*" da mavjud barcha tirik jonzot uchun yashashning asosiy talablaridan biri to'xtovsiz harakat ekanligini shoir alohida ta'kidlaydi. Zotan, butun koinot hayoti harakat ustiga qurilgandir. Hatto ular indosh (bir oila vakili, mahalladosh, vatandosh) yoki indosh bo'lmagan (bir oilaga mansub bo'lmagan, bir-birini tanimagan, o'zga bir mahallaning, o'zga bir davlatning vakili) bo'lishi mumkinligi

holda ham, ularda aks ettirilgan insoniy sifatlar natijasida chuqur falsafiy ma'no kasb etadi. Odamdagi eng asosiy xususiyatlardan biri bo'lgan so'zlashish qobiliyatini chumolilarga ko'chiradi. Natijada *"uchrashib o'zaro gaplashishi"* tashbehida ijodkorning asl niyati oydinlasha boradi va xuddi shunda obrazlilik yaqqol bo'y ko'rsatadi. Chinakam poetik tuyg'u, ramziylik vositasida yaratilgan bu misralarda "chumoli" obrazi misradan misraga o'tgan sari betakror individuallik kasb etadi, tobora kuchliroq badiiy jozibaga ega bo'lib boradi – ko'p qirrali, umumlashma obraz darajasiga ko'tariladi. *"Hey insonlar, boqing bu yo'lda, Ko'tarilmas urush, mojaro"* misralarida ijodkorning g'oyaviy maqsadi, estetik ideallari xulosasi insoniyatga qilingan murojaati bilan yuzaga chiqadi. Shu tarzda shoirning "ideal olam"i bu gal "chumoli" ramziy-majoziy timsolida o'zining original talqiniga ega bo'ladi, o'zgacha falsafiy-lirik, polisemik obraz sifatida namoyon bo'ladi.

Yuqorida poetik obraz ma'lum bir vaqt oralig'ida (makon va zamon) shoirning ruhiy holati natijasi o'laroq dunyoga kelishi xususida so'z yuritgan edik. Buyuk nemis shoiri Gyotening "Marienbad elegiyalari" haqida o'sha davrda bir mishmish tarqaladiki, go'yo Gyote Marienbadda kurort sayohati chog'ida ham qalban, ham jisman beqiyos go'zal bir qiz bilan tanishib qolganmish. Qizning yonida bo'lish uchun biror imkoniyatni ham qo'ldan chiqarmay u yerda g'oyat baxtli kunlarni boshidan kechirganmish. Nihoyat undan ayrilish uning uchun behad og'ir bo'lganmish va achchiq hijron onlarida hayratangiz go'zal she'rlar yozganmish. Shuni ham tan olish kerakki, "Marienbad elegiyalari"da qalamga olingan histuyg'ular Gyotening boshqa she'rlariga nisbatan ancha-muncha kuchliroq edi. Gyote "Marienbad elegiyalari" haqida so'z yuritib: "Bular g'oyatda to'liqlik ehtiros mevasidir. Men bu ehtiros og'ushida bo'lgan paytimda, dunyoda hech bir narsa uning o'rnini bosa olmaydi, deb o'ylardim. Men bu she'rlarni boshdan kechirganlarim haqidagi hislar hali sovimayoq yozganman. She'rdagi yaqqol samimiyat ham shundan, hammasi go'yo bitta yombidan quyilgandek, buning umumiy mazmunga ham foydasi bo'lgan" [Ekkerman 2016, 68]. Ko'rinib turibdiki, she'r yuqoridagi voqea tug'dirgan kechinmalar ifodasi bo'lib, jonli ruh, kuchli ehtiros ta'sirida yuksak poetik obrazlar yuzaga kelgan. Biz tahlil qilgan "Chumolilar" she'ridagi chumoli obrazi birdaniga, g'oyibona tug'ilgan obraz bo'lishi mumkin. Tik devorda harakatlanayotgan chumolilarga bexosdan ko'zi tushgan-u, ularni kuzatish natijasida o'zida yuzaga kelgan ruhiy kechinma – ayni vaziyat shoirning yaratajak she'ri uchun detal vazifasini bajargan.

Bunda tasodif go'zal bir poetik obraz yaratilishiga asos bo'lgan, desak mubolag'a bo'lmaydi. Keyingi holatda esa ayni bir vaqtda yuz bergan bir butun kechinma – qalbning o'sha onlardagi surati shu qadar ohorli, samimiy obrazlarning yaratilishiga asos bo'lgan. Poetik obraz yuzaga kelishining ikkinchi turiga esa A.Oripovning “Hayot ibrati” she'ri yaqqol misol bo'la oladi:

*Yosh do'stim, validang qadriga yetgin,
Mayli, o'zgalarni faromush etgin.
Ona-yu Vatandir asli beminnat,
Boshqalar sherikdir, hamrohlar faqat [Oripov 2016, 268].*

Ushbu she'rdagi shoirning hayot haqidagi o'y-fikrlari, xulosalari uzoq yillik hayotiy tajribalari, bosib o'tgan umr yo'llaridan chiqargan shaxsiy mulohazalari asosida vujudga kelgan bo'lib, poetik fikr lirik qahramonning o'z-o'zini aks ettiruvchi monologi tarzida bayon etilgan. Bunda tilga olingan obrazlar ijodiy qiynoqlar, izlanishlar, ruhiy iztiroblar – kechinmalar samarasi o'laroq poetiklik kasb etgan. Chunki Ona va Vatan obrazlari haqida keskin xulosaga kelish uchun murakkab hayotiy va ijodiy jarayonni bosib o'tgan bo'lish lozim.

“Badiiy obraz borliqning san'atkor ko'zi bilan ko'rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlanib, hissiy idrok etish mumkin bo'lgan shaklda ifodalangan aksidir” [Quronov 2018, 90]. Albatta, bu aksda borliqning ko'plab izlarini topamiz, biroq endi bu izlar biz bilgan borliqning aynan o'zi emas, tamomila yangi olam – badiiy borliqning o'zidir.

*Sevgi bo'lar sevgiga javob
Yangragandek gumbazda sado...
(Qadimgi hind shoiri)*

*Qanot bog'la, hey, lirik yurak!
Hissiyotlar osmonida uch.
Dilraboning qalbiga kirgil,
Olgil qaynoq lablardan o'pich!
Qalbimsan sen, uchqur lirikam!
Qalb! Rozingni vafo bo'lib ayt.
Tingla! Go'zal qalbini rom et!
...Toki aksi sado olib qayt! [Oripov 2021, 90]*

E'tibor bergan bo'lsangiz, shoir Abdulla Oripov “Qanot bog'la”

deb nomlangan kichik hajmli she'rida lirik turning butun mazmun-mohiyatini bayon etib bergan. Asarning dastlabki bandida lirik qahramon obrazi bilvosita, ya'ni "lirik yurak", "dilrabo" obrazlari soyasiga yashirinib olgan. "Lirikaga aylantirilgan yurakni qanot bog'lab, hissiyotlar osmoniga uchishini, dilraboning qalbiga kirib, lablaridan qaynoq o'pich olishi"da obrazlilikning go'zal namunasini ko'rishimiz mumkin. "Dilrabo" obrazi tashqaridan ko'ringan go'zal obrazigina emas, balki biz yuqorida bildirgan fikr – shoirning qalbini maftun etgan, ko'nglini jalb qiluvchi va "dil tortuvchi" borliqdagi jamiki real va mavhum narsalardir. Mavjudlikning – "dilrabo"ning ichki dunyosiga – qalbiga kirib, bir-biriga singib ketgan ikki oshiq bo'sasidek ob'ekt (dilrabo) va sub'ekt (shoirning lirik yuragi)ning oshufta bo'lib ketishi haqiqiy lirik kechinmani yuzaga keltiradi. O'pich orqali "dilrabo"ning qalbini shoir qalbiga ko'chirgan uchqur lirika (yurak) endi shoirning qalbiga aylanadi. Shoir o'z qalbiga murojaat qilib, dil rozini go'zalga yetkazishi va qalbidagi go'zalning qalbini rom etishi lozim. Toki shoirning qalb kechinmalari "dilrabo" bilan uyg'un holatda "aksi sado" bo'lib qayta yaralgandagina go'zal lirik obraz dunyoga keladi. Lirik obraz esa shoirning obrazli tafakkuri – obrazlilik orqali yuzaga keladi.

Obraz va obrazlilik yo'q joyda lirika mavjud bo'lmaydi. Obrazlilik esa lirik asarlarda turfa ohang, tovush, polisemantik so'zlar orqali turli-tuman ma'no ko'chish yo'llari – badiiy tasviriy vositalar, ramziy obrazlar yordamida yuzaga keladi. Yuqoridagi bildirilgan fikrlarimizdan ayon bo'ladiki, haqiqatan real voqelikning o'zi obraz materiali bo'la olmaydi, bunda ijodkorning shaxsiyati ham muhimdir. Ya'ni "Bir badiiy obrazda ob'ektiv va sub'ektiv ibtidolar uyg'un mujassam topadi" [Quronov 2018, 91]. Shuning uchun ham bir xil mavzuni qalamga olgan ikki ijodkor, bitta narsaning suratini chizgan ikki rassom, bitta personaj rolini ijro etgan ikki aktyor tomonidan yaratilgan obrazlar bir xil bo'lmaydi, bo'lolmaydi. Fikrimiz dalili sifatida ikki shoir – Abdulla Oripov va Rauf Parfilarning bir xil obraz yaratishdagi turfa kechinmalari va tasvirini keltiramiz:

*Tonglar otar bunda entikib,
Quyosh visol deya ichikib,
Tog'lar aro ko'taradi bosh.
Qahqaha-la yoyar zarrin soch* [Oripov 2021, 334].

*Tong otmoqda tong o'qlar otar,
Tong otmoqda quyosh – zambarak.
Yaralangan yer shari yotar,*

Boshlarida yashil chambarak [To'xliyev, Karimov B. 2018, 81].

Har ikkala lirik asarda ham shaklan bir xil motivlar va obrazlar tasvirlangan, ya'ni tong otish jarayoni va quyosh. Lekin ijodkorning ichki sezimlari, voqelikni idrok qilish va his etish hamda uni qayta ifoda etish uslublari ayrodir. Ular tomonidan tasvirlangan kechinma – obraz mohiyatan bir xil bo'lsa-da, ayni lirik asarlarda tamomila bir-biriga zid o'zgacha ruh, o'zgacha kayfiyat kasb etgan. A.Oripovning "Yillar va burgut" lirik dostonidan keltirilgan yuqoridagi parchada "tongning quyosh visoli deya entikib otishi, quyosh esa tongning visoli uchun qahqaha-la zarrin sochlarini yoyib, ichikib tog'lar aro bosh ko'tarishi" motivida hayotga bo'lgan muhabbat, ertangi kunga bo'lgan ishonch, diydor ufurib turgan bo'lsa, R. Parfining "Tong otmoqda" she'rida esa tong bilan kelishib olgan quyosh go'yo zambarakki, undan otilayotgan o'qlar yerni yaralagan. Lekin bu o'qlar jon oluvchi emas, aksincha jon baxsh etuvchi, yerga yangidan hayot bag'ishlovchi o'qlar ekanligi yerning boshidagi yashil chambarak orqali obrazli tarzda ifodalanadi. Har ikkala she'rda ham tong va quyosh obrazlariga xos individual xususiyatlar katta bir badiiy umumlashmani hosil qilgan. Bu esa konkret obraz yaratilishiga olib kelgan. She'rning har misrasida obrazli tafakkur mahsuli o'laroq obrazlilik nafasi ufurib turibdi. Lirikani obraz va obrazliliksiz tasavvur etib bo'lmaydi. Yuqoridagi she'rlar mazmunini nasriy "Tong otdi va quyosh chiqdi" tarzida ifodalaganimizda hech qanday ehtiros va kechinmadan asar ham qolmaydi. Shu bois, lirik asarlarda obraz – kechinma va obrazlilik muhim kategoriya bo'lib, lirik asarning yuragi, qalbidir.

Xulosa

Haqiqiy lirik obraz yaratish uchun ijodkor borliqni o'ziga singdirishi va ichki sezimlari orqali anglangan barcha motivlarni yaxlit bir holda tasvirlashi lozim. Agar voqelikni shoir o'z xayolida qanday tasavvur qilgan bo'lsa, shunday tasvirlasa oddiy karikaturadan boshqa narsa bo'lmasdi. Nur bor, turfa ranglar bizni o'rab turibdi. Ammo o'z ko'zimizda nur va ranglar bo'lmaganida edi, biz ularni ilg'ayolmagan, ko'zimiz ochiq holda ko'r bo'lur edik. Borliqda mavjud barcha real va mavhum narsalarning ichki dunyosiga kira bilgan, ularni o'ziga singdirgan shoirning yuksak ehtirosi, tug'ma este'dodi va ilhomi orqali tashqariga aks-sado tarzida otilib chiqqan obrazlar yetuk poetik obrazlar sanaladi.

She'riyatda obrazlilik, asosan, ifodaviylik va tasviriylik tarzida namoyon bo'ladi. Ko'pincha ular yonma-yon yashaydi, bir-

biriga o'tib turadi va bir-biriga qo'shilib, singishib ketadi. Beixtiyor ilhom ola kelgan kechinma – obrazlar ifodaviylikni yuzaga keltirsa, tasviriylik esa, avval aytib o'tganimizdek, uzoq izlanishlar, tajribalar, ijodiy qiynoqlar samarasidir. Olam shu qadar keng, shu qadar boy, hayot shu qadar rang-barangki, she'r uchun mavzu hamisha topiladi. Biroq bu she'rlar uchun sabab va materialni borliqning o'zi berishi kerak. Ana shunday borliqning o'zi ilhom va iste'dod tuhfa qilgan shoir Abdulla Oripov ijodida aks ettirilgan barcha obrazlar badiiy jihatdan butun obrazlardir. Shoir ijodida obrazlar ko'lami shu qadar xilma-xilki, hayotda ijodkor qalamga olmagan mavzu qolmagandek go'yo va buning natijasida yuzaga kelgan obrazlar sistemasining o'zi bir kichik olamdir.

Abdulla Oripov she'riyatidagi obrazlar o'zining jozibadorligi, sharqona urf-odatlarining ifodasi sifatida milliy ruh bilan sug'orilganligi, teranligi, ko'p ma'noliligi (polisemik) va ularga yuklatilgan "yuk"larning og'irligi hamda salmoqdorligi jihatdan adabiyotimizda muhim o'rin tutadi. Bu obrazlar tabiatning kichik zarrasi-yu insonning eng ichki hislaridan tortib umumbashariy muammolarni ham o'ziga qamrab olgan obrazlardir. Hatto bu olamga mansub bo'lmagan botiniy olamdagi mavjudliklar ham shoir ijodida mukammal obraz darajasiga ko'tarila olgan.

Adabiyotlar

- Белинский В.Г. 1955. *Танланган асарлар*. Тошкент: Ўзбекистон.
- Белинский В.Г. 1948. *Собрание сочинений в 3-х томах*. М., Художественная литература.
- Бехер И. 1965. *Любовь моя, поэзия*. М., Художественная литература.
- Эккерман Й.П. 2016. *Гёте билан гурунгла*. Тошкент: Ўзбекистон.
- Гегел. 1958. *Сочинения*. 14-том. М., Художественная литература.
- Жўрақулов У. 2015. *Назарий поэтика масалалари*. Тошкент: Adabiyot va san'at.
- Oripov A. 2015. *Everest va Ummon*. Toshkent: O'zbekiston.
- Oripov A. 2016. *Саккизинчи жилд*. Тошкент: Шарқ.
- Oripov A. 2021. *Shoirning tug'ilishi*. Toshkent: Adabiyot.
- Oripov A. *Sentabr she'rlari*. <https://kh-davron.uz>.
- Quronov D. 2018. *Adabiyot nazariyasi asoslari*. Toshkent: Akademnashr.
- To'xlijev, B, Karimov, B. 2018. *Adabiyot*. 11-sinf o'quvchilari uchun darslik. II qism. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.

The role of image and imagery in lyrics (In the example of Abdullah Oripov's poetry)

Uljon Bobokulova¹

Abstract

The image-experience is the basis of the lyrics. In turn, this experience cannot be a direct goal for artistic expression, it reflects certain moods that have arisen in certain situations and summarizes them. Based on the creative ability of the creator, it undergoes a number of qualitative changes, or it is born completely anew and comes to the world from the world of imagination, perfected to a sufficient level of fascination. In order to create a poetic image, researching the figurative meaning of the word in relation to its original meaning, the unknown and even extraordinary signs in relation to its known and ordinary signs, using the word with as many new facets and new glosses as possible, chameleon It is recommended to describe it in the form. Giving such a special meaning and appearance to the word creates imagery. After all, imagery is an important condition of lyrics, and as long as any experience is not formed into an image, the poem will not differ from a simple statement. The article talks about image and figurativeness on the example of Abdulla Oripov's poetry.

Key words: *Abdulla Oripov, poetic image, imagery, lyrics, human, nature, experience, emotion, individuality, generalization.*

References

- Belinskiy V.G. 1955. *Tanlangan asarlar*. Toshkent: O'zbekiston.
Belinskiy V.G. 1948. *Sobranie sochineniy v 3-x tomax*. M., Xudojestvennaya literatura.
Bexer I. 1965. *Lyubov moya, poeziya*. M., Xudojestvennaya literatura.
Ekkerman Y.P. 2016. *Gyote bilan gurunglar*. Toshkent: O'zbekiston.
Gegel. 1958. *Sochineniya*. 14-tom. M., Xudojestvennaya literatura.
Jo'raqulov U. 2015. *Nazariy poetika masalalari*. Toshkent: Adabiyot va san'at.
Oripov A. 2015. *Everest va Ummon*. Toshkent: O'zbekiston.
Oripov A. 2016. *Sakkizinchi jild*. Toshkent: Sharq.
Oripov A. 2021. *Shoirning tug'ilishi*. Toshkent: Adabiyot.
Oripov A. *Sentabr she'rlari*. <https://kh-davron.uz>.

¹*Bobokulova S. Uljon* - Graduate student of Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek language and literature.

E-mail: uljonboboqulova8@gmail.com

For citation: Bobokulova, U. 2022. "The role of image and imagery in lyrics". *Uzbekistan: Language and Culture* 1(2): 114-126.

Quronov D. 2018. *Adabiyot nazariyasi asoslari*. Toshkent: Akademnashr.
To'xliyev, B, Karimov, B. 2018. *Adabiyot*. 11-sinf o'quvchilari uchun darslik.
II qism. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.

MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

Jurnalning “**Adabiyotshunoslik**” seriyasida o‘zbek va jahon adabiyoti tarixi, xalq og‘zaki ijodi, adabiyot nazariyasi, o‘zbek mumtoz adabiyotining qo‘lyozma manbalari va matnshunoslik muammolari, jadidchilik va jadid adabiyoti, zamonaviy adabiy jarayon, adabiy tanqid hamda qiyosiy adabiyotshunoslik yo‘nalishidagi eng yangi tadqiqotlar e‘lon qilinadi. O‘zbek va jahon adabiyotshunosligi erishgan so‘nggi yutuqlari aks etgan ilmiy maqolalarni nashr etishga alohida diqqat qaratiladi. Maqolalarning ilmiy saviyasi va tahliliy quvvati yuqori bo‘lishiga e‘tibor beriladi.

“**Adabiyotshunoslik**” seriyasida O‘zbekiston va xorijiy davlatlarning e‘tirof etilgan atoqli olimlari, oliy o‘quv yurtlari professor-o‘qituvchilari, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar hamda magistrantlarning ilmiy maqolalari nashr etiladi.

I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo‘lyozmalar o‘zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, boshqa turkiy tillarda ham qabul qilinadi. Agar muallif o‘z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr ettirmoqchi bo‘lsa, unda qo‘lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etilishi lozim.

Qo‘lyozmalar MS Word (.doc) formatida (uzlangcult@gmail.com) elektron pochta-siga yuboriladi. Iqtiboslar va izohlar uchun MS Word menejerini qo‘llash mumkin.

Barcha qo‘lyozmalar tahririyatga muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma‘lumot bilan taqdim etiladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig‘i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o‘ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo‘lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16th Edition* formatida shakllantiriladi. Maqola matni 3 000–5 000 so‘zdan iborat bo‘lishi kerak.

O‘zbek va ingliz tillarida 100–150 so‘zdan iborat abstrakt (annotatsiya) va 5–10 so‘zdan kam bo‘lmagan kalit so‘zlar (o‘zbek va ingliz tillarida). Abstraktda maqolaning qisqacha mazmuni va dolzarbligi, tadqiqot natijalari aks etishi lozim.

Adabiyotlar ro‘yxati 5 sahifadan oshmasligi kerak.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo‘lishi mumkin) 1500 so‘zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so‘ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

II. Maqola bo‘limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to‘q bo‘yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o‘zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tilda yozilgan bo‘lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola kirish, asosiy qism bo‘limlari va xulosadan tashkil topadi.

Maqola bo‘limlari sarlavhasi – to‘q bo‘yoqda, 14 hajm.

III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifniki" shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjimasi qavs ichida () satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

V. Havola va izohlar berish

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satr boshidan, boshqa barcha qatorlari xatboshidan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

VII. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

VIII.1. Kitoblar uchun

Bibliografiyada:

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*, Shahar: Nashriyot nomi.

Qudratullayev, Hasan. 2018. *Boburning adabiy-estetik olami*. Toshkent: Ma'naviyat.

Matnda kitobga havola:

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Qudratullayev 2018, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi. Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011 (b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Familiya, kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2011 (a), 99]

[Sirojiddinov 2011 (b), 67]

Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Abdurahmonov, G'anjion, Alibek Rustamov. 1984. *Navoiy tilining grammatik xususiyatlari*. Toshkent: Fan.

Matnda kitobga havola:

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdurahmonov, Rustamov 1984, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq mualliflari bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismlari to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda birinchi muallif ismi yoziladi va "boshqalar" deb ko'rsatiladi.

[Familiya va boshqalar kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Abdug'afurov, Abdurashid. 2016. "Badoye' ul-bidoya"ning tuzilish sanasi". *XX asr o'zbek mumtoz adabiyotshunosligi*, Olim To'laboyev muharrirligida, 174–184. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.

Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Abdug'afurov 2016, 176]

Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

Elektron kitobni bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL. Foydalanilgan sana.

Mamatov, Ulug'bek. 2018. *O'zbekiston madaniyatida tarixiy janrdagi tasviriy san'at asarlari*.

Toshkent: Mumtoz so'z. <https://kitobxon.com/uz/catalog/sanat/>. 12.03.2019.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Маматов 2018, 11]

Ikki muallif tomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek matnshunosligi qirralari*. Chikago:

Chikago universiteti nashriyoti. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2017, 19-hujjat]

VIII.2. Jurnal maqolasi uchun

Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi". *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari.

Mahmudov, Nizomiddin. 2013. "Termin, badiiy so'z va metafora". *O'zbek tili va adabiyoti* 4: 3 – 8. Toshkent.

Matnda jurnal maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Mahmudov, 2013, 5]

Elektron jurnal uchun:

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Aminov, Hasan. 2018. "O'zbekiston san'atida temuriylar siymosi". *O'zbekistonda xorijiy tillar* 2: 246 – 253. doi: 10.36078/1596780051.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

VIII.3. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida chop etilgan maqolasida aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro‘yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo‘yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo‘lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko‘rsatilishi kerak.

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. “Maqola nomi.” *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr sanasi.

Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. “Jomiy “Xamsa” yozganmi?.” *O‘zbekiston adabiyoti va san’ati*, January 25.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. “Maqola nomi.” *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Jabborov, Rustam. 2019. “Navoiyning Tabrizda yashagan xorazmlik kotibi”. *UZA: O‘zbekiston Milliy axborot agentligi*, 08.12. <https://uza.uz/uz>.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Jabborov 2010, 17]

Maqola so‘ngida foydalanilgan adabiyotlar o‘zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro‘yxati ikki qismdan iborat bo‘lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko‘rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o‘zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

Adabiyotlar

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

Adabiyotlar

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russskiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini “The Chicago Manual of Style, 16th Edition” qo‘llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle>. havolasidan ko‘rib olishingiz mumkin.

IZOHLAR

Jurnal 2017-yil 26-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0936 raqam bilan ro'yxatdan o'tgan. Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan (30.10.2021. № 308/6).

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos
Hojib ko'chasi 103-uy.
Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz
E-mail: uzlangcult@gmail.com

Bosishga 30.06.2022-yilda ruxsat etildi.
Bichimi 70x100 1/16, Ofset bosma. "Cambria" garniturasida.
Shartli b.t. 7,51. Nashr b.t. 7,62.

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali tahririyatida tayyorlandi va sahifalandi.

"YASHNOBOD NASHR" bosmaxonasida chop etildi.
Adadi 300 nusxa. Buyurtma №2.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahar Yashnobod tumani,
58-a harbiy shaharcha.